

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

O.AXMEDOVA, Z.ISOQOV, SH.QO‘LDOSHEV

**NOMODDIY MADANIY MEROSNING TABIAT VA KOINOTGA
ODI BILIM VA KO‘NIKMALARINI IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLAR NEGIZIGA SINGDIRISH
(Oliy ta‘lim misolida)**

(Uslubiy qo‘llanma)

Toshkent – 2016

Uslubiy qo‘llanma A1-011 raqamli “Nomoddiy madaniy merosining tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarini ta’lim tizimiga tatbiq etish” mavzusidagi loyiha doirasida tayyorlangan bo‘lib, oliy ta’lim tizimi uchun ishlab chiqilgan.

Uslubiy qo‘llanmadan oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, malaka oshirish tinglovchilari, shuningdek, mazkur muammoga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Loyiha rahbari va mas‘ul muharrir:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b. O.Axmedova

T a q r i z c h i l a r:

tarix fanlari doktori, professor A.Ashirov

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Q.Nishonboyeva

Uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan (2016 yil “01” iyuldagi “11” – sonli bayonnoma).

KIRISH

“Har bir xalq, jumladan, o‘zbek xalqining ham tarixi betakrordir”. Yurtboshimizning bu hikmatli so‘zlari tasdig‘ini milliy nomoddiy madaniy tariximizda g‘am yaqqol ko‘ramiz.

Xalqning iste’dodi, mahorati, didi, shuningdek, tafakkurini belgilovchi, ming yillar davomida shakllanib, madaniyatimiz ko‘zgusi darajasiga yetgan nomoddiy madaniy merosimiz istiqlol yillarida o‘z qadr-qiymatini topdi. Xalqning madaniy urf-odat va an‘analari asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga uzatilishi orqali saqlanib qolinganoligi esa bizning eng katta yutug‘imizdir. Nomoddiy madaniy merosimiz millatlararo madaniyat hamda madaniy boyliklarning almashinuvi va rivojlanishi hisobiga o‘zaro boyib, bu zamindagi barqaror taraqqiyotga munosib hissasini qo‘shib kelgan.

Nomoddiy madaniy meros va barqaror taraqqiyot o‘rtasida uzluksiz bog‘liqlik mavjud. Nomoddiy madaniy merosning muayyan elementlari amaliyotda qo‘llanilishi barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga imkoniyat yaratadi. Xuddi shuningdek, barqaror taraqqiyot nomoddiy madaniy merosga xos mahalliy elementlarning yashovchanligini ta‘minlaydi. Ayni vaqtda bunday jarayon butun jahon xalqlari uchun katta ahamiyatga ega ekanligi tan olinmoqda.

Nomoddiy madaniy meros tarkibidagi – tabiat va koinotga oid an‘anaviy bilim va ko‘nikmalar, urf-odatlar shu paytgacha xalqimiz ichida saqlanib, uning turmush tarzida o‘ta muhim ahamiyat kasb etgani holda, shu paytgacha tizimli ravishda o‘rganilmagan va yetarli darajada ta‘lim tizimiga tatbiq etilmagan. Vaholanki, BMTning 2004 yilda e‘lon qilgan “Barqaror taraqqiyot” dasturi, 2009 yilda qabul qilingan “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish” to‘g‘risidagi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 228-O‘RQ Qonuni, 2010 yilda qabul qilingan “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi” ushbu jarayonni tashkil etish uchun huquqiy asosni ta‘minlamoqda.

Davlat dasturining II bo‘limi – “Nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o‘rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish”, IV bo‘limi – “Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish”

masalalariga bagʻishlanib, uning 5-bandida nomoddiy madaniy merosning yoʻnalishlari boʻyicha grantlar ajratilishini taʼminlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, tadqiqot ishlariga yosh olimlarni jalb etish; 21, 22, 23, 24, 26, 27, 30, 32, 33-bandlarida oliy taʼlim, oʻrta maxsus, kasb-hunar va umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida ilmiy, tashkiliy-uslubiy faoliyatni tashkil etish boʻyicha vazifalar belgilangan.

Uslubiy qoʻllanmada "nomoddiy madaniy meros" tushunchasining mohiyati, uning ahamiyati, barqaror taraqqiyotni taʼminlashdagi oʻrni, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida jahonda va xususan, bizning mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar, uni muhofaza qilishning huquqiy asoslari bayon qilingan. Oʻzbekiston Respublikasining "Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida"gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010 – 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targʻib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 2010 yil 7 oktabr qarori hamda "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida" gi 2011 yil 23 fevral qarori, shuningdek, YUNESKOning "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish boʻyicha Konvensiya"sida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish muassasalari va uning tizimi haqida maʼlumotlar berilgan. Mazkur uslubiy qoʻllanmadan nainki oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilari oʻquvchilari, talabalar balki kasb-hunar kollejlari hamda, malaka oshirish tinglovchilari, mustaqil tadqiqotchilar, barcha ayni mazkur muammoga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

I BOB. QADIMIY SHARQ QO'LYOZMALARI HAMDA TURKIY XALQLARNING TURMUSH TARZIDA TABIAT - KOINOTGA OID BILIM VA URF-ODATLARNING AKS ETISHI

1.1. Qadimiy sharq qo'lyozmalarida tabiat va koinotga oid bilimlarni yoritilishi

Tabiat va koinot bilan bog'liq nomoddiy madaniy meros obektlarini o'rganishda ularning kelib chiqishi, mazmun-mohiyatini aniqlash uchun albatta tarixiy manbalardagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Sharq manbalari, ya'ni qadimgi avesto, so'g'd, xitoy, arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozma asarlardagi tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlarni o'rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

“Avesto” da tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar. O'zbekiston tarixining eng qadimgi manbalardan biri bo'lgan qadimgi “Avesto” asarida ham tabiat va koinot bilan bog'liq ma'lumotlar uchraydi. Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat unsurlarini ilohiylashtiruvchi tasavvurlarga nisbatan mukammalroq ta'limot edi. Shu bois, jahon madaniyati durdonasiga aylangan, ajdodlarimiz tafakkuri taraqqiyoti mahsuli bo'lgan “Avesto”ni tarixiy-etnologik jihatdan o'rganish o'sha davrdagi atrof-muhitni asrash bilan bog'liq masalalarga aniqlik kiritadi.

Zardushtiylik kosmogonikasi bo'yicha Yer gardish shaklida, namlik, suv hamma narsaning asosi, yerni okean qurshagan, u xuddi suvdagi taxtadek. Ana shu aqidaga ko'ra, zardushtiylik suvni hatto olovdan ham ortiqroq e'zozlashgan. Ularning fikricha, Yerni qurshab olgan olti moddaning (olti ma'bud) birinchisi suv (Apam-Napat), unda hayot kuchi bor, suvdagi hayot kuchini o'limlik sharbatlari bilan boyitib borish kerak¹.

Kishilarni suv, havo musaffoligi va tuproq unumdorligini saqlashga da'vat etgan zardushtiylik aynan bizning zaminimizda vujudga kelganligi tasodifiy emas. Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan mukammallashgan, yakkaxudolik ta'limotidir. Ta'limotda behuda qon to'kuvchi qurbonliklarni qoralab o'troq hayot kechirishga, jismoniy mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etuvchi qat'iy qoida va talablar bayon etilgan.

Jamiyat ma'naviy yuksalishidagi eng buyuk cho'qqilaridan biri tabiat va odamzod hayotidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblik mavjudligini idrok etish hisoblanadi. Tun ortidan kunning kelishi, daryolarning yuqoridan quyiga oqishi, issiq bilan sovuq, achchiq bilan chuchuk, yaxshi bilan yomonning farqiga borish odamning inson bo'lib shakllanishida o'ta muhim ahamiyat kasb etgan. Buni qadim zamonlarda yashab o'tgan ajdodlarimiz tarixi, dini, san'ati, tabobati to'la-to'kis isbotlab turibdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yozma yodgorligi – “Avesto” kitobi qismlari bilan tanishish chog'ida ming yillar burun hayot kechirgan odamlar dunyoqarashi, atrof-muhitga munosabati nechog'lik murakkab ravishda shakllanganiga guvoh bo'lamiz.

¹ Сулаймонова Ф. Нур шарқдан таралади // Фан ва турмуш. 1992. № 11 – 12. – Б. 8.

Inson hayotining davomiyligi quyosh, suv, yer, va havo bilan bog'liq. Ularning meyoriy doirada mushtarakligi talab etilgan mintaqalarda tabiatning bu to'rt unsuriga topinish, sig'inish hayot talabi asosida paydo bo'lgan. Bunday mintaqalarning har ikki xo'jalik yo'nalishi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik ularni ilohiylashtirishga olib kelgan. Ajdodlarimiz ularsiz hayotni tasavvur eta olmaganlar. O'zbekistonning barcha hududlarida bunga katta ehtiyoj sezilgan. Shuning uchun o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan barcha hududlarda har ikki xo'jalik yurituvchilarining diniy-ma'naviy dunyosida zardushtiylikning roli va o'рни katta bo'lgan. Demak, zardushtiylik dinining atrof-muhit bilan bog'liq qarashlarni har tomonlama o'rganish ekologik madaniyat tarixini yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kishilarda uy-ro'zg'ori ozodaligi, atrof-muhit pokizaligi, tabiatni muhofaza qilish xususidagi fikrlar, g'oyalar hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Zardushtiylarning asosiy mashg'ulotlari chorvachilik va dehqonchilik bo'lganligi uchun ular uy hayvonlariga ijobiy munosabatni doimo saqlab kelganlar. Masalan, sigirlar, otlar va itlar ancha e'tiborda bo'lgan. Mabodo qurbonlik qilib, mol so'yilsa, uning tili va chap jag'i kohin oldiga qo'yilgan. Bundan tashqari qurbonlik qilingan mol go'shti ibodatdan so'ng kohinlar va diniy marosimda ishtirok etgan kishilar o'rtasida taqsimlangan². Bunday qurbonlik yoki "xudoyi" – qo'y so'yish, pishirilgan kallani keksalar oldiga qo'yish, so'yilgan tana go'shtini "xomtalash" qilib, qo'ni qo'shnilariga tarqatish udumi hozir ham xalqimiz o'rtasida uchrab turadi.

Hali buddaviylik shakllanmasdan oldin (mil.av. 5 asr avval) ajdodlarimiz olovni muqaddas bilishgan. Uni har qanday tarzda tahqirlash, unga zarar yetkazish, yonib turishiga ko'maklashmaslik gunoh hisoblangan. Bu odat buddaviylikda ham davom etgan ko'rinadi. Islom tasavvurlari qobig'ida turib ham hozirgacha olov va kulga nisbatan ritual ehtiyotlik odati bizning xalqimizda saqlanib kelayotgani kabi. Buning islomgacha ko'rinishi zardushtiylikda (mazda dini) asosiy mohiyat deb hisoblagn³.

Markaziy Osiyo hududida esa tuproq va olovni e'zozlash (miloddan 6–7 ming yil muqaddam shakllangan Joytun madaniyati yodgorliklarida), to'rt unsur (suv, olov, tuproq va havo)ga e'tiqod (6–5 ming yil muqaddam Qadimiy Xorazmda), Tangriga e'tiqod (miloddan 7–8 ming yil muqaddam shakllangan Qadimgi Turon madaniyati yodgorliklarida) singari diniy va falsafiy g'oyalar vujudga kelgandir. Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning falsafiy g'oyalarida inson bilan tabiat kuchlari o'rtasidagi ziddiyat muammosi birinchi o'rindagi masala sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Abu Rayhon Beruniy "Mina kechasi" kuni haqida shunday yozgandi: "Mina ismli hukmdor ayol kechasi mast holda ipak kiyimda tashqariga chiqadi va u joyda yiqilib hushdan ketib qoladi. Bahor fasli bo'lishiga qaramasdan, sovuqdan qotib o'ladi"⁴. Bu misol Xorazm hududida naqadar qahraton qish bo'lganligidan dalolat beradi. Qadimgi Xorazmda topilgan miloddan 8–7 ming yil avval bunyod etilgan olovxonalar, zardushtiylarning ibodatxona qoldiqlari fikrimiz dalilidir.

² Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 364.

³ Каюмов А., Исҳоқов М., Отахўжаев А., Содиков Қ. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент: Ёзувчи нашриёти, 2000. – Б. 72.

⁴ Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. 1-том. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 281.

Ajdodlarimiz olov yongan o'choqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlari tashlash, turli axlat yoqish yoki o'choqdan chiqqan kulni axlatxonalarga to'kish, (vodiyning o'troq aholisi yashagan qishloqlarda kul uchun maxsus o'ra mavjud bo'lgan, yoki kul hovli chetida to'planib kuz yoki bahor faslida mineral o'g'it sifatida ekinlarga qo'shilgan) chiqindilarni o'choq olovida kuydirishni gunohi azim hisoblaganlar. Agar olov kuli bilan axlat bir joyga tashlansa, ushbu xonadonning to'y va aza marosimlari bir-biriga qo'shib ketadi, deb o'ylangan. Motam marosimlarida esa olovni bulg'amaslik uchun uch kun mobaynida ushbu xonadon o'chog'ida o't yoqib taom tayyorlanmagan. Bundan tashqari, nikoh to'yida kelin-kuyovni ins-jins, balo-qazodan poklash maqsadida olov atrofida aylantirish odati ham bizga ajdodlardan meros. Demak, yuqoridagi odatlarning kelib chiqishi qadimiy o'choq kultiga borib taqaladi.

Zardushtiylik dini bilan bog'liq ekologik konsepsiyalar tizimida nafaqat tevarak-atrof, shu bilan birga insonning o'zining pokligi borasila qayg'urilgan. Chunonchi, "Avesto"da doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lni bir necha marta yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa joyini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. "Vendidot"ning 17-bobida shaytonning najosati to'planadigan va kesib tashlanadigan tirnoq va sochni nima qilish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq berilgan⁵.

Soch va tirnoqlarning afsungarlik xossalari haqidagi zardushtiylik qarashlari izlari xalqimiz hayotida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, tirnoqlarni olganda chekka yerga tashlash lozim⁶. Agar chetroq joyga tashlanmasa, u qiyomat-qoyimda o'sha odamning oyog'i ostidan teshib chiqar emish. Shu bois ham odamlar tirnoqlarini olganda qog'ozga kafanga o'xshatib o'rab: "Qora yer senga topshirdim. Shamol sen guvoh bo'l", deb chetroq yerga ko'mib qo'yanlar⁷. Mazkur odat zamirida odam tana qoldig'i hisoblangan sochi, tirnoqni avaylash asosida inson va tabiat o'rtasidagi ijobiy munosabatlar shakllana boshlagan.

Farg'ona vodiysida olingan yoki yuvilganda to'kilgan sochlar ham olov, oqar suv yoki oyoq ostiga tashlanmagan. Chunki, qadimdan ajdodlarimiz sochni olovga, suvga tashlashni og'ir gunoh deb hisoblaganlar. Shu bois, olingan soch yoki tirnoq devorlar kovagiga qo'yiladi yoki mevali daraxt tagiga ko'miladi⁸. Bizningcha, bu odat zardushtiylikdagi tanadan ajralgan har bir narsa murdor hisoblanishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

⁵ Авесто. А. Маҳкам таржимаси... – Б. 169–170.

⁶ Тирноқ ва соч олиш, уларни сақлаш билан боғлиқ иримлар жуда кўплаб халқларда мавжуд. Бу ҳақда қаранг: Троицкая А. Л. Рождения и первые годы жизни ребенка у таджиков долины Зерафшана // СЭ. – 1935. – № 6. – С. 132; Шапиро А. Верования и обряды среднеазиатских евреев // СЭ. 1933. – № 3–4. – С. 166; Тайлор Э. М. Первобытная культура. – М. 1939. – С. 568; Черчиев А. М. О мотиве чудесных волос в дагестанской мифологии // Проблемы мифологии и верования народов Дагестана. – Махачкала 1988. – С. 52–60; Кисляков И. А. Семья и брак ... – С. 58; Толеубоев Т. А. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов ... – С. 76; Фриштейн А. А. О некоторых обычаях и поверьях, связанных с рождением ребенка у узбеков Южного Хорезма // Семья и семейный обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1978. – С. 206; Штенберг Л. Я. Первобытная религия в свете этнографии. – Л., 1936. – С. 60; Фрезер Дж. Золотая ветвь: Исследования магии и религии. – М., 1980. – С. 75.

⁷ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий этиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашр, 2007. – Б. 62.

⁸ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий ... – Б. 62.

Soch va tirnoqlarga bo'lgan pokiza munosabat Ahura Mazdaga yoqadigan xususiyat sanalgan⁹. Bu hatto hozirgi zamon kishilarida ham uchrab turadi: sartaroshxonalarda soch tolalari tezda oyoq ostidan supurib olinadi; tirnoqlar duch kelgan joyga tashlanmaydi, ular ham yig'ilib toza joyga qo'yiladi; bolaning tishi tushsa uni yo tozaroq joyga yoki "suyak tishingni ol temir tishimni ber" deb quyoshga qarab otib yuborish odati hanuzgacha mavjud¹⁰.

Hovli eshigi oldiga yoki ko'chaga axlat to'plab qo'ygan farrosh yoki uy bekasi 25 darra kaltaklash bilan jazolangan. Hovuz, chashma va ariq bo'yiga mevali daraxt o'tqazilmagan. Chunki, bir dona meva suvga tushib chirisa, "yuz ming mikroba"¹¹ tarqatishini ajdodlarimiz gigiyena fanini o'qimasalar-da, amaliyot orqali juda yaxshi bilganlar.

Shuningdek, "Avesto"da xonaki hayvonlar: qo'y, echki, sigir, eshak, ot, tuyalarni saqlash hamda parvarish qilish xususida ham foydali maslahatlar mavjud. Bir "sagi obi" – suv itini o'ldirib, uning murdasining chirib, mikroba tarqalishiga sabab bo'lgan kishi bir askarga ot, dubulg'a, sovut, qalqon, etik, kamon, nayza, gurzi, palaxmon olib berishdek jarima to'lashga majbur etilgan. Kishilarga o'zi yashayotgan xonadagi obrezda yuvinishi va cho'milishi ham qat'iy man etilgan. Chunki, yuvinish jarayonida kir va qo'lansa hid yana bug'lanib, nafas yo'li orqali tanaga kirib, og'ir kasalliklarga sabab bo'lishi mumkinligini ajdodlarimiz teran anglaganlar.

Zardushtiylik ta'limotida olovdan tashqari suvga nisbatan ham alohida qoidalar ishlab chiqilgan. Zardushtiylarda suv muqaddas unsur sanalib, avvalo, uning tozaligi borasida qayg'urilgan. Buning uchun suv manbalari – daryolar, ko'llar yoki quduqlar har qanday nopokliklardan qat'iy himoya qilingan. Agar marosimiy nopok bo'lgan qandaydir narsani yuvish lozim bo'lsa, suv maxsus joyga to'plangan, lekin shunda ham nopok narsa to'g'ridan-to'g'ri suv bilan yuvilmagan. Bunda nopok narsa avval sigir siydigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va so'ngra yakuniy poklash maqsadida suv bilan yuvilgan. Shuningdek, yomg'ir yoqqan paytda tashqariga chiqish taqiqlangan, chunki bu bilan suvni va yerni "makruh" qilib qo'yish mumkin, deb o'ylangan. Suvni isrof qilish va bulg'ash og'ir gunoh hisoblangan. "Avesta"da bu borada "Pokiza suv va yonib turgan olov oldida gustohlik qilgan zotning do'zaxda topguvchi jazosi bu dunyoning jamiyki dardu ozorlaridan mudhishdir",¹² – deyilgan.

Tadqiqot jarayonida Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida ham suv o'ziga xos muqaddas unsur sifatida e'zozlanishini kuzatdik. Jumladan, vodiya ham suvni bemavrid isrof qilish, uni bulg'ash, suvga tupurish va nopok iflos narsalarni suvga tashlash qat'iy taqiqlangan bo'lib, bunday ishlarni qilish og'ir gunoh hisoblanadi. Suv keladigan ariqlar, kanallar va zovurlar xar yili bahorda hashar yo'li bilan tozalanadi. Yangi kanallar, ariqlar qazishga hozirgi davrda ham eng savobli ishlardan biri sifatida qaraladi.

⁹ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Б. 363.

¹⁰ Дала ёзувлари. Наманган вилояти, Чуст тумани, Варзик қишлоғи. 2010 йил.

¹¹ Ҳомидий Ҳ. "Авесто"дан "Шоҳнома"га. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 78.

¹² Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Б.122.

Ajdodlardan meros, butun dunyo olimlari tomonidan o'rganilayotgan "Avesto"da yaylovlar, butazorlarni yakson qilmaslik, ekinzor, bog'-rog', mevali daraxtlarga zarar yetkazmaslik, atrof-muhit pokizaligini asrash, buloq, quduq, hovuz, ariqlar tozaligiga alohida e'tibor qaratish lozimligi xususidagi ham ibratli fikr-mulohazalar keragicha topiladi. Masalan, hovuz yoki ariq bo'yida mol boqqan yoki o'sha yerga otini bog'lagan har qanday shaxs, daraxtning bir shoxini sindirgan ham, nopok ko'zani hovuzga solgan ham 25 qamchi kaltaklanish bilan jazolangan. Atrof-muhitni, ko'cha-ko'yni, butazor, o'tloqlar yerni, suvni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar "400 qamchi urish jazosiga" hukm qilingan (Videvdot, 8-fragard, 105- band)"¹³.

Suv hayot manbai, tiriltiruvchi va muqaddas unsur sifatida tozalik ramzi hisoblangan. Shu tufayli u bilan bog'liq taqiq va odat, turli irimlar shakllangan. Suv poklik ramzi sifatida e'zozlangan.

Hanuzgacha urf-odatlarimizda saqlanib kelayotgan muqaddas aqidalar: "Suvni bulg'ama", "Suvga tupurma", "Jonivorlarga ozor berma", "Olov o'ynama, tunda bosinqiraysan", "Harom idishni olov bilan tozala" kabi o'git va hikmatlar bizga "Avesto"dan qolgan qadimiy merosdir.

"Avesto"dagi muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, qum bilan ko'mib tashlash. Shu yo'l bilan mikroblar o'ldirilgan yoki kamaygan.

2. Otash, issiqlik va sovuqlik ta'siri bilan yo'qotish. "Avesto"da otash poklovchi va ofatni ketkazuvchi vosita hisoblanadi. U bilan hatto kiyim-kechaklarni turli mikroblardan tozalab, zararsizlantirish mumkin.

3. Kimyoviy yo'l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar (isfand - isiriq, mixik, fif, sadaf, piyoz, aloe, sandal) tutatish yo'li bilan. Bularning ko'pi hozir ham mikroblarni bartaraf etuvchi hisoblanadi. "Vendidod"ning 6-bobida shamol, hayvon, parranda, pashsha orqali turli kasalliklar tarqalishi ta'kidlanib, uning oldini olish yo'llari ko'rsatilgan.

Kasallik tarqatadigan hayvon va hashoratlarni yo'qotishga da'vat etgan holda, "Avesto"da uy jonivorlarini ehtiyot qilishga chaqiriq kuchlidir. Uy hayvonlaridan mushuk va itlarni boqish qoidasiga rioya qilish, parranda va hayvonlarga behuda ozor bermaslik, ularning bemahal o'limiga sabab bo'lmaslik uqtirilgan. Ov tozisi, cho'pon kuchugi, xonaki itlarni ehtiyotlashga da'vat yodgorlikda ancha kuchli¹⁴.

Ozodalikka intilish, diniy marosimlarni o'tkazishda ishlatilgan idishlarni yuvib, saranjom-sarishta qilish ham zarur edi. Chunki ozodalik, tozalik turli-tuman ifloslik va yomonliklardan kishini asraydi, deb tushunilgan. Bunday odatlarning hozir ham o'zgacha tasavvurlar qanotida bizgacha yetib kelganini ko'ramiz. Ona va momolarimiz kechqurun ishlatilgan qozon va idish-tovoqlarni yuvib-tozalab, har qanday sharoitda ham ularni ertalabga yuvuqsiz qoldirmaydilar. Bu narsani nihoyatda xosiyatsiz narsa deb biladilar¹⁵.

¹³ Ўша манба. – Б. 64.

¹⁴ Ҳомидий Ҳ. "Авесто"дан "Шоҳнома"га. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 80.

¹⁵ Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 364.

Murda chiqqan uyda uch kecha-kunduz ovqat pishirilmaligi, ya'ni qozon osib, go'sht qaynatmaligi rasm bo'lgan¹⁶. Bu odat yurtimizning barcha mintaqalarida hozir ham davom etadi. Qo'ni-qo'shnilar ana shu uch kun davomida azadorlarni issiq ovqat bilan ta'minlab turishadi.

Toza suv bilan bog'liq ko'l, quduq va buloqlarga har qanday nopok narsalar yaqinlashmaligi kerak. Olovga ham xuddi shunday ayricha munosabat bo'lgan. Olovga toza, quruq o'tin tashlash bilan birga axlatlarni yoqish man etilgan. Iloji boricha chiqindi chiqarmaslikka va narsalarning buzilib, yomon hid taratishidan avval alohida ajratilgan joylarda yoqib yuborilgan¹⁷.

Zardushtiylar dunyoqarashi bilan bog'liq "dev", "alvasti", "ajina", "ajdaho" ("Avesto"da "Aji Dahoka"), "pari"lar ham hozirgacha o'zining dastlabki ma'nolarini ifodalaydi. Devga qarshi qalqon sifatida pichoq va nonni chaqaloq boshiga qo'yish odati ayrim joylarda hamon saqlanib qolgan. Qishloqlarimizda ba'zan to'zg'igan shamollar quyni (girdob) hozir ham "ajina shamol" tarzida idrok etiladi¹⁸.

O'lim hayotning aksi va dushmani sifatida idrok etilgani uchun, o'lim yovuz kunlarning asorati bilan sodir bo'lgani uchun unga munosabat ham boshqacha. O'likka faqat belgilangan odamlargina yaqinlashganlar, alohida o'lik yuvadiganlar bo'lgan, iloji boricha o'lgan kunining o'zidayoq jasadni maxsus joyga olib borishga harakat qilganlar. Jasad alohida ajratilgan minoralarga, qadim-qadim zamonlarda esa ochiq tog' tog' yon-bag'irlariga, cho'l va toshloq joylarga qo'yilib, qush-qumursqalar, yovvoyi hayvonlarga yemish bo'lgan. Bundan maqsad jasad yerni iflos qilmasligi, suvni bulg'amasligi, o'tlarni zaharlamasligi kerak. Jasad go'shtdan tozalangan, suyaklar to'planib astudon degan sopol idishlarga solib ko'milgan¹⁹.

Zardushtiylarda "tabiat muhofazasi va muhit tozaligini saqlash, turli kasalliklarning tarqalishining oldini olish maqsadida, – deb yozadi S. Hasanov, – sanitariya-gigiyena qoidalari amalga oshirilgan: axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mib tashlash; olov, issiqlik va sovuqlik yo'li bilan kiyim-kechaklar va oziq-ovqatlarni zararsizlantirish, kul, sirka, sharob, turli giyohlar tutatish..."²⁰.

Zardushtiylarda mehnatdan qochish va tekinxo'rlik insonni xoru-zor qiluvchi va axloqqa zid tubanlik sifatida qattiq qoralangan. Atrof-muhit tozaligini saqlash, tabiat holati bilan bog'liq jarayonga xalal bermaslik—zardushtiylar ezgu amalining bir qismidir. Jamoa a'zolari, shu jumladan yoshlar tabiatni asrash va go'zallashtirish ruhida tarbiyalanganlar. Ular yoshligidan ko'chat o'tqazish, uni parvarishlash, ko'kalamzorlashtirish, bog'-rog'lar barpo etish, ariq va hovuzlarni iflos qilmaslikka o'rgatilgan²¹.

Ajdodlarimiz ming yillar mobaynida yer, suv, havo, olov e'zozlaganlar. Afsuski, texnologik taraqqiyot natijasida, qadimiy an'analar ma'lum darajada unutilgan. Shu sababli o'zbeklarning o'tmish madaniyatini, tabiatdan oqilona

¹⁶ Ўша манба. – Б. 138.

¹⁷ Ўша манба. – Б. 364.

¹⁸ Ўша манба. – Б. 362.

¹⁹ Авесто. Тарихий... – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 365.

²⁰ Ҳасанов С. "Авесто"—ҳуқуқ манбаи // Мулоқот. 1999. № 1 – Б. 50. Иқтибоси бор:Авесто. 2001. – Б. 364.

²¹ Маҳмудова Н. "Авесто"да таълимий-ахлоқий қарашлар...– Б. 98.

foydalanishga qaratilgan marosimlarni yanada chuqurroq o'rganish, mohiyatini anglash bugunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ibtidoiy diniy tasavvurlardan biri animizmga binoan, o'lganlar u dunyoda yashashda davom etadi, ularning ruhlari esa o'z avlodlari va qavmlariga yordam beradi, deb tushunilgan. Ruhlar "Avesto"da "fravashi" sifatida tilga olingan. Fravashi – tavalludga qadar va o'limdan keyin ham yashaguvchi Qalb, madadkor farishtalar deb hisoblangan²². Yana bir jihati shundaki, fravashilar insonni o'ragan barcha tabiat hodisalariga, jumladan, tog'lar, daryolar, ko'llar, va boshqalarga ham tegishli bo'ladilar, deb ishonilgan.

Barcha yaxshiliklar: suvlar, giyohlar, ashavanlar fravashilarni olqishlamoq va hamd qilmoq istaymiz"²³. Fravashilar inson, jamiyat, tabiat, uy, qishloq, el-yurt, mamlakatni balo-qazodan asrovchi najotkor kuch sifatida anglangan. "Avesto"ning Yasna qismi (Bag'on Yasht, 23- hot, 1- band)da bu xususda shunday misralar mavjud: Fravashilar "osmonni asrab-avayladilar, qo'riqladilar, suvni asrab-avayladilar, jonivorlarni asrab-avayladilar..."²⁴.

"O'zbek xalqi orasida Zuhra yulduzi, Tong yulduzi, Cho'lpon yulduzi, Nohid nomlari bilan yuritiladi. Nohid so'zi bevosita "Avesto"dagi tabiatni yashartiruvchi, suv, yer va ayollarga homiylik qiluvchi ma'buda Ardvisura Anaxita nomi bilan bog'liq. "Avesto"dagi 5-yasht unga atalgan bo'lib, eng muhim yashtlardan hisoblanadi. Anaxita ham yulduz sifatida qayd qilinadi. Bu ilohaning nomi uch qismdan tarkib topgan. Birinchi qismi Suro yoki Sura – "donishmandlik" ma'nosida, uchinchi qismi Anaxita – uning sifatlaridan bo'lib, pok, beg'ubor, bokira ma'nosida qo'llaniladi. Hozir ham Xorazm shevalarida shaddod qizlarga nisbatan Anaquti sifatlashi ishlatilib, u Anaxita so'ziga tarixan aloqadordir.

"Avesto"da tabiat kultiga aloqador mifologik personajlar tizimida turli xil jonivorlarning timsollashtirilgan obrazlari ham anchagina. Zardushtiyar sigir, it, tuya, qo'chqor, qobon, ot va qushlarni mo'tabar deb bilganlar.

Ma'lumki, qadimgi mifologik tasavvurlarga ko'ra, insonga homiylik qiluvchi g'ayrioddiy kuchlar turli xil ko'rinishda namoyon bo'lish xususiyatiga ega deb qaralgan. Shuning uchun ham xalqimiz orasida oq ilonni arvoh deb o'ylab, uning ustidan un sochish odati, qo'yni bobolar ruhi deb tushunish, arvoh kapalakka ishonish udumlari, shuningdek, sehrli ertaklarda afsonaviy homiylarning turli-tuman jonivorlarga aylana olish motivlarining mavjudligi bejiz emas²⁵.

Odatda, taom yeyilgach, dasturxonda qolgan non ushoqlari odam bosmaydigan chekkaroq joyga "dasturxon savobini o'tgan ajdodlarimizga baxshida qildik", deb qoqiladi. Bizningcha, mazkur odatda ham ajdodlar ruhiga ehtirom g'oyasi mujassamlashgan.

"Avesto"da yozilishicha, "kimda-kim bug'doy eksa, u Asha (Haqiqat)ni ekadi. U Mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U Mazda dinini yuzlab hamdu sano, nazru niyoz va o'n minglab qurbonliklar bilan quvvatlantirgandek qudratli qiladi. Qachonki

²² Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Б. 346.

²³ Ўша манба. – Б. 54.

²⁴ Ўша манба. – Б. 68.

²⁵ Ўша манба. – Б. 67.

egatlarda urug‘ yetilsa, devlar o‘rinlaridan qo‘padilar. Qachonki bug‘doy gurkirab ko‘karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug‘doy un bo‘lsa, devlar nola chekadilar. Qachonki bug‘doy xirmonga uyulsa, devlar nobud bo‘ladilar. Qay bir xonadonda bug‘doy bosh chiqarsa, u xonadonga devlar yaqinlasha olmaydilar. Qay bir xonadonda bug‘doy bosh chiqarsa, u xonadondan devlar uzoqlashadilar. Qay bir xonadonda bug‘doy ombori bo‘lsa, go‘yo qizdirilgan temir devlar bo‘ynini chirmab tashlaydi”²⁶. Ko‘rinadiki, “Avesto” paydo bo‘lgan davrda g‘alla ekish, don yetishtirish, umuman, dehqonchilik madaniyati yetarli darajada rivojlangan va ularning ayrim ko‘rinishlari XX asrgacha yetib kelgan.

Sug‘orma dehqonchilikka asoslangan O‘rta Osiyoning barcha hududlarida qadimdan suvni va yomg‘irni e‘zozlash alohida ahamiyat kasb etgan. Suv bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar o‘zining uzoq tarixiga ega. Avestoda “Anaxita” yer, suv va hosildorlikning xudosi sifatida talqin qilinadi²⁷.

O‘rta Osiyoda Anaxita kulti bilan birga suv va namgarchilik piri sifatida “Er xubbi” yoki “Xubbi” kulti ham mavjud bo‘lgan. Bu kult haqida ko‘plab mualliflar tomonidan ma‘lumotlar yozib qoldirilgan²⁸. Ushbu kult haqida akademik Y. G‘ulomov quyidagilarni yozadi: “tabiiyki islom dini yoyilgandan so‘ng ham xalq islomgacha bo‘lgan suv xudosi Xubbi haqidagi afsonani saqlab qoldi, natijada u musulmon agiografik adabiyotiga kirib keldi”²⁹.

“...Zardushtiylik dini bilan bog‘liq bo‘lgan qadimiy marosim, urf-odat va bayramlarimizning qimmatini va afzalliklaridan biri shundaki, ular ajdodlarimizning tabiiy ehtiyojlari zahirida paydo bo‘lgan. Shu boisdan ham ular tabiat bilan uzviy bog‘liq va har biri mehnat jarayoni hamda turmushning muhim voqealariga bag‘ishlangan”³⁰.

Zardushtiylik an‘analarining izchil rivoji davomida yetti “barhayot azizlar” va ularning mifologik tabiatini o‘zida timsollashtirilgan yetti narsa – havo, tuproq, suv, o‘simlik, sigir, odam va olov sharafiga yettita marosim hamda bayramlarni o‘tkazish udumi ham kelib chiqqan. Ana shunday bayramlardan ikkitasi baxt-saodat, ezgulik, samoviy tartibot va haqiqat ramzi sifatida ulug‘langan iloha Asha nomi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan bo‘lib, bu qadimiy udumlarning asrlar davomida muayyan o‘zgarishlarga uchragan ko‘rinishlari xalqimizning yilboshi – Navro‘z bilan aloqador an‘anaviy marosimlari tizimida saqlanib qolgan³¹.

Anaxita dehqonchilik va chorvachilik, hosildorlik va pishiqchilik ma‘budasi hisoblanib uning qudratiga inson va hayvonlar, qushlar va barcha jonivorlar ham bo‘ysungan, deb hisoblanar edi. Ana shu qudratli ishonch zardushtiylik diniga, so‘ngra undan islom diniga kirib keldi va musulmon xalqlari orasida “Bibi

²⁶ Авесто. Асқар Маҳкам таржимаси. – Б. 115.

²⁷ Ушбу культнинг келиб чиқиши ва дунёнинг бошқа ҳудудларидаги шунга ўхшаш культларнинг бу билан боғлиқлиги ҳусусида батафсил қаранг: Дрезден М. «Мифология древнего ирана» // Мифология древнего мира. Под ред. Якобсон В. А. – М. 1977. – С. 337–364.

²⁸ Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Б. 33. Мухаммаджонов А. Хўжаубон кудуғи муқаддасми? // Фан ва турмуш 1986. № 9. – Б. 6–7.

²⁹ Гуломов Я. Кўрсатилган асар. – Б. 32.

³⁰ Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашр., - Б. 27.

³¹ Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 119.

Mushkulkushod”, ya’ni har qanday mushkuldan xalos etuvchi Ona obrazida o’rin topgan.

Zardushtiylar dini vakillari samoviy yoritkichlarning o’rni va ularning harakat qonuniyatlariga oid ma’lumotlarni yaxshi bilganlar. Shular asosida vaqtni, yil fasllari, dehqonchilik, chorvachilik, bog’dorchilik va boshqa ko’pgina sohalardagi ishlar muddatini aniq, to’g’ri belgilaganlar. Yevropada bu din Zoroastrizm (astro yunoncha so’z bo’lib, “yulduz” demakdir) – munajjimlik dini deb bejiz aytilmagan. “Avesto”da sayyora, burj, yulduz turkumlari va dunyo tomonlariining nomlari borki, ular osmon jismlarining nomlanish xususiyatlarining etimologiyasini aniqlashga katta yordam beradi”³².

Demak, 2700 yillar ilgari yaratilgan yaxlit bir kitob “Avesto” o’z davrida havo, tuproq, suv, o’simlik, olov, hayvonot dunyosini e’zozlash borasida o’ziga xos qonun kuchiga ega qo’llanma hisoblangan.

Zardushtiylarda mehnatdan qochish va tekinxo’rlik insonni xoru-zor qiluvchi va axloqqa zid tubanlik sifatida qattiq qoralangan. Atrof-muhit tozaligini saqlash, tabiat holati bilan bog’liq jarayonga xalal bermaslik—zardushtiylar ezgu amalining bir qismidir. Jamoa a’zolari, shu jumladan yoshlar tabiatni asrash va go’zallashtirish ruhida tarbiyalanganlar. Ular yoshligidan ko’chat o’tqazish, uni parvarishlash, ko’kalamzorlashtirish, bog’-rog’lar barpo etish, ariq va hovuzlarni iflos qilmaslikka o’rgatilgan.

Bugungi kunda ekologik muammolar umumbashariy muammoga aylandi. Ajdodlarimiz ming yillar mobaynida yer, suv, havo, olov va boshqa tabiat in’omlarini munosib ravishda e’zozlaganlar. Afsuski, ajdodlarimizning tabiatni asrash borasidagi qadimiy an’analari texnologik taraqqiyot tufayli ma’lum darajada unutilib yuborildi. Shu sababli xalqimizning qadimiy madaniyatini, tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan an’ana va marosimlarini bugungi kunda chuqurroq o’rganish, uning mohiyatini keng ommaga tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir. Bunda xalqimizning tabiatni asrab-avaylash haqidagi qarashlari, inson va tabiatning uyg’un munosabatlarini o’zida aks ettirgan qadimiy ma’naviy qadriyatlarimizni maxsus tadqiq qilish va keng ommaga yetkazish zarur.

“Avesta”da keltirilishicha, qadimda yil taqvimi bilan bog’liq marosim – “*gohanbor*”lar oltita bo’lgan. Bu bayramlar yilning muayyan vaqtlarida ni-shonlanganligi qayd etilgan. Masalan, birinchi bayram “*Mayzyuyi zarimaya*”, ya’ni “*bahorning o’rtasi*” yilning 41–45 kunlari; ikkinchisi, “*Mayzyuyi shima*” – “*yozning o’rtasi*” yilning 101–105 kunlari; uchinchisi, “*Paytyash haxya*” – “*g’allani yig’ib olish*” yilning 176–180 kunlari; to’rtinchisi, “*Ayatarima*” – “*chorvani uyga qaytarmoq*” yilning 206–210 kunlari; beshinchisi, “*Mayzyayryah*” – “*yil o’rtasi*” yilning 285–292 kunlari; oltinchisi, “*Hamaspasmasidayah*” – “*butun sipoh harakati*” yoki “*o’tgan ajdodlarning ruhi uyga qaytadigan kun*” yilning 360–365 kunlariga to’g’ri keladi³³. Demak, “Avesta” jamiyati kishilari aniq yil taqvimiga ega bo’lganlar va kundalik turmush tarzida, xo’jalik mashg’ulotlarini rejalashtirishda

³² Ўша манба. – Б. 62.

³³ Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик / Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент, 2001. – Б. 310, 316.

unga amal qilganlar hamda yilning belgilangan vaqtlarida bayram va marosimlarni o'tkazib kelganlar.

Xullas, havo, yer, suv, olov, odam pokizaligi, atrof-muhit ozodaligi, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash xususidagi g'oyalar hamon dolzarb ahamiyatga ega. Demak, "Avesto"da ilgari surilgan atrof-muhit bilan bog'liq qarashlarni har tomonlama o'rganish, uning ijobiy jihatlarini turmush tarzimizga qaytadan kiritish ekologik madaniyatning tarixiy asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

Qadimgi sug'd tilidagi xujjatlarda ham o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlarida ham tabiat va koinot bilan bog'liq marosimlari ham o'z aksini topgan.

Shimoliy-sharqdagi muhojir sug'diylar mahalliy turkiylarga zardushtiylikni targ'ib qilib, birgalikda zardushtiylik ibodatini amalga oshirishgan. Sharqiy Turkistonda Sug'ddagi kabi, ehrom-vag'n bunyod etilib, kohinlar-vag'npatlar diniy amallarni bajo keltirishgan³⁴. Biror-bir manbada tangrichilik e'tiqodidagi turkiylarning bu jarayonga qarshiliklar qilinganligi uchramaydi. Chunki turkiylar o'ta samimiy va bag'rikeng qavm edi.

Sug'diylar orqali zardushtiylik Xitoyga ham kirib bordi. Uning elementlari Xitoy tasviriy san'atida o'z aksini topdi³⁵. Vey sulolasi tarixi («Veyshu»)ning 102 bobida miloddan bir necha asr avval Xesi koridorida yashagan sug'diylarning kelib chiqishi ruziye (yuechji) va saklar va turkiylar bilan umumiy bo'lgan deyiladi³⁶. R 3929 raqamli hujjatda Dunxuandagi sug'diylar olovga sig'inishlari va ularning ibodatxonalari borligi zikr etiladi. Bundan tashqari Shimoliy Vey sulolasi Loyang shahrini o'ziga poytaxt qilgach, u yerdagi muhojir sug'diy savdogarlar o'zlariga zardushtiylik ibodatxonasi barpo etganlar³⁷. Xatto xitoyliklar va ularning ma'muriyati ham sug'diylarning diniy e'tiqodlariga mone'lik ko'rsatishmagan.

Birinchi Turk xoqonligiga oid Bugut yodnomasini bitgan shaxs zardushtiy bo'lib, matn tuzishda zardushtiylik atamaları ('swšwy'nt < av. Saošyant – qutqaruvchi, βγ, βγyst – xudo va xudolar)ni qo'llangan. Matndagi k'w βγw s'r pwrsty (B II, 10-12- qatorlar) - "U xudodan so'radi" jumlasida tuzuvchi turk xoqoni Taspar e'tiqod qilgan buddaviylikni emas, balki o'zi e'tiqod qilgan zardushtiylikning oliy ilohi Axura Mazdani nazarda tutgan. Chunki, yakka xudolikni targ'ib qiluvchi zardushtiylikda βγ - xudo jumlası asosan, Axura Mazdaga nisbatan qo'llangan. Bugut yodnomasini bitgan sug'dlik zardushtiy ham, uni bitishga amr etgan buddaviy turk ham bir-biriga chuqur ehtirom saqlab ish tutganlar.

Mug' arxivi A-17, V-15 hujjatdarida va ayniqsa, I.1 hujjatida zardushtiylik bilan bog'liq jumlarlar uchraydi. I.1 hujjatidagi prn'm βγγ δ'mδ'nk - "yaratuvchi xudo nomi bilan" jumlası o'rta forsiy zardushtiy matnlaridagi nami dadar Ohrmizd - "yaratuvchi Ormuzd nomi bilan" jumlasiga mos keladi. Qolaversa, Nov. 4

³⁴ Windengren G. Die religionen Iran. – Stuttgart, 1965. –S. 326.

³⁵ Jiang Boqin. The Zoroastrian Art of the Sogdians in China // China Archaeology and Art Digest. Vol. 4. N 1, 2000. –S. 35-71; ib. An Iconological Suroey of the Decorative Elements on the Zoroastrian Temple in Jeixiu, Shanxi // China Archeology and Art Digest. Vol. 4, N 1, 2000. –S. 85-101.

³⁶ Хўжаев А. Сўғдийларнинг Хитойга бориб қолиши. – Б. 41; Ўзи. Буюк ипак йўли. Муносабатлар ва тақдирлар. – Б. 214.

³⁷ Хўжаев А. Сўғдийларнинг Хитойга бориб қолиши. – Б.42-43; Ўзи. Буюк ипак йўли. Муносабатлар ва тақдирлар. – Б. 218.

hujjatidagi: ZKn βγγ ZY ZKn myδr' nβ'nty jumlasini - “xudo (Axuramazda) va iloh Mitra oldida qasamyod qilaman”³⁸, deb talqin qilish mumkin.

Mug' arxivining I.1 raqamli hujjatidagi³⁹ arablar vakili Abdurahmon ibn Subhning Divashtichga maktubida (720-721 yillar voqealari) quyidagi yozilgan: “Mana kecha Nijitak (nyzytk) keldi hamda kohin Ko'rchi (βγnpt kwrcy) (keldi).... Axir o'zing bilasanki, Nijitak (nyzytk) va kohin Ko'rchi (βγnpt kwrcy) sening eng yaxshi (komil) do'stlaringdir ...”, deyiladi. Maktubda nomlari keltirilgan shaxslar sug'diy Nijitak, turkiy kohin-vag'npat Ko'rchi (βγnpt kwrcy) (Qo'rchi – olov egasi, ya'ni atarban –A.O.) Devashtichning yaqinlaridan, zardushtiy kohinlar ekanligi ayon bo'ladi. Kohin Ko'rchi (βγnpt kwrcy) zardushtiylikni qabul qilgan turklardan bo'lib, ibodatxona kohini –vag'npat - βγnpt darajasiga ko'tarilgan va turkcha Ko'rchi - Qo'rchi⁴⁰ nomni olgan. Bu zardushtiylikni shu yurtda yashagan sug'diylar va turklarning umumiy dini bo'lgan deyishga asos beradi. Qolaversa, Sug'd jamiyatida zardushtiylik ibodatxonasi vakillari – mag'upat - mywpt va vag'npat - βγnptlar mafkuraviy kuch egalari hisoblanganlar. Ammo zardushtiylik turkiylar orasida yoppasiga tarqalgan, degan fikrdan yiroqmiz. Chunki, turkiylar o'z dinlari tangrichilikdan tashqari shomonlik yoki qam, buddaviylik, moniylik va sharq xristianligi – nastarianlikka ham e'tiqod qilishgan. Lekin, I.1 hujjatidagi vag'npat Ko'rchi esa shubhasiz zardushtiylikka e'tiqod qilgan turkiylardan edi.

Sug'ddagi turkiylar hayotida zardushtiylikning ahamiyatini Mug' arxivining Nov. 3 – “sug'dcha nikoh guvoynomasi” va Nov. 4 – “kuyovning kelin tomon olididagi majburiyatlari”ga oid hujjatlar aks ettiradi⁴¹. Mazkur hujjatlarda sug'diy qiz – Dug'dg'uncha, laqabi Chata-Viyusning qizi va turklardan laqabi Nidon bo'lgan O'ttakin nikohlanadi. Hujjat “Qonunlar uyi”da, uning boshlig'i Vaxgukan Varxuman (wywyk'n ZKn βγm'n BRY) o'g'li huzurida tuziladi va bir qancha guvohlar ishtirok etadi. Hujjatlarning har ikkalasida ham yigit va qizning qaysi din yoki millat vakili ekanligi qayd etilmagan. Hujjatdagi turkiy O'ttakin –'wttkyn ismi o'zagi “o't – olov” demakdir. Bu holat ham ba'zi mulohazalarni tug'dirishi mumkin.

Hujjatdagi Dug'dg'uncha Yettisuvdagi Navekat hokimi Cher (cyr)ning homiyligidagi Yettisuvlik sug'diylar vakilasi. O'ttakin esa, Sug'dning turkiy takin (tkyn) nasabli mansabdorlaridan. “Qonun uyi” (βwntyn'k 's'ny)ning boshlig'i Vaxgukan Varxuman (wywyk'n ZKn βγm'n BRY) o'g'lidan to u yerda nikoh bitimini tuzishda ishtirok etganlarning barchasining ismlari (Skatch Shishch yoki G'ig's o'g'li - sk'tc ZK šy-šc /γy-γc BRY, Chaxrin Ramch o'g'li - cyryn ZK r'mc BRY, Shav Maxak o'g'li - š'w ZK m'γ'kk BRY va kotib Ramtish Ag'ushfarn o'g'li - r'mtyš ZKn 'γwšprn BRY)⁴² sug'dcha va zardushtiylik dini vakillaridir. Nov. 3 ning mantiqiy davomi Nov. 4 da O'ttakinning kelin oldidagi majburiyatlari

³⁸ Кляшторный С.Г., Лившиц В.А. Согдийская надпись из Бугута // НАА. Вып. X. – М:Наука, 1971. – С. 133, прим. 18; Лившиц В.А. СДГМ II. – С. 110-112, 162-163, 169.

³⁹ Лившиц В.А. САГМ II. – С. 108-114; Исхосов М.М. Ун. п. к. – Т., 1992. – Б. 33-37.

⁴⁰ Турклар эса ўз тилларига мослаб “қўрчи” иборасини қўлланганлар. Гап шундаки, суғдий тилда “қ” товуши учун махсус ҳарф белгиси йўқ. Туркий “қўр”-олов сақланадиган жой маъносини бериб, “қўрчи”-зардуштий “атарбан” – “олов сақловчи / қўриқловчи” маъносида, мантиқан вағнпат –βγnpt маъносига мос келади.

⁴¹ Лившиц В.А. СДГМ II. – С. 17-45; Исхосов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. – Т.: Фан, 1990. – Б. 15-18; Унутилган подшоликдан хатлар. – Т.: Фан, 1992. – Б. 37-46.

⁴² Лившиц В.А. СДГМ II. –С.21-26.

zardushtiylikning bosh ilohlaridan biri Mitra – myōr’ oldidagi qasam bilan mustahkamlaydi: “Mitra guvohligida quyidagilarni zimmamga olaman – rtβy ZKn βyy ZY ZKn myōr’ nβ’nty”, deydi u. Bu hujjat tuzilgan sana 710 yilning 25 martlariga to’g’ri keladi va Sug’d kalendari bo’yicha “Tarxun podshoning 10 (X) yili, masvug’ich oyi (m’yy msβwyyicy), osmon ruch kuni (myδ ’sm’n rwc) tuzilgan”⁴³. O’ttakin va Dug’dg’uncha nikohi azaliy turk-sug’d munosabatidagi bir ko’rinish bo’lib, nikoh uchun na etnik va na diniy mansublik monelik qilmagan. Bu Sug’d jamiyatidagi diniy konfessiyalararo o’zaro tushinish va e’tirof ruhi hukmron bo’lganidan dalolatdir⁴⁴.

Mug’ arxivida framandar O’tt (prm’nδ’r ’wtt) ismli shaxs bilan bog’liq ko’plab hujjatlar uchraydi.⁴⁵ Bu shaxs ham Sug’d, jumladan, Panch viloyatida yuqori lavozim egasi bo’lib, O’ttakin kabi zardushtiylikni qabul qilgan turkiy edi, deyish mumkin.

Sug’diylar va turklar aralash yashagan hududlardan ko’plab ostadonlarning topilishi ham zardushtiylikning ikki xalq o’rtasida O’rta Osiyoda bir xilda amal qilinganligini qo’rsatadi. Ilk ostadon 1871 va 2001 yillarda Choch hududidan topilgan bo’lsa, 1886 yilda N.I. Veselovskiy Afrosiyobdan fragmental ostadon topib, uni «musulmon davrigacha bo’lgan loyli qabr» deb hisob, u 1900 yilda fanga lotincha ossuarium – «suyakdon» yoki «ostadon» atamasini olib kirdi⁴⁶. Kushoniyadagi ehromda xitoy, turk podsholari va hind braxmanlari tasviri chizilgan, u yerda mahalliy hokim «namoz ibodati»ni (sug’d. nm’c – ta’zim) bajaragani aks ettiriladi⁴⁷.

Sharq xalqlarining yil taqvimini bilan bog’liq marosimlarni o’zida aks ettirgan o’rta asr yozma manbalari orasida buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “*Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*” nomli asari alohida ahamiyatga molik. Mazkur tarixiy-etnografik asarda islomgacha bo’lgan davrdagi xorazmliklar, so’g’diylar, eronliklar amal qilgan yil taqvimlari va oylarning nomlanishi hamda ular asosida o’tkaziluvchi hayitlar – bayramlar, turli-tuman marosimlar hamda o’zaro o’xshashliklari va o’ziga xosliklari borasida e’tiborga sazovor ma’lumotlarni bayon etilgan⁴⁸. Ayniqsa, allomaning *Navro’z*, *Mehrjon*, *Sada*, “*qovoq bayrami*”, “*uzum bayrami*”, “*o’tgan ajdodlarni xotirlash*” bilan bog’liq bayram va marosimlar to’g’risidagi ma’lumotlari tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur bayramlarning barchasi yil taqvimlariga mos ravishda o’tkazilgan bo’lib, ularda tabiatda yuz beradigan o’zgarishlar aks etgan. Shuningdek, olim qadimgi xalqlar amal qiluvchi taqvimlardagi oy nomlarini qayd etish bilan birga mazkur oylardagi kunlarning ham o’ziga xos nomlar bilan atalishini bayon etgan.

⁴³ Лившиц В.А. СДГМ II. –С.21-22.

⁴⁴ Отахўжаев А. Суғддаги туркларда зардуштийлик / Авесто китоби – тарихимиз ва маданиятимизнинг илк ёзма манбаи мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари. – Тошкент, 2000. – Б. 80-83.

⁴⁵ СДГМ II. – С. 136-156; СДГМ III. – С. 29-88.

⁴⁶ Иностранцев К.А. О древнеиранских погребальных обычаях и постройках // Журнал Министерства народного просвещения. – Спб., № 3-4, 1909. Ставиский Б.Я. и др. Пянджикентский некрополь // МИА, 1953, № 37; Асқаров А. Бешкапа оссурийлари. // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, 2001-йил. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ нашриёти, 2002. –Б.33-38; Миносянц Б.С. Новые находки оссуариев из Тойтепа // О’zbekiston moddiy madaniyati tarixi, 33-nashr. – Самарқанд, 2002. - С. 168-172.

⁴⁷ Гафуров Б.Г. Кн. I. – С. 364; Смирнова О.И. Места домусульманских культов в Средней Азии (по материалам топонимии). - С. 98.

⁴⁸ Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. Т.1. – Б. 233–252.

Beruniy asarlarida tabiat va koinot masalalari. Abu Rayhon Beruniyning “Qonuniy Ma’sudiy” (“Al-Qonun al-Ma’sudiy fil hay’a van-nujum” – “astronomiya fanida Ma’sud ismiga yozilgan qonun”) asari olimning eng yirik asari bo‘lib, uni muallif umrining oxirgi yillarida yozgan. Kitob Sulton Ma’sudga atalgan, 1030-1037 yillarda yozilgan qo‘lyozma nusxalari anchagina.

Asar 12 ta maqoma (ya’ni kitob)dan iborat bo‘lib, har maqom bir necha boblarga bo‘lingan. 1-maqolada olamning yaratilishi, geotsentrik tuzilishini Ptolomey fikriga asoslanib bayon etilgan. 2-maqolada yillar va kalendarlar, 3-maqolada triganometrik ma’lumotlar, 4-maqolada sferik astronomiya va joylarning kengliklarini belgilash usullari, 5-maqolada joylarning uzunliklarini belgilash usullari, 6-maqolada Quyosh harakati, 7-maqolada Oyning harakati, 9-11-maqolalarda yulduzlar harakati, 12-maqolada munajjimlarning yil hisobi bayon qilingan⁴⁹.

Navro‘z bayrami – sharq qo‘lyozmalarida yoritilishi. Yil taqvimi bilan bog‘liq tadqiqotlardan ma’lumki, quyoshning yillik harakati davomidagi burilish nuqtalari: bahorgi va kuzgi tengkunlik hamda yozgi va qishki quyosh turishi kunlari davriy chegara vazifasini o‘tagan.

Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari ham amal qiluvchi quyosh taqvimi bahorgi teng kunlik (21 mart)dan boshlangan va yangi yil bayrami – *Yilboshi* (so‘g‘diylarda – *Navsard*, xorazmliklarda – *Novsorji*)⁵⁰, *Navro‘z* (*Nav* – Yangi, *ro‘z* – kun) nomlari bilan bayram qilingan. Hozirda ham katta tantanalar bilan nishonlanuvchi ulug‘ bayram – Navro‘z Sharq xalqlari orasida makon va zamon haqidagi dastlabki tasavvurlar paydo bo‘lgan zamonlardan boshlab shakllangan. O‘sha davr qarashlariga ko‘ra, yil qish va yozdan iborat bo‘lib, uzoq davom etgan sovuq va ochlikdan so‘ng issiq kunlarning boshlanishi o‘zgacha kayfiyatda, katta tantanalar bilan kutib olingan hamda bayram qilingan. O‘rta asr muarrixii Narshaxiy Navro‘zning bayram qilina boshlaganiga “...uch ming yildan ortiqroq vaqt o‘tdi”⁵¹, deb yozgan bo‘lsa, zamonamiz tarixchilari turli arxeologik materiallar va tarixiy manbalarga asoslanib “uning ildizi neolit... davriga borib taqaladi”⁵², degan xulosani bildiradilar.

Sharq mamlakatlari hayotida muhim o‘rin tutgan hamda tadqiqotchilar tomonidan turli tarixiy davrlarda keng ko‘lamda o‘rganilgan va turlicha talqin qilingan⁵³ Navro‘z bayramida o‘zbeklarning asrlar davomida shakllanib kelgan falsafiy, tarixiy va milliy qarashlari namoyon bo‘ladi.

Zardushtiylik mifologiyasiga ko‘ra Axuramazda uzoq kurashdan so‘ng Axriman ustidan g‘alaba qozongan. Tabiatning uyquga ketishi va qayta jonlanishi

⁴⁹ Бўриев О. Марказий Осиё тарихий географиясидан лавҳалар. – Тошкент: Тафаккур, 2015. – Б. 21.

⁵⁰ Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1968. Т.1. – Б. 279–280.

⁵¹ Наршахий Абу Бакр Муҳаммад ибн Жафар. Бухоро тарихи. – Т.: Фан, 1966. – Б. 104.

⁵² Ртвеладзе Э. Навруз праздник счастья и благоденствия // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 1. – Б. 14–17.

⁵³ Наврўз ҳақида қаранг: Наврўзнама. – Тошкент, 1991; Наврўз (Наврўз билан боғлиқ қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар). – Тошкент, 1991; Наврўз ҳафтанома. – Тошкент, 1992; Элдик майрамдар: Нооруз, Чечкар, Улуш, Орозо жана Курман айт. – Бишкек: Адабият, 1992. – Б. 6–14; Лобачева Н.П. Отражение этногенетической истории в материальной и духовной культуре народов Среднеазиатско-Казахстанского региона (по материалам середины XX в.) // СЭС. – М., 2006. вып.V. – С. 84–85.

hamda tun-kun tengligidan so'ng yorug' kunlarning uzaya borishi kabi qadimiy, falsafiy, astral tasavvurlar asosida yuzaga kelgan mazkur afsonaviy voqea sodir bo'lgan kun qadimda katta tantana qilingan.

O'rta asrlardan boshlab islom dini ta'sirida mazkur bayram islomiy qarashlar bilan o'zaro uyg'unlashdi. Yangi mehnat mavsumini boshlab beruvchi Navro'z islomiy qarashlarga butkul zid bo'lmasa-da, tarkibida qadimiy e'tiqod izlarining mavjudligi uning birmuncha siquvlarga olinishiga sabab bo'lgan. Lekin, asrlar davomida mahalliy aholining qon-qoniga singib ketgan Navro'z bilan bog'liq qarashlarni yo'q qilib bo'lmagan. Natijada, ushbu bayram islomiyashtirilgan holda keng ko'lamda nishonlanavergan.

Taqvimiy marosimlardan biri bo'lgan Navro'z bayrami va uning tabiat va koinot bilan bog'liq masalalarni quyidagi qo'lyozma asarlarida berilgan. Bular Ibn Termiziyning "Solnoma bayoni" asari Navro'zning boshlanishi va uning vaqtlari, u bilan bog'liq voqea-hodisalarga bag'ishlangan⁵⁴. Abdurauf bin Abdumalikning "Navro'zi olamning bayoni" asarida Navro'z bayramining belgilari haqida ma'lumotlar berilgan⁵⁵.

Bundan tashqari, Muhammad Narshaxiyning "*Buxoro tarixi*" nomli asarida ham Navro'z bayrami va olov bilan bog'liq marosimlar o'tkazilganligi qayd qilingan⁵⁶. Asarda ko'rsatilishicha, dehqonlar va mubad(kohin)larning Navro'z bayrami bir-biridan o'tkazilish muddati bilan farq qilib, vujudga kelish tarixi mil. av. 2 ming yilliklar bilan bog'langan. Mazkur asar o'rta asr kishilarining taqvimiy marosimlarning kelib chiqishi bilan bog'liq tasavvurlari hamda o'sha davrda ularga bo'lgan munosabatning qay darajada ekanligi to'g'risida xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Abulfazl Bayhaqiyning "*Mas'ud tarixi*" asaridagi Sulton Mas'ud (1030–1041) davrida Navro'z, Mehrjon kabi bayram va marosimlarning hukmron tabaqa hamda aholi o'rtasida o'tkazilish tartibiga doir ma'lumotlari taqvimiy marosimlarning o'rta asrlardagi ko'rinishi hamda unga nisbatan qanday siyosat yuritilganligi haqida aniq tasavvurga kelish imkonini beradi⁵⁷.

XI asr tarixchisi Gardiziyning "*Zayn al-Axbor*"⁵⁸ yoki Ibn al-Faqihning "*Kitob axbor al-Buldon*"⁵⁹ nomli asarlarida "*yada toshi*"ga oid qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular taqvimiy marosimlar tarkibidagi yomg'ir chaqirish bilan bog'liq odatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Nizomulmulkning "*Siyosatnoma*"sida Navro'z va Mehrjon bayrami kunlari podshohlar ariza bilan kelgan oddiy xalqni o'zi qabul qilib, tegishli qarorlar qabul qilganligi va bu kunlarda barcha aholining haq-huquqi barobar bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan bo'lsa⁶⁰, Umar Hayyomning

⁵⁴ Ибн Термизий. Солнома баёни. Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги шарқ қўлёзмалари маркази, қўлёзмалар фонди, инв. № 587/4.

⁵⁵ Абдурауф Абдумалик. Наврўзи олам баёни. Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги шарқ қўлёзмалари маркази, қўлёзмалар фонди, инв. № 635/3.

⁵⁶ Наршахий Абу Бакр Муҳаммад ибн Жафар. Бухоро тарихи. – Т.: Фан, 1966. – 120 б.

⁵⁷ Абул-Фазл Байхаки. История Маъсуда (1030–1041). – М., 1969. – С. 364–365, 544–545.

⁵⁸ Абу Саид Гардизи. Зайн ал-ахбар. – Тошкент: Фан, 1991. – С. 41–42.

⁵⁹ Ибн ал-Факих. Ахбар ал-булдан. – Ереван, 1979. – С. 153–154

⁶⁰ Низомулмулк. Сиёсатнома, ёки сияр ул-мулк. – Тошкент, 1997. – Б. 48–49.

“Navro‘znoma”sida Navro‘z bayrami tarixi, o‘sha davr yil taqvimidagi oylar nomlari, mazkur oylarda bajarish mumkin bo‘lgan amallar hamda qadimgi davr podshohlarining odatlari to‘g‘risidagi qiziqarli ma‘lumotlar qayd etilgan⁶¹. Mazkur ma‘lumotlar taqvimiy marosimlarning rivojlanib borishi jarayonida unga nisbatan hukmron tabaqaning yuritgan siyosati va munosabati, shuningdek, taqvimiy marosimlarning davlat ahamiyatiga qay darajada aloqador ekanligi borasida tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Abdulg‘ozi Bahodirxon turkiy qavmlar tarixiga bag‘ishlangan “*Shajarayi turk*” asarida taqvimiy marosimlar tarkibidagi Navro‘z ayyomining turklar orasida nima sababdan bayram qilinishi hamda ba‘zi bir hukmdorlar buyrug‘iga binoan “yadachilar” tomonidan ob-havoning o‘zgartirilganligi haqidagi ma‘lumotlar taqvimiy marosimlarning keyingi davrlardagi saqlangan ko‘rinishi haqida tushuncha berishi bilan ahamiyatlidir⁶².

Muchal taqvimi. “Muchal taqvimi” xitoylarda birmuncha murakkablashgan ko‘rinishda bo‘lgan. Unga ko‘ra, har 60 yilda Yupiter sayyorasi besh, Saturn sayyorasi esa ikki marta to‘liq aylanadi. Ushbu 60 yillik davriy taqvim 12 ga bo‘lingan va hayvonlarning nomi bilan atalgan. Bulardan tashqari, yillar *erkak* va *ayol*, *rang* hamda besh xil unsur: *daraxt*, *olov*, *yer*, *metall*, *suvga* bo‘lingan. Bu taqvim milodiy 4 yildan boshlanib, hozirda 34- davrani aylanmoqda.

Muchal taqvimi, odatda, erkak va urg‘ochi hayvonlarga bo‘linib, erkak hisoblangan: *sichqon*, *yo‘lbars*, *baliq*, *ot*, *maymun*, *it* yillari qattiq keladi. Urg‘ochi sigir, quyon, ilon, qo‘y, tovuq, to‘ng‘iz yillari esa yumshoq keladi degan qarashlar bo‘lgan. Qirg‘iz dehqonlari “quyon yili”ga alohida tayyorgarlik ko‘radilar. Bu yilda ko‘pincha ocharchilik yuz bergani uchun urug‘lik va non uchun don zaxiralari hamda chorva uchun yem-xashak har yilgiga nisbatan ko‘proq jamg‘ariladi⁶³.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar muchal taqvimidagi hayvonlarning fe‘l-atvorlariga qarab yangi yilning xosiyatli yoki xosiyatsiz kelishini, hosilning qanday bo‘lishini, tug‘iladigan go‘daklarning xarakterlarini ham oldindan bashorat qilganlar. Masalan, *Sichqon yili – hosilsiz, chunki sichqon zararkunanda va o‘g‘ri*; *Sigir yilida qayg‘u ko‘p bo‘ladi, shu bilan birga yemish ham mo‘l-ko‘l bo‘ladi*; *Qo‘y yili yaxshi yil hisoblanadi, chunki u tinch hayvon. Bu yil tinch va hosildor bo‘ladi, qish iliq keladi*; *Tovuq yilida oziq-ovqat ko‘p bo‘ladi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Timsoh yili kirsa yog‘ingarchilik va hosil ko‘p bo‘ladi, chunki u suvda yashaydi*⁶⁴; *It yili ek, to‘ng‘iz yili o‘r*; *Tovuq yilida tug‘ilgan bolalarning yulduzi Mirrix bo‘lib, ular chiroyli, o‘rta bo‘yli, soch-soqoli ko‘p, ochiqko‘ngil inson bo‘lib, uzoq umr ko‘radi...* Har yilga shunga o‘xshash taxminlar yuritilgan.

Qadimgi Sharq xalqlarining falsafiy va astronomik qarashlari, taqvimiy bilimlari hosilasi bo‘lgan muchal taqvimi hozirga qadar qo‘llaniladi. Jumladan, o‘zbeklarda odam yoshi “muchal taqvimi” bilan hisoblanib, kishilar muchal yoshiga

⁶¹ Умар Ҳайём. Наврўзнома. – Тошкент, 1990. – Б. 10–22.

⁶² Абдулғози Баходирхон. Шажарайи турк. – Тошкент, 1990. – Б. 28–29, 82–84.

⁶³ Алибий. Мерке // ТВ. 1903. 6 январь.

⁶⁴ Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент, 1960. ж.1. – Б. 356.

to'lganda "muchal to'yi" o'tkazadilar⁶⁵. Ayniqsa, XX asrning yakuni XXI asr boshlarida "muchal to'yi"ni nishonlash birmuncha ommalashgan, katta tantana ko'rinishini olgan. Masalan, Nov qishlog'ida 13 yoshga to'lgan bolalarning otionalari yig'ilishib, maktabda tantanali ravishda nishonlasalar⁶⁶, Bostonbuva qishlog'ida esa bir muchal yilida tug'ilgan tengdoshlar uyushgan holda barchalari bir kun bir joyda "muchal to'y"larini o'tkazadilar⁶⁷.

Taqvimiy marosimlardan yana biri bo'lgan muchal to'yi va muchal haqida quyidagi qo'lyozma asarlarda ko'pgina qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Bulardan biri Mullo Fozilxon domla bin Mulla Yusufxon domlaning "Solnomayi xukumo Hindistoni"⁶⁸ asari hisoblanadi. unda muchal yillarining boshlanishi bilan hodisalar bayon qilingan. Shu bilan birga, ushbu muallifning "Ibrohim haqiy solnomasi"⁶⁹, "Saodatnoma (Risolada oy, kun va soatlarning o'ziga xos fazilatlari berilgan)"⁷⁰, "Solnoma (Yil fasllari fazilatlari)"⁷¹ kabi risolalarida ham tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar berilgan.

Mahmud Qoshg'ariyning kun, oy, yil va taqvimiy marosimlar xususida. Koinot va tabiat bilan bog'liq bilimlarga oid manbalardan biri Mahmud Qoshg'ariyning "*Devonu lug'atit turk*" asarida o'rta asrlarda yashagan turkiy xalqlarning tili, ijtimoiy-siyosiy hayoti, etnik tarkibi, geografik joylashuvi hamda ularning urf-odatlarini, dunyoqarashi, madaniyati va eng muhimi taqvimiy qarashlari borasida katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar mavjud⁷².

Ekinzor va g'allazorlarni saqlash va qo'riqlashdagi bunday usullar, chora-tadbirlar turkiy xalqlarda qadimdan mavjud bo'lgan. "*Devonu lug'atit turk*"da keltirilishicha ekinzorlarni yomon ko'zlardan saqlashda quyiladigan qo'riqchi qadimda "abaqi"deb atalgan bo'lsa, hosilni qushlardan qo'riqlash uchun qo'yilgan qo'riqchi "kosgo'k" deb nomlangan⁷³.

Olimning o'n ikki yillik muchal taqvimi, yulduzlar va sayyoralar, xo'jalik mashg'ulotlari hamda yomg'ir yog'dirish marosimlari bilan bog'liq ma'lumotlari taqvimiy marosimlarning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonini o'rganishda o'ziga xos o'rin tutgan.

Mahmud Qoshg'ariyning "*Devoni lug'atit turk*" asarida turkiy xalqlarning yil, oy, kun hisobiga yuritish bilan aloqador o'ziga xos an'analari, mavsumiy marosimlar,

⁶⁵ Қаранг: Задыхина К.Л. Узбеки дельты Аму-Дарьи // ТХАЭЭ. – М., 1952. т.І. – С. 395.

⁶⁶ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Янгиқўрғон тумани Нов қишлоғи. 2007 йил.

⁶⁷ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Бувайда тумани Бостонбува қишлоғи. 2007 йил.

⁶⁸ Мулло Фозилхон домла бин мулло Юсуфхон домла. Солномаи ҳукумо Ҳиндистони. Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги шарқ қўлёзмалари маркази, қўлёзмалар фонди, инв. № 3976/2.

⁶⁹ Мулло Фозилхон домла бин мулло Юсуфхон домла. Иброҳим ҳақий солномаси. Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги шарқ қўлёзмалари маркази, қўлёзмалар фонди, инв. № 3976/3.

⁷⁰ Мулло Фозилхон домла бин мулло Юсуфхон домла. Саодатнома. Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги шарқ қўлёзмалари маркази, қўлёзмалар фонди, инв. № 3976/4.

⁷¹ Мулло Фозилхон домла бин мулло Юсуфхон домла. Солнома. Тошкент давлат шарқшунослик институти ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги шарқ қўлёзмалари маркази, қўлёзмалар фонди, инв. № 3976/1.

⁷² Маҳмуд Қошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 3 ж. – 460 б.

⁷³ Маҳмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. II жилд. – Б. 155.

qo'shiq va taqvim bilan bog'liq afsonalariga keng o'rin berilgan. Taqvimiy marosim folkloriga oid faktik materiallarni quyidagicha tasniflash mumkin:

A) turkiy qavmlarning vaqt hisobi bilan bog'liq atamalar. "Devoni lug'atit turk" asarida "ajj" – oy bo'lib, 30 kundan iborat vaqt, muddat⁷⁴, "aila" – peshin, tush vaqti⁷⁵, "kun ortu" – kun o'rtasi, tush⁷⁶, "kish" - qish⁷⁷, "tush" – kun chiqqandan keyingi vaqt⁷⁸, jaz – yoz⁷⁹, jaj - bahor⁸⁰ kabi so'zlarning ma'nosi qaysi qabila tilida qo'llanishi va fonetik variantlar xususida yetarli ma'lumot berilgan.

B) turkiy qavmlarning yil fasllari va mavsumiy marosimlarga aloqador qo'shiqlar. Ajdodlarimiz qadim zamonlardan buyon issiq va sovuq havo oqimining o'zaro o'rin almashishga qarab yil fasllari belgilaganlar. Tabiat gullab yashnashiga aloqador xalq qarashlari odamlar maishiy turmushida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Shu bois, qadimgi turkiy xalqlar tabiat o'zgarishlari hamda yil fasllari tavsifiga bag'ishlangan turli hil qo'shiqlarni yaratganlar.

"Devoni lug'atit turk" asarida yoz va qish munozarasi, yoz, bahor va kuz fasllarining ta'rifiga bag'ishlangan. To'rtliklar juda ko'p bo'lib, bu folklor namunalari keyinchalik o'zbek adabiyotida munozara janrining yuzaga kelishi uchun badiiy asos vazifasini o'tagan. Tarixiy folklor jarayonning uzluksiz rivoji davomida yoz va qish munozarasiga bag'ishlangan xalq qo'shiqlari og'zaki an'anada saqlanib qolmagan. Shu jihatdan olganda Mahmud Qashg'ariyning to'plagan xalq qo'shiqlari turkiy xalqlar marosim lirikasining qadim ildizlar mifologik qarashlarga aloqadorligini isbotlaydigan muhim dalilidir.

V) turkiy qavmlarning an'anaviy vaqt hisobi bilan bog'liq taqvimiy afsonalar. An'anaviy vaqt hisobi amallarining kelib chiqishi to'g'risidagi taqvimiy afsonalar turkiy xalqlar mifologik janrining alohida turi sifatida tasniflanadi. "Devoni lug'atit turk" asarida ana shu turkumga oid qadimiy syujetlardan biri bo'lgan muchal hisobining kelib chiqishi to'g'risidagi qadimiy afsona naql qilingan. Mahmud Qashg'ariy qadimiy turkiycha muchal yillaridan birining nomi hisoblangan "bars" so'zining ma'nosini izohlar ekan, turkiylar o'n ikki xil hayvon ismini o'n ikki yilga ot qo'yganlar, tug'ilishi, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar almashinishidan hisoblaydilar, deb qayd qildi. Shundan so'ng hoqonlardan birining tashabbusi bilan o'n ikki yilning har biriga alohida nom qo'yilishining tarixi hikoya qilingan⁸¹. Jonivorlarning daryo tomon haydab borilishi va ularning suvdan o'tishi tartibiga qarab, muchal yillarining nomlanishi haqidagi afsonani turkiy miflarning eng ko'hna qatlamiga mansub epik syujet asosida shakllangan.

Yusuf Xos Xojibning tabiat va koinotga oid bilimlari haqida. Balasag'unlik (Balasag'un mavludlig') Yusuf Xos Hojib XI asr turkiy yozma adabiyotining ulug'

⁷⁴ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 1-жилд, Б. 110

⁷⁵ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 1-жилд, Б. 132

⁷⁶ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 1-жилд, Б. 145

⁷⁷ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 1-жилд, Б. 320

⁷⁸ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 2-жилд, Б. 138

⁷⁹ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 2-жилд, Б. 174

⁸⁰ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 2-жилд, Б. 175

⁸¹ Маҳмуд Кошғарий Девону луғатит турк. – Тошкент, 1963. 2-жилд, Б. 330, 334.

namoyandasi, buyuk shoir va faylasuf, davlat arbobi o'tgan. Adibning hayoti va ijodi to'g'risida xabar berguchi yagona manba uning o'z "Qutadg'u bilig" masnaviysidir.

Asarda ilmiy haqiqat bilan ijodkor badiiy tafakkuri o'zaro uyg'unlashib ketgan. Hukmdor *Kuntug'di-elig* (otining lug'aviy ma'nosi – "chiqqan, tuqqan Kun"), vazir *Oyto'ldi* ("to'lin Oy") – Quyosh va Oyning holatini ham badiiy shaklda aks ettiradi.

Yusuf Xos Hojib Oyni ta'riflar ekan, uning tinimsiz harakatda ekanini alohida ta'kidlaydi. Oyning ta'rifi asar qahramonlari Kuntug'di elig bilan vazir Oyto'ldi suhbatida yaxshi ochib berilgan. Oyto'ldi deydi:

Bu Ay o'rni bo'ldi evi munqalip,
O'rinsuz bo'lur munqalip nang qilip.

Bu Ay burji Saratan, bu ev evrulur,
Evi evrulur ham o'zi chevrulur.

Qayu evka kirsar, bu Ay terk chiqar,
Chiqari uchun terk batarin yiqar.

(Bu Oyning o'rni o'zgaruvchan uydur,
U o'zgaruvchan harakat qilib, o'rinsiz bo'lib qoldi.

Oyning burji Saratondir, bu uy doim aylanadi.
Uyi aylanadi, shuning uchun o'zi ham charx uradi.

Qaysi uyga [burjga] kirmasin, bu Oy tez qaytib chiqadi,
Chiqish uyi bo'lgani uchun, botgan uyini tez tark etadi).

Oyto'ldi, o'z otining ma'nosini izohlar ekan, sifatini Oyga mengzaydi:

Bu Ay tug'sa, ashnu edi az tug'ar,
Kuninka beduyur, yuqaru ag'ar.

To'lun bo'lsa, to'lsa ajunda yarar,
Ajun xalqi andin yaruqluq bulur.

Tugal bo'lsa, ko'r, Ay bu ag'sa ediz,
Yana erlu to'rchir, ketar ko'rk mengiz.

Yaruqluqi eksur, yana yo'q bo'lur,
Tug'ar kecha adin yana-o'q to'lur.

(Oy tug'ilganda, boshlab juda kichik tug'iladi,
So'ng kundan-kun ulg'ayadi, yuqori ko'tariladi.

To‘lin bo‘lsa, to‘lsa, olamni yoritadi,
Olam xalqi undan yorug‘liq topadi.

Oy tugal to‘lishib, eng baland ko‘tarilsa, ko‘rgin,
Yana yemirilib, kamaya boradi, yuz chiroyi ketadi.

Yorug‘lig‘i kamayadi, yana yo‘q bo‘ladi.
Qayta tug‘ilgach, keyin yana to‘lishadi).

Yusuf Xos Hojibning ta‘rificha, Oy harakatda bo‘lgani uchun yorug‘lig‘i o‘zgarib turadi. “Kun bilan yuzma-yuz kelganda to‘lishadi” (*Yashiq birla o‘tru baqishsa, to‘lur*) deya ta‘kidlaydi shoir.

Endi muallifning koinotdagi boshqa bir jism – Kun va uning holati bilan bog‘liq fikrlariga e‘tibor qaratamiz. Asar qahramoni Kuntug‘di, o‘z ismining ma‘nosini izohlar ekan, sifatini Kunga o‘xshatadi. Shu o‘rinda Kunni ta‘riflab, deydi:

Yana ma bu kun burji sabit turur,
Bu sabit tedukum tubi berk bo‘lur.

Bu Kun burji Arslan, bu burj tebramas,
Evi tebramasa uchun artamas.

(Yana shu borki, Kun burji sobitdir (barqaror, turg‘undir),
Sobit deganimning ma‘nosi shuki, uning asosi mahkamdir [ya‘ni Kun burji o‘zgarmasdir].

Bu Kun burji Arslon [ya‘ni Asad]dir, bu burj tebranmaydi,
Uyi [ya‘ni burji] tebranmaydi, shuning uchun o‘zi buzilib kamaymaydi).

Yusuf Xos Hojibning ta‘rificha, Kun qo‘zg‘almasdir. Kun burji barqaror, turg‘undir. *Kun burji sabit turur* (Kun burji sobit turur) deb ta‘kidlaydi olim. Shuning uchun doim birday yorug‘liq sohib turadi.

Boshqa bir yog‘i, muallifning ushbu fikrlari asosida katta bir masala turibdi. Bu jumboqni shunday tushuntirish mumkin: Falak va Yer doimiy harakatda. Kun markazda turadi, u turg‘undir. Yer esa uning tevaragida aylanadi. Bu fikrlar ulug‘ olimning dunyo va uning tuzilishi to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarining asosini tashkil etadi.

Muhimi, muallifning yuqorida ta‘kidlangan falsafiy qarashlari badiiy ko‘rinishda, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda qahramonlarning holati bilan uyg‘un holda tasvirlanadi.

Ushbu fikrlarning davomini takomillashgan bir ko‘rinishda Alisher Navoiy ijodida ham kuzatamiz. Alisher Navoiy o‘zining “Saddi Iskandariy” asarida Ollohga hamd o‘qir ekan, Oyning harakatini shunday ta‘riflagan edi:

Yana birni soz aylading turfa dayr,
Aning sokinin aylading tez sayr.

Baridin itigrak xiromi aning,
Vale tegmayin yerga gomi aning.

Manozilg'a bob-bot qilip intiqol,
Atin gah etip Badr-u gahi Hilol.

(Yana bir falakdan ajoyib butxona yaratib, uning yashovchisini sargardon qilding. Uning yurishi barcha sayyoralardan shu qadar tezki, uning oyog'i yerga ham tegmaydi. Manzilini tez-tez o'zgartirib turadi, otini ham goh Badr [to'lin], goh Hilol [yangi chiqqan Oy] deb o'zgartirib turadi).

Alisher Navoiyning koinot bilan bog'liq bilimlarining tasnifi. Astronomiya fanida Quyosh atrofida aylanib yuruvchi osmon jismlari: Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter, Saturn, Uran va Neptunlar sayyora⁸² yoki planeta⁸³ deb yuritiladi. Hozirda turli toifalarga ajratilib, oy, quyosh, sayyora, meteor, kometa va yulduz deb atalib kelinayotgan jismlar sharq qo'lyozma asarlarida yoritqich deb yuritilgan. Alisher Navoiy asarlarida ham samoviy harakat qiluvchi jismlar ayni shu so'z bilan ifodalangan⁸⁴.

Sharq astronomiyasida Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z vaqtida Quyoshni olovga o'xshatgan va yaqin atrofidagi barcha narsalarni yondirib, kul qiluvchi jism deb bilgan. Alisher Navoiy nazmida ham mazkur xulosaga yaqin fikr bayon qilingan. Quyosh sistemasidagi yettitat yoritqich (yulduzlar) dan oltitasining yorug'ligini shamga o'xshatilsa, Quyosh ularga nisbatan mash'ala misol nur sochishi ta'kidlangan. Chunonchi, "Hayrat al-abror" dostoni ellik sakkizinchi bobining 19-maqolasida huddi shu qiyosni ko'rish mumkin:

Yetti falakniki qilib mustadir,
Har biri bir sham' ila bo'ldi munir,
Oltisi gar sham' duraxshandadir,
Lek biri mash'ala raxshandadir⁸⁵.

Mazmuni: Yetti osmonni doira shaklida qurib, ularning har bittasini bitta sham bilan yoritadigan qildi. Bu shamlarning oltitasi tovlanib tursa, bittasi mash'ala bo'lib porlab turadi.

Tarixning ilk davrlarida yoritqichlarning ko'kdagi joylashuvlari turlicha bo'lgan. binobarin, Klavdiy Ptolomey (87-163)ning "Almagest" asaridagi yetti yoritqichning joylashuv tartibi XVII asrgacha o'zgarmagan⁸⁶. O'z navbatida bu tartib o'rta asr musulmon sharqi falakiyot ilmidagi jumladan, Alisher navoiy ijodida ham o'z aksini topgan. Uning "Sab'ayi sayyor" dostonida samoda sayr etuvchi Oy, Quyosh hamda Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter, Saturndan iborat yetti sayyora haqida

⁸² Сайёра – араб тилидан олинган бўлиб, "доимий ҳаракатланувчи, сайр этувчи" маъносини билдиради.

⁸³ Планета – ушбу сўз латин тилидан олинган бўлиб, "адашиб юривчи" деган маънони билдиради.

⁸⁴ Алишер Навоий асарлари луғати. Тўзувчи П. Шамсиев. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 51.

⁸⁵ Алишер навоий. Ҳайрат ал-аброр. Нашрга тайёрловчи А. Ҳайитметов. – Тошкент., 1989. – Б. 125.

⁸⁶ Клавдий Птоламей. Альмагест. – Москва., 1998. – С.277-316.

ma'lumotlar keltirilgan. Buyuk shoir nazmiyatida bu sayyoralar sobit (qo'zg'almas) yulduzlardan farqli ravishda anjumi shabgard (tunda aylanib yuruvchi yulduz), kavkabi sayyor (sayr qiluvchi yulduzlar) iboralar orqali ifodalangan. Ayni paytda shoir asarlarida sayyoralar ikki xil – to'plangan va alohida shakllarda keladi. Uning "Saddi Iskandariy", "Lison at-tayr", "Sab'ayi sayyor" (Yetti kezuvchilar) dostonlarida Quyosh tizimidagi yetti yoritqich – geotsentrik tizim asosida joylashtirilgan: Oy (Qamar), Utorud – Merkuriy, Nohid (Zuhra) – Venera, Quyosh (Shams, Oftob), Mirrix (Bahrom) – Mars, Mushtariy – Yupiter, Kayvon (Zuhal) – Saturn yoritqichlar alohida eslatilgan hollar ham anchagina.

"Hayrat al-abror" dostonining "Xuroson viloyati bayoni ... Hirot tavsifi" ga bag'ishlagan ellik sakkizinchi bobi 19-maqolasida sayyoralarning joylashish tartibi va yorqinligi quyidagicha bayon etilgan:

Uch quyi, uch yuqori qildi shitob,

Mash'ala to'rtinchi uy aro soldi tob

Mazmuni: ularning uchasi quyiga, uchasi yuqoriga tezlik bilan harakat qiladi, mash'ala kabi porlab turgani osmonning to'rtinchi uyiga nur sochadi.

Bu tartib Abu Rayhon Beruniyning "Tafhim" asarida, yuqori sayyoralar – Zuhal, Mushtariy va Mirrih, quyi sayyoralar esa – Zuhra, Utorud va Oy (Oy ham sayyoralar qatorida turadi). "Yuqori" va "quyi" deyish Quyoshga nisbatandir. ... Yuqori sayyoralar nur chiqaruvchi ham, chiqarmaydigan ham bo'lishi mumkin (ularga Quyoshdan tushuvchi nur ba'zan ko'p, ba'zan kam)", – deya tushuntirilgan tartibi bayonida Abu rayhon Beruniyning "Tafhim" asaridan asosiy manba sifatida foydalanganini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy asarlarida turkiycha – "yer" so'zi arabcha – "arz" (yer), "arz sathi" (yer yuzasi), barru bahr (quruqlik va suv) kabi so'zlar bilan ifodalangan. Sharq falakiyot ilmida hukmron bo'lgan geotsentrik tizim tushunchasiga ko'ra, Yer olam markazida qo'zg'almas jism bo'lib, osmon uning atrofida aylanma harakat qiladi. "Lison at-tayr" dostonining birinchi bobidagi olamning yaratilishi bayonida ayni shu holat nazmiy bayon etilgan:

Sayrdin gardung'a soldi iztiror,

Yerga oning javfida berdi qaror⁸⁷

Mazmuni: [Tangri] Osmonni betinim harakat qilishga bo'ysindirdi, Yerni esa uning bo'shlig'ida turg'un qilib yaratdi.

Ma'lumki, Oy o'z holatiga ko'ra, Yerning yo'ldoshidir. U Quyosh nurini aks ettirib, o'zidan yorug'lik tarqatadi. Oy ma'lum vaqt Yer bilan Quyosh orasida bo'lganida yangi Oy holati sodir bo'lib, u Yerdagi kuzatuvchiga ko'rinmaydi. Aksincha, Yer bir muddat Oy bilan Quyosh orasida bo'lib qolganda to'lin Oy hodisasi ro'y beradi. Keyin Oy gardishining yoritilishi yana yangi Oy holatigacha kamaya boradi va bu davriy ravishda mudom takrorlanadi. Binobarin, mazkur holatlarni mufassal bayon qilar ekan, Beruniy Oyni "yorug'lik chiqarmaydigan sferik

⁸⁷ Алишер Навоий. Лисон ӯт-тайр (Насрий баёни билан) / тузувчи: Н. Раҳмонов. Сўзбоши муаллифи, изоҳ ва луғатлар тузувчиси: В. Раҳмонов. – Тошкент., 1991. – б. 18.

jism” sifatida tavsiflaydi⁸⁸. Alisher Navoiy ham Oyning holatlarini mohi nav, hilol, mohi du hafta, badr, mohi ulvi xirom, jomi hiloliy, g’urra, hiloi duraxshanda, hiloli jom, hiloliy, badri munir, salx kabi so‘z va iboralar bilan ifodalagan. Masalan, “Lison at-tayr” dostonining me’roj tuniga bag’ishlangan to’rtinchi bobida “badr” – “to’lin Oy” shunday ta’riflanadi:

Chun qamara mavkibidin yetti qadr,
Ul Quyosh tashrifidin Oy bo’ldi badr⁸⁹

Mazmuni: Muhammad payg’ambar me’roj tunida falakka Buroq otda ko’tariladi. Uning oti Oyga yetib borganida payg’ambar Quyosh misoli Oyni yoritadi va u to’lin Oyga aylanadi.

Bu yerda Muhammad payg’ambarni quyoshga tashbeh (majoziy o’xshatish) qilish orqali Quyosh ta’sirida Oyning badr – to’lin Oy shakliga kelishiga oid atronomik holat nazmiy chizgida berilgan.

Ma’lumki, yulduzlar o’lcham jihatidan katta samoviy jismlar bo’lib, meteor⁹⁰ esa ularga nisbatan juda kichik osmon jismlari xisoblanadi. Ba’zi meteorlar kosmik fazoda yer atmosferasini yorib o’tadi va ishqalanish natijasida qisqa davrda qizib, yonib ketadi.

Xullas, sharq alloma va mutafakkirlarining tabiat va koinotga oid bilimlarni o’rganish nomoddiy madaniy meros obektlarining mazmuni, mohiyati, kelib chiqishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

1.2.Turkiy xalqlarning an’anaviy dehqonchiligi va chorvachiligida osmon yoritqichlari bilan bog’liq urf-odat va marosimlari (*Farg’ona vodiysi materiallari misolida*)

Biz yuqorida Farg’ona vodiysi aholisining qadimdan dehqonchilik bilan shug’ullanib kelganligi haqida va bu madaniyatning ko’p jihatlari haqida to’xtalib o’tdik. Vodiy aholisining dehqonchilik bilan bog’liq urf-odat va marosimlari ham o’ziga xos va xilma-xildir. Ushbu marosimlarning kelib chiqish ildizlari, qadimiy bo’lib, ular tabiat xodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig’inish zahirida vujudga kelgan. Shuningdek, ko’plab urf-odat va marosimlarda islomgacha bo’lgan e’tiqodiy qarashlar bilan islomiy qarashlarning qorishgan sankratik tarzda ham uchramiz.

Dehqonchilik bilan bog’liq urf-odat va marosimlar asrlar davomida dehqonchilik bilan shug’ullangan, xalqimiz tafakkurining takrorlanmas mahsulidir. Vodiy aholisi necha asrlar mobaynida ularga amal qilish bilan birga ularga taalluqli qoidalar va duolarini yaratishgan.

⁸⁸ Абу Райхон Беруний. Тафҳим / сўз боши, таржимон, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи: профессор А. Аҳмедов. – Тошкент-Урганч-Хива, 2006. – Б. 56.

⁸⁹ Алишер Навоий. Лисон ут-тайр (Насрий баёни билан) / тузувчи: Н. Раҳмонов. Сўзбоши муаллифи, изоҳ ва луғатлар тузувчиси: В. Раҳмонов. – Тошкент., 1991. – б. 24

⁹⁰ Метеор – юнунча “ҳавода учувчи, сузиб юрувчи” маъносини англатади (Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. А. Мамадвалиев таҳрири остида. Т.2. – Тошкент, 2007. – Б. 582).

XIX asr II yarmiga kelib Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi o'zbek xalqi hayotidagi muhim ijtimoiy siyosiy va madaniy muammolarni keltirib chiqaradi. Lekin qadimdan rivojlanib kelgan O'rta Osiyo xalqlari, xususan Farg'ona vodiysi aholisi dehqonchiligiga oid rasm-rusumlar va urf-odatlar har qancha og'ir sharoit bo'lishiga qaramasdan unutilmadi.

Farg'ona vodiysi dehqonchiligida O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar kabi dehqonchilik xomiysi Bobodehqon kulti⁹¹ va u bilan bog'liq urf-odatlar keng tarqalgan. Dehqonchilikda o'tkaziladigan barcha urf-odat va marosimlar Bobodehqonga bag'ishlangan. Uning nomi yerni shudgorlashda, urug' sepishda, hosilni o'rishda, yanchishda doimo yodga olinib turgan. Axborotchilarimiz ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Bobodehqon halol mehnat bilan kun ko'ruvchi, boshqalar haqidan xazar qiluvchi, dehqonlarga xomiylik qiluvchi, ularning mehnati rivojiga rivoj qo'shuvchi pir hisoblangan. Qadimgi yozma manbalarda Bobodehqon obrazi bilan bog'liq ma'lumot Nosiruddin Burxoniddin Rabg'uziy asarida uchraydi⁹². Ushbu asarda dehqonchilik xomiysi Bobodehqon yer yuzidagi birinchi inson Odam ato timsolida o'z aksini topadi. Ushbu asarda shunday deyiladiki: «Odam Hindistonda Anjalus otlig' yerda Sarandib tog'inga tushadi, Havo Jadda tog'inga tushdi. Odamning yoshi tomgan yerda o't-yem, og'iz-suchuk dorular bo'ldi. Havvoning ko'zi yoshi tomgan yerda ud⁹³, qaranful⁹⁴, sunbul, xino, o'sma undi»⁹⁵. Demak, yerda paydo bo'lgan o't- o'lanlar, hayvonlar inson mo'jizasi tufayli ro'y bergan ekan.

Bobodehqon timsoli bir xil ko'rinishda tasavvur qilinmagan. Farg'ona vodiysida uning ramzi sifatida ko'pni ko'rgan oqsoqolli kekxa kishi ish boshida turgan. Dehqonchilikning barcha ishlarining boshlanishida yoshi ulug' badavlat, nevarachevarasi ko'p, tadbirkor va obro'li kishi boshlab bergan kal va ko'sa odamlarni urug' ekishiga ruxsat berilmagan⁹⁶. Yuqoridagi ma'lumotlarni O.A.Suxareva⁹⁷, N.A.Kislyakov⁹⁸, K.A.Bogomolova⁹⁹, M.R.Raximov¹⁰⁰, L.F.Monogarova¹⁰¹ kabi elshunos olimlarning ma'lumotlari ham tasdiqlaydi.

⁹¹ Бободехкон култи Ўрта Осиё алқларидан туркманларда, тожикларда ва қирғизларда ҳам мавжуд бўлган. Қаранг: Басилов В.Н. Хозяйство западных туркмен ёмудов в дореволюционный период и связанные с ним обряды и верования. / Очерки по истории Средней Азии и Казахстана. Л., 1973; Мухитдинов И. Реликты доисламских обычаев и обрядов у земледельцев западного Памира. Душанбе, 1989 стр. 98-100; Бежкович А.С. Историко-этнографические особенности киргизского земледелия; Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. ТИЭ. Нов. сер. Т. ХCVIII. Стр. 15-17

⁹² Қаранг: Носируддин Бурхониддун Рабғузий. Қиссаи Рабғузий. 1 к-б. Т., 1990. Б. 25-26.

⁹³ Уд-сигир.

⁹⁴ Қаранфул-каламбирмунчок.

⁹⁵ Рабғузий Н.Б. Кўрсатилган асар. Б. 26.

⁹⁶ Дала ёзувлари. Марҳамат тумани, Ровот қишлоғи. 2001 й.

⁹⁷ Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. Т., 1960г. Ўша муаллиф. К вопросу о генезисе профессиональных культов у таджиков и узбеков. В кн: Памяти М.С.Андреева. Сталинабад. Изд. АН Тадж. ССР. 1960. Стр. 20-21.

⁹⁸ Кисляков Н.А. Патриархально-феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX-нач. XX в. ТИЭ. М-Л., 1962. С. 14.

⁹⁹ Богомолова К.А. Следы древнего культа воды у таджиков // Изв. Отд. общественных наук. АН ТаджССР. Сталинабад, 1952. Вып. 2. С. 19.

¹⁰⁰ Рахимов М.Р. Земледелие бассейна реки Хингоу дореволюционный период. // Труды АН ТаджССР. Сталинабад, 1957. Т.43. С. 7.

¹⁰¹ Моногарова Л.Ф. Материалы по этнографии язгулмцев // ТИЭ. Н.С, 1959. Т.XI. Вып. VII. С. 12.

Elshunos olim I.Muxitdinovning yozishicha, Yazg'ulom vohasidagi barcha qishloqlarda Bobodehqon vazifasini «faygunay» yoki «shogun» deb atalgan eng hurmatli va tajribali qariya bajargan. Xingou daryosi havzasidagi tojiklar uni «shavgun», Rushon, Bartang va Xufda «xushpoyqadam» deyishgan¹⁰². Ularning vazifasi avloddan-avlodga yoxud otadan o'g'ilga o'tgan, yoki qo'li yengil bo'lgan biror kishi odam tomonidan bajarilgan.

Islom dini paydo bo'lgandan so'ng yaratilgan «Nurnoma» majmuasining «Risolai dehqon» bobida «Odam alayhissalomdan to janob rasuliloh Sallollohu alayhi vassallomning saodatlarigacha 7777 dehqon o'tibdurlar. Hammalari oqil va dono va kasb koriga muvofiq risola va soxibi duo edilar¹⁰³» deyiladi. Ushbu «dehqonchilik risolasi» asrdan-asrga avloddan-avlodga meros bo'lib qolgan. Uni XX asr boshlarida rus sayyohi M. Gavrilov rus tiliga ham tarjima qilib, kitob holida nashr qildirgan.¹⁰⁴ Ushbu risoladan dehqonchilikga oid ko'plab maslahatlar, pand-nasihatlar o'rin olgan. Shuningdek risolada ko'rsatilgan 7777 dehqon ichidan yana 18 ta eng mohir dehqonlar ajratilib ko'rsatilgan bo'lib, Gavrilovning yozishicha bular kelib chiqishi jihatidan Movarounnahr hududiga aloqador bo'lgan.

Farg'ona vodiysida «Bobodehqon» kulti bilan bir paytda «Xizr buva» kulti ham mavjud bo'lgan. Dehqonchiligi baroridan kelgan ishlari doimo yurishgan kishilarni vodiya «Xizrnazar» odam «Xizr suygan» odam deb atashgan¹⁰⁵.

Axborotchilarimizdan olgan ma'lumotlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ishi yurishgan, tadbirkor dehqonlarga albatta xizrni nazari tushgan deb qaralar ekan. Balki shuning uchundir xalq orasida «Xizr nazar qilmasa, odam eshak bozorga dallol ham bo'lolmaydi» degan naql xozir xam saqlanib qolgan¹⁰⁶. Farg'ona vodiysida Xizr buva Bobodehqon haqida ko'plab rivoyatlar afsona va ertaklar hozirgacha saqlanib qolgan. Dehqonchilik homiysi Bobodehqon va Hizrbuva bilan bog'liq marosimlarga keyinchalik mullalar tomonidan ilohiy tus berilishi ushbu marosimlarning xalq orasidagi mavqeini yanada oshirgan.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, dehqonchilik homiysi Bobodehqon obrazi o'zining uzoq tarixiga ega. Ushbu obraz qadimgi ajdodlarimizning tabiiy hodisalarini ilohiylashtirish hosildorlik ilohlariga topinish an'analari zahirida paydo bo'lgan, hamda homiy kuch timsoli sifatida mifologik qahramonlar qatoridan o'rin olgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki Bobodehqon kultiga o'xshash dehqonchilik Kultlariga ishonish va e'tiqod qilish. Yer yuzining ko'plab dehqonchilik xududlarida masalan Xindiston Xindixitoy, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika xududlarida ham mavjudligi mualliflar tomonidan qayd qilingan.¹⁰⁷

Farg'ona vodiysi aholisi dehqonchiligini yana bir an'anaviy o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu - osmon va sayyoralar harakati bilan bog'liq e'tiqodlardir. Ma'lumki samoviy yoritqichlar asrlar mobaynida insonlarni qiziqtirib kelgan.

¹⁰² Мухитдинов И. Реликты доисламских обычаев и обрядов у земледельцев западного Памира (XIX-нач. XX в.). Душанбе, 1989. С. 11.

¹⁰³ «Нурнома» мажмуаси. Т., 1991. Б. 32.

¹⁰⁴ Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование мусульманских цехов. Т., 1912.

¹⁰⁵ Дала ёзувлари. Фарғона тумани, Қўрғонтепа қишлоғи. 2001 й.

¹⁰⁶ Дала ёзувлари. Марҳамат тумани, Шукурмерган қишлоғи. 2001 й.

¹⁰⁷ Токарев С.А. «Ранние формы религии и их развитие» М. наука. 1964г. стр. 383.

Ajdodlarimiz yil fasllarining o'rin almashishi muddatlari bilan birga yulduz burjlarini ham juda yaxshi bilishgan. Bunga sabab samoviy yoritqichlar harakatini kuzatishga asoslangan hayotiy tajribalar kundalik hayotda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun dehqon ham, chorvador ham, bog'bon ham yulduzlar harakati, quyosh va oyning holatiga qarab ob-havo qanday bo'lishini aniqlay olishgan. Ertalab quyosh qizarib chiqsa, ish kuni havo buziladi, quyosh qizarib botsa, ertasiga kun yaxshi bo'ladi yoki tarozi yulduzlari ufq ustida paydo bo'lsa, yoz boshlanganidan darak beradi¹⁰⁸.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida O'rta Osiyoning boshqa hududlari singari islom dinining ta'siri kuchli bo'lgan. Odamlar osmonu falak sirlari haqida muayyan ilmiy tasavvurga ega bo'lmaganlar. Ular tabiatda tevarak-atrofdan ro'y berayotgan voqea-hodisalar sababini ilohiy kuchlar va ins-jinslarga bog'lab tushuntirishgan. Odamlar osmon jismlarini ma'bud va ilohlarning timsoli deb qaraganlar. Bu ilohlarning har biri o'z xarakteri va odamlarga munosabati jihatidan farqlangan bo'lib, ezgulik va yomonlik istovchi ilohlarga bo'lib tasavvur qilingan. Masalan qizg'ish sayyora «Mirrix (mars)»ga qonni yaxshi ko'radigan «urush xudosi» deb eng yorug' sayyora Zuhra (Venera)ga esa «go'zallik ma'budasi timsoli» deb nom berilgan. Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra, osmondagi ko'ndalang yo'nalgan somon yo'li «ma'budaning ko'krigidan otilib chiqqan sut» deb talqin qilingan¹⁰⁹. O'zbek afsonalarida esa somon yo'li hayoliy qahramonning boshi osmonga tekkanda hosil bo'lgan sidiriq, aravadan to'kilgan somonning izi deb tasvirlanadi¹¹⁰.

Yozma manbalardan ma'lumki, qadimgi munajjimlar samoda ro'y bergan bir qancha hodisalarni «xudoning amri» bilan bog'lashgan. Xalqimiz orasida yerdagi har bir odamni osmonda yulduzi bor, mabodo yulduzlardan biri uchsa, yerdagi kishilardan birining umri so'nadi, degan mifologik tasavvurlar mavjud bo'lgan¹¹¹.

Osmon yoritqichlari haqidagi tasavvurlar haqida gap ketganda ajdodlarimiz ulardan yettitasiga ko'proq e'tibor qaratganini ko'ramiz. Ular quyosh va u bilan bog'liq oltita yulduzdir. Shu boisdan, dunyo xalqlarida «yetti» raqami ham muqaddaslashtirilgan¹¹². Qadimiy turkiylarda barcha yulduzlarga nisbatan «jilduz» so'zi qo'llanilib yuqoridagi yulduzlar esa quyidagiga nomlar bilan yuritilgan. Mushtariy «eranto'z», Mezon-«qoraqush», Surayyo-«o'lkar», Yetti qaroqchi «jetikan», qutb yulduzi-«temurqazuq», mirrix yulduzi-«Baqirsoqim».¹¹³

S.A.Tokarev sehrli ishonchlarning hozirgi marosimi va udumlarda saqlanib qolgan ko'rinishlarini o'rganar ekan «baxtli» va «baxtsiz» kunlarga, «hosiyaqli» va «hosiyatsiz» raqamlarga ishonish¹¹⁴ kabi odatlarni ham tilga oladi.

¹⁰⁸ Об-хаво даракчилари. Т.: Адолат, 1996. Б. 36-38.

¹⁰⁹ Эгамбердиев Б., Соатов А. Олимлар олам ҳақида. Т. 1990й. 6-бет.

¹¹⁰ Жўраев М. Сомон йўли ҳақидаги ўзбек халқ афсоналарининг мифологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. №1. Б. 35-41.

¹¹¹ Жўраев М. Юлдуз учиши билан боғлиқ мифологик қарашлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. №2. Б. 39-43.

¹¹² Фролов Б.А. Как появилась «Магическая семерка» // Атеистические чтения. М., 1970. №4. С. 116-122.

¹¹³ М.Қошғарий. Кўрсатилган асар III том 47 бет.

¹¹⁴ Токарев С.А. Сущность и происхождение магии // Исследование и материалы по вопросам первобытных верований. М., 1959. С. 9.

Haftaning har bir kuni muayyan osmon jismlari bilan bogʻliq holda tasavvur qilinganligini hisobga olsak, bir haftada yetti kun borligi ham yetti sayyora nomi bilan aloqadorligi maʼlum boʻladi. Jumladan Dushanba Oy kuni, Seshanba Mirrix (Mars) kuni, Chorshanba Atorud (Merkuriy) kuni, Payshanba Mushtariy (Yupiter) kuni, Juma Zuhra (Venera) kuni, Shanba Zuhal (Saturn) kuni, Yakshanba Shams (Quyosh) kuni hisoblangan. Shuningdek yetti qavat osmon bilan yetti qat yer toʻgʻrisidagi asotirlar ham keng tarqalgan¹¹⁵. Oʻtmishda ota-bobolarimiz hafta kunlarini va oʻsha kunlari roʻy beradigan tabiat hodisalarini kuzatib, maxsus «solnoma» va «haftanoma»lar tuzishganki, bu manbalarda haftaning qaysi kuni qanday amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligini belgilab bergan¹¹⁶. Masalan haftanomada shunday bitiklarga toʻgʻri kelishimiz mumkin: «Shanba (Zuhal)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir, bir donaga ming dona barakat berur, hargiz befoyda boʻlmas. Yakshanba (Quyosh)-dehqonchilik qilmoq yaxshi emas, ofat tushgay. Dushanba (Oy)- dehqonchilik qilmoq yaxshidir. Seshanba (Mirrix)-agar ziroat qilsa, qurt, sichqon yo hayvondin ul ziroat shikast topgay. Chorshanba (Atorud)- ammo dehqonchilik qilmoq yaxshidir, barakat paydo boʻlur, xirmon olmoq yaxshidir. Payshanba (Mushtariy)-hamma korlarga yaxshidir. Juma (Zuhra)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir»¹¹⁷.

Xalqimizda vaqt hisobini yurgizishning hijriy-shamsiy taqvimiga amal qilinganligi bois oylar nomini arabcha aytish anʼana boʻlgan. Ularning nomlari: Hamal (qoʻy), Savr (buqa), Javzo (egiz qiz), Saraton (qisqichbaqa), Asad (arslon), Sumbula (boshqoq), Mezon (tarozi), Aqrab (chayon), Qavs (yoy), Jaddiy (echki), Dalv (qovgʻa), Hut (baliq) tashkil etadi¹¹⁸. Dehqonlar asrlar davomida tabiatni izchil kuzatish natijasida orttirgan tajribalari asosida xalq kalendari¹¹⁹ (dehqon taqvimini) ishlab chiqishgan¹²⁰. Qishloq xoʻjaligida qoʻllanilgan dehqon taqvimi har biri 90 kunlik muddatni oʻz ichiga olgan fasllardan tashkil topgan: bahorgi toʻqson (hamal, savr, javzo), yozgi toʻqson (saron, asad, sumbula), kuzgi toʻqson (mezon, aqrab, qavs) va qishki toʻqson (jaddiy, dalv, xut). Yozgi jazirama issiq va qishki sovuq davrlar katta va kichik chillalarga boʻlingan. Dehqonchilikda fasllarning bunday boʻlinishlari haqida rus tadqiqotchilardan biri N.Nalivkin toʻxtalgan¹²¹.

¹¹⁵ Эгамбердиев С., Соатов А. Олимлар олам хакида. Т., 1990. 7-бет.

¹¹⁶ Щербак А.М. Сал-наме (по рукописи В-721), хранящейся в рукописном отделе ЛО ИВАН // Письменные памятники Востока-1971. М., 1974. С. 171-180.

¹¹⁷ Хафтанома. Т., 1990. 2-8-бетлар.

¹¹⁸ Дала ёзувлари. Фарғона тумани, Ҳонқиз қишлоғи. 2002 й.

¹¹⁹ Нарзикулов А. Деҳқон тақвими. Т.: Меҳнат, 1991. Б. 8.

¹²⁰ Ўрта Осиёда деҳқончилик тақвими билан бир пайтда турли тақвим турлари ҳам мавжуд бўлган. Уларга: 1) Ернинг Қуёш атрофида айланишига асосланган шамсий тақвим; 2) Ой фазаларининг доимий ўзгаришга асосланган камарий тақвим; 3) Қуш қайи ёки долға ҳисоби (мавсумий қушларнинг кўкламда учиб келиш ва қишлоқ учун қушда иссиқ ўлкаларга учиб кетиш мuddатларига асосланган маҳаллий вақт ҳисоби-Фенологик календар); 4) Тўғал ёки тўқуш ҳисоби; 5) Тошув ҳисоби (яъни дарё тошқинлари асосида). 6) Мучал ҳисоби; 7) Чорва ҳисобларини олишимиз мумкин. Ушбу тақвим турларидан ташқари XIX аср охири – XX аср бошларида водийнинг айрим туманларида Эрон қуёш календари ҳам мавжуд бўлган. Ушбу тақвимлар хакида батафсил қаранг: Жўраев М. Ўзбек халқ тақвими ва мифологик афсоналар. Бухоро, 1994. Б. 5-6; Нарзикулов А. Деҳқон тақвими. – Тошкент, 1991. Б. 8; Джаҳонов У. Земеледелие таджиков долины Соха в конце XIX-нач. XX в. – Душанбе, 1989. С. 80-88; Лившиц В.А. Зароастрийский календарь // Бикерман Э. Хронология древнего мира. Ближний восток и античность – М.: Наука, 1975. – С. 6-15. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент, 1986. Б. 40-42.

¹²¹ Наливкин В.П. // ТВ. 1880. – № 5.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida musulmon oy kalendari ham mavjud bo'lgan. Bu hozirda ham keksalar tomonidan qo'llaniladi. Ular shunday nomlanadi: Muxarram, Safar, Rabiul-avval, Rabi-us-sani, Juma-daul-avval, Jumada-us-sani, Radjab, Shabon, Ramazon, Shavval, Zulqada, Zulxidja¹²². Ushbu oy hisoblariga ham bog'liq bo'lgan irimlar va urf-odatlar mavjud bo'lgan. Masalan, Safar oyida to'y qilishni, safarga chiqishni, idish tovoqlar sinishini hosiylasiz deb bilishgan. Bundan tashqari vodiyniing So'x tumanida¹²³ ushbu oy oxirida «safar qochdi» udumi o'tkazilgan. Bunga ko'ra somon va poxollardan katta dumaloq to'p qilinib, tepalikka olib chiqilgan va uni yoqib pastga yumalatishgan. Bundan tashqari shu kuni biror joyga olov yoqilib, uni ustidan qishloq yoshlari sakrab o'tishgan. Bu kun «begoi chorshanbe» deb ham atalgan¹²⁴. Ushbu udumlar Farg'ona vodiysidan tashqari O'rta Osiyoning turli hududlarida ham mavjud bo'lgan¹²⁵. Ushbu odatni V.Bartold¹²⁶ va A.Middendorflar¹²⁷ otashparastlik dinidan qolganligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Farg'ona vodiysida dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan yil xisobining yana bir necha turlari ham mavjud bo'lgan bunga misol qilib inson tana a'zolariga qarab hisoblash usulini olishimiz mumkin. Bu xisob usuli vodiyniing So'x tumanida «xisobiy mardiy» deb yuritilgan.¹²⁸ Ushbu usul xalq orasida juda keng ommalashgan bo'lib, bunga sabab u juda qulay bo'lgan va murakkab xisob-kitobni talab qilmagan, bu esa oddiy dehqon uchun juda qo'l kelgan. Yil xisobining bu usuli inson oyoqlaridan boshlanib, uning bosh qismigacha davom etgan. masalan inson oyog'ining ostki qismi hamda oyoq barmoqlari va tirnoqlariga 7 kun ajratilgan bo'lsa, inson oyoqlarining tizzadan tepa qismi 8 kun hisoblangan, shuningdek insonning bo'yin qismiga 30 kun ajratilgan bo'lib, shu yo'sinda insonning ta'na a'zolariga ma'lum miqdorda kunlar taqsimlanib chiqilgan. Bu usul O'rta Osiyo boshqa xududlarida ham mavjud bo'lgan va turli atamalar bilan yuritilgan.¹²⁹ Yuqorida qayd etganimizday xalq orasidagi taqvim xisobdonlari bir paytning o'zida fenologik kuzatuvlarni ham olib borishgan. Bizga ma'lumki tabiat o'zgarishlarini doimiy ravishda kuzatib borish va taqqoslash fenologik kuzatuvlarning muxim omili xisoblanadi.¹³⁰

Ushbu kuzatuvchilar ob-havoning qanday kelishini, yilning qaysi hayvon muchalida bo'lishligiga ham bog'lashib o'z taxminlarini bayon qilishgan. Masalan dehqon hisobdonlari qo'y, quyon, baliq, it hamda to'ng'iz yili serxosil yillar bo'lishiga ishonishgan. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, yillarni hayvon

¹²² Дала ёзувлари. Мархамат тумани, Ровот кишлоғи. 2001 й.

¹²³ Джаханов У. Земеледелие таджиков долины Соха в конце XIX-нач. XX в. Душанбе, 1989. С. 108-109.

¹²⁴ Джаханов У. Кўрсатилган асар. Ўша бет.

¹²⁵ Сазонова М.В. Традиционная хозяйство узбеков южного Хорезма. Л.: Наука, 1978; Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М., 1969 стр. 189; И.Мухитдинов. Обряды и обычаи, связанные с земледелием у памирских таджиков Вохана и Ишкамиша в XIX-нач. XX в. // Сов. этног. 1973. №3. Стр. 70-71

¹²⁶ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т.1. М., 1963. Стр. 162

¹²⁷ Миддендорф А.Ф. Кўрсатилган асар.

¹²⁸ Джаханов У. Кўрсатилган асар. 1989г. с 82-83.

¹²⁹ Рахимов М.Р. Исчисление времени у таджиков балсейна реки хингоу в XIX начале XX в. // СЭ 1957 г. №2. С 74-75. Андреев М.С. Таджики долины хуф вып-2. Сталинобод 1958г. стр. 153-166.

¹³⁰ Головач А.Г. Фенологические наблюдения в садах и парках. М. 1951 г. стр 8.

nomlari bilan atalishi hattoki dastlab turkiy tilli xalqlarda paydo bo'lib keyinchalik boshqa xalqlarga tarqalganligi xususida ham fikrlar mavjud.¹³¹

Manba'larda ko'rsatilishicha o'rganilayotgan davrda Farg'ona vodiysining ayrim tumanlarida qadimiy Eron quyosh kalendari ham mavjud bo'lgan. Ushbu taqvimda oylar nomi quyidagicha nomlangan. Farvardin (31 kun-21 III dan 21 IV), Urdibixisht (31 kun. 22 IV dan 22 V), Xurdod (31 kun. 23 V dan 22 VI), Tirmo (31 kun. 23 VI dan 22 VII), Murdod (30 kun. 23 VII dan 21 VIII), Shaxrivar (31 kun. 22 VIII dan 21 IX), Mexr (30 kun. 22 IX dan 20 X), Obon (30 kun. 21 X dan 19 XI), Ozar (30 kun. 20 XI dan 19 XII), Daymo (31 kun. 20 XII dan 20 I), Baxman (30 kun. 21 I dan 20 II) Isfandarmuz yoki Esfand (29 kun. 21 II dan 20 III). Shu o'rinda yuqoridagi taqvimni xijriy Shamsiy oylari bilan solishtirsak ular quyidagicha hisoblanadi. «Farvardin» oyining birinchi kuni «Hamal» oyining birinchi kuniga, «O'rdibixisht» oyining birinchi kuni «Hamal» oyining yigirma birinchi kuniga, «Ho'rdod» oyining birinchi kuni, «Savr» oyining uchinchi kuniga, «Tirmoh» oyining birinchi kuni, «Javzo»ning yigirma to'qqizinchi kuniga, «Murdod» oyining birinchi kuni. «Saraton» oyining yigirma yettinchi kuniga, «Shaxrivar» oyining birinchi kuni, «Asad» oyining oltinchi kuniga, «Mehrmoh» oyining birinchi kuni «Sumbulaning yigirma beshinchi kuniga», «Obon» oyining birinchi kuni, «Mezon» ning yigirma to'rtinchi kuniga, «Ozarmoh» oyining birinchi kuni, «Aqrab» oyining yigirma to'rtinchi kuniga, «Deymoh» oyining birinchi kuni, «Qavs» oyining yigirma to'rtinchi kuniga, «Bahman» ning birinchi kuni «Jadiy»ning yigirma beshinchi kuniga, «Esfand» oyining biinchi kuni, «Dalv»ning yigirma oltinchi kuniga to'g'ri keladi. Ushbu yil taqvimining kelib chiqishi va paydo bo'lishi xususida ayrim mualliflar fikr yuritib uni Sharqiy Eron va O'rta Osiyo xududlari bilan bog'lashadi.¹³²

Yuqorida keltirilgan dehqonchilik bilan bog'liq bilimlardan tashqari vodiy dehqonlari tabiat hodisalarini qor, yomg'ir, do'l yog'ishi va shamol bo'lish vaqti, ularning qanday kechishi taxminiy fenologik usullarini ham yaxshi bilishgan. Ko'p yillik hayotiy tajribalarga tayanib, ular: uy qushlari sayrashmasa, bog'larda qushlar shovqini eshitilmasa yoki sayrab turgan qushlar birdaniga jimib, tinib qolsa yoki qushlar pastlab uchib, qarg'alar qag'illasa, havoning buzilishini, sovuq bo'lishini osongina payqashgan¹³³. Bundan tashqari yana daraxtlar kech barg yozsa, yoz uzoq davom etishini, yozda daraxtlarda sarg'ish barglar paydo bo'lsa, kuz barvaqt boshlanishini, mevalar tez yetilsa, qish erta kelishini, agar terak barglari kuzda uchidan sarg'ayishni boshlasa bahor erta kelishini anglatgan, qishni issiq yoki sovuq bo'lishini esa kuzda qushlarning issiq o'lkalarga qay tartibda uchib ketishiga qarab chamalaganlar¹³⁴. Yuqorida keltirilgan mifologik qarashlar, irimlar hamda asrlar mobaynida yig'ilgan tajribaviy bilimlar vodiy dehqonchiligining o'ziga xos muhim qirralarini belgilab bergan.

¹³¹ Писарчик А.К. Таблицы двенадцатилетнего животного цикла с приведением соответствующих им годов современного летоисчисления // Материалы Южно-Туркестанской археологической комплексной экспедицией Вып 1, Ашхабад 1949 г. с. 173-181.

¹³² Лившиц В.А. Зороастрийский календарь 6. В кн Бикерман. Э. Хронология Древнего мира. Ближний Восток и античность. М. Наука 1975 г.

¹³³ Об-хаво даракчилари. Т.: Адолат, 1996. Б. 12.

¹³⁴ Дала ёзувлари. Чуст тумани, Ғова кишлоғи. 2002 й.

Farg‘ona vodiysida asrlar davomida sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, unga bog‘liq holda dehqonchilik an‘analarining va bayramlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Natijada yerni shudgorlash, yerga don sepish, hosilni parvarishlash, g‘alla o‘rish va xirmon ko‘tarish bilan bog‘liq an‘ana va udumlar kelib chiqqan.

Dehqonchilik bayramlarining, bahorning boshlanishining eng asosiy bayrami bu Navro‘zdir. Bu juda qadimiy bayram hisoblanib, O‘rta Osiyo va Eronda islom dini kirib kelishidan avval ham mavjud bo‘lganligi manbalardan ma‘lum¹³⁵.

Navro‘z kelishini uning aniq kunini kun va oylarni hisoblovchi hisobdon kishilar belgilaganlar. Navro‘z kelishi bilan vodiyni barcha qishloqlarida bayram va sayllar o‘tkazilgan, sumalaklar pishirilgan. Bahorda yana vodiyni turli hududlarida «gul sayli», «o‘rik guli» sayli «lola» sayli an‘analari o‘tkazilgan¹³⁶. Bunda qishloqning bolalari 15-20 kishilik kichik-kichik guruhlariga bo‘linib olishadi va qo‘llariga qirlardagi gullardan terib olib xonadonlar eshigini oldiga kelib qo‘shiq aytib chaqirishgan. Qo‘shiqni guruhdagi bitta bola yoki qiz boshlab aytgan qolganlar unga jo‘r bo‘lishgan. Xonadondan chiqqan erkak yoki ayol gullarni yuziga bosib xidlagan va bolalarga tuxum, meva, qand yoki pul bergan¹³⁷. Farg‘ona viloyatining Farg‘ona tumanining tog‘oldi qishloqlari bo‘lgan Mindon, Xonqiz, Chimyon va Qo‘rg‘ontepa qishlog‘ida shunga o‘xshash bo‘lgan boychechak sayli¹³⁸ degan an‘ana hozirgacha davom etib kelayotganini biz informatorlardan yozib oldik. Uning o‘tkazilishi «gul sayli» bilan deyarli bir xil, faqat unda gul o‘rniga bolalar boychechak ko‘tarib yurishgan va qo‘shig‘i bir oz boshqacha bo‘lgan. Uning misralari turlicha bo‘lgan. Masalan: «Boychechagim boylandi, qozon-tovoq ayrondir, ayroningdan bermasang, qozon-tovog‘ing vayrondir» yoki «Boychechagim boylandi, gul chechakka aylandi. Gul-chechakni ko‘tarib og‘zi-burnim moylandi».

Bayramlar bilan bir qatorda vodiya bahorgi dehqonchilik yumushlariga tayyorgarlik ham boshlangan bo‘yinturuq omoch va molalar sozlanib taxt holga keltirilgan. Aravalar tuzatilib, xo‘kizlar yaroqli holga keltirilgan. Vodiyni ayrim tumanlarida erta bahorda dehqonchilik ishlari boshlanishidan oldin jonliq so‘yilib is chiqarilgan. Vodiy qishloqlarida dehqonchilik baroridan kelishi uchun «darveshona»lar o‘tkazilgan. Uni asosan masjidlarda yoki choyxonalarda o‘tkazilgan¹³⁹. uni o‘tkazishda aholidan pul yig‘ilgan unga har kim baholi-qudrat mablag‘ bergan. Darveshonalarda imomlar «Qur‘on»dan suralar o‘qishgan. So‘ng keksa otaxonlar dehqonlarga «oq fotiha» berishgan. Ular: «Ishlaring baroridan kelsin, yurt tinch bo‘lsin, dehqonchiliklaringa olloh baraka bersin, Bobodehqonu, Xizr buvalar qo‘llasin» deb duolar qilishgan¹⁴⁰. Shundan so‘ng dehqonchilikni yaxshi biladigan keksalar dalalarga chiqib tuproqni shudgorlash uchun yetilgan yoki yetilmaganini aniqlashgan. Agar yer xaydash uchun tayyor bo‘lsa. Dehqonchilikning

¹³⁵ Бу ҳақда батафсил қаранг: А.Беруний. Избр. произведения. Т., Изд УзССР, 1957; Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М.: Наука, 1969.

¹³⁶ Пещерева Е.М. Праздник тюльпан (лола) в сель. Исфара Кокандского уезда-В.В.Бартольд. Т., 1927. Стр. 373-383

¹³⁷ Джаханов У. Земеледелие таджиков долины Соха в конце XIX-нач. XX в. Душанбе, 1989. С. 108-109.

¹³⁸ Дала ёзувлари. Хонқиз, Қўрғонтепа қишлоқлари. 2002 й.

¹³⁹ Дала ёзувлари. Марҳамат тумани, Ровот қишлоғи. 2001 й.

¹⁴⁰ Дала ёзувлари. Фарғона тумани, Косонсой, Чуст қишлоқлари. 2002 й.

yana bir udumi hisoblangan «shoxmoylar» marosimi o'tkazilgan. Unga ko'ra qozon osilib unga yog' quyib qizdirilgan va unda bo'g'irsoq va chalpak pishirilgan, keyin xuddi shu qozondagi yog' bilan oiladagi keksaroq kishi xo'kizning shoxini, yelkasini, tuyoqlarini va irim qilib omochning tishini ham moylagan. Ushbu marosim vodiying So'x tumanida «govxunukkunon» yoki «yug'munon» deb atalgan¹⁴¹. Ushbu marosim O'rta Osiyoning boshqa dehqonchilik hududlarida ham mavjud bo'lgan¹⁴². Ushbu marosim haqida I.Jabborov quyidagilarni yozadi: «Shoxmoylar marosimi dehqonlar bilan bog'liq urf-odatlarining eng asosiysi bo'lib, bu udum ziroatchilik marosimlariga yo'l ochgan. Shuning uchun dehqonlar shoxmoylarni zo'r tantana bilan o'tkazishga intilishgan»¹⁴³. Shoxmoylar paytida xo'kizlarga ko'z tegmasligi uchun irim qilinib tumorlar taqilgan. Shoxmoylar marosimlarning barcha rasm-rusumlari qilingach, Mulla «dehqonchilik risolasidan» parchalar o'qigan. Shundan so'ng xo'kiz bo'yniga bo'yinturuq solingan. Bo'yinturuqni solishda dehqonlar xo'kizni bo'yinlarini qashlab: «Bismillaxir raxmonir raxiym, e jonivor xudoning mahluqi, seni ota-bobolaringa, ota-bobolarim qo'sh qo'shgan ota-bobong ota bobomga xizmat qilgan, endi sening galing, yaxshi bo'lsang yemingni, yomon bo'lsang boshingni yeysan»¹⁴⁴ deyilgan. Xo'kizlar dalaga olib chiqilgach, birinchi bo'lib qo'shni yoshi ulug' dehqonlar kuchlari yetguncha 2-3 bor haydab borib kelishgan. Bu omoch haydashda har bir omoch yurgizilgan chiziq orasi 3-4 metr oraliqda bo'lib, mahalliy tilda «xat» vodiyni ayrim tumanlarida esa «rang» deyilgan¹⁴⁵. Omoch haydashning birinchi kuni ko'p mehnat qilinmagan. Dehqonlar o'zlari xohlaganicha miqdorda yerni shudgorlab keyin omoch haydashni to'xtatishgan, lekin xo'kizlarning bo'yinturug'i olinmasdan yer ichida aylantirib yurilgan bu «sovutish» deb atalgan¹⁴⁶. Bahorga dehqonchilik bilan bog'liq marosimlar o'tkazilib bo'lingach dehqonlar ishga kirishganlar. Yerlarga ishlov berishda dehqonlar bir-biriga yordam qo'lini cho'zishgan yoki kelishib mehnat qilishgan. Chunki aksariyat dehqonlarda ishchi hayvonlar, yoki ishchi kuchi yetishmagan. Bunday sheriklik qilish «alg'ov» deb nomlanib O'rta Osiyoning boshqa hududlarida ham mavjud bo'lgan.¹⁴⁷ Ushbu usul nafaqat yerlarga ishlov berishda, balki xosilni parvarishlashda, uni yig'ishtirib olish hamda yanchishda ham keng qo'llanilgan. O'sha davrdagi boy oilalarda esa barcha imkoniyatlar yetarli bo'lganligi uchun ular o'z yerlariga ishlov berishda yollanma ishchilar mardikorlardan foydalanishgan. Ushbu mulkdorlar o'z yerlarini ko'p hollarda chorakorlarga ijaraga berishgan. Chorakorlar yerlarida ajralgan yoki kambag'al dehqonlar bo'lib ular qilgan mehnati evaziga xosilning 4 dan biriga egalik qilgan. Har bir qishloqning o'z boylari bo'lgan masalan Chust tumani G'ova qishlog'ida Islom boy, Komil boy kabi mulkdorlar bo'lib ularning qo'lida ko'plab

¹⁴¹ Джаханов У. Земеледелие таджиков долины Соха в конце XIX-нач. XX в. Душбанбе, 1989. С. 110-111.

¹⁴² Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Т. II. Изд. АНССР. 1958. С. 62; Кисляков Н.А. Старинные приемы земледельческой техники и обряды, связанные с земледелием у таджиков бассейна р.Хингоу. // Сов. этног. 1947. №1. С. 114-15; Шаниязов К. Узбеки-карлуки. Т., 1964. С. 51.

¹⁴³ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Б. 198.

¹⁴⁴ Дала ёзувлари. Мархамат тумани, Ровот қишлоғи. 2001 й.

¹⁴⁵ Джаханов У. Земеледелие таджиков долины Соха в конце XIX-нач. XX в. Душанбе, 1989. С. 110.

¹⁴⁶ Дала ёзувлари. Косонсой тумани, Ободон қишлоқлари. 2002 й.

¹⁴⁷ Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. Ташкент. 1974г. с. 174-175.

ijarachi va chorakorlar mehnat qilishgan.¹⁴⁸ Yerlar haydalib bo'lingach, urug' sepish boshlangan, ushbu yumushni ham yoshi ulug' otaxonlar boshlab berishgan. Urug'ni sepishda otaxon o'ng qo'lini to'ning yengidan chiqarib olib, yelkasining chap tomoniga urug' solingan etakni ilib olgan. U urug' sepishdan oldin duo o'qib shunday deydi: «Bismillaxir raxmonir raxiy, bu meni qo'lim emas, Bobodehqonu, Xizrbuvalarning qo'li, katta-katta dehqonchilik pirlarining qo'li»¹⁴⁹. Urug' sepayotgan otaxon birinchi siqimlab olgan urug'ini «Qushlaru, qurt-qumursqalar haqi» deb uch bora sepgan, so'ng «Iloxim sepgan bir dona urug'imiz ming donaga aylansin» deb duo qilgan¹⁵⁰. Dehqonchilikdagi qo'sh haydash va urug' sepishning nur'oni otaxonlar tomonidan boshlab berilishi Tojikistonning turli dehqonchilik hududlarida ham uchrab, u «chuft baroron» yoki «chovyug'i» marosimi deb atalgan¹⁵¹.

Otaxonlar tomonidan urug' sepish ramziy ma'noda boshlab berilgach, barcha dehqonlar urug' sepishga kirishilgan. Urug' sepayotgan dehqonlarga qishloqdagi farzandsiz oilalar, oilasida bemor odam yashaydigan oilalar turli taomlar pishirib kelib berishgan va haqlariga duo qilishlarini so'rashgan. Bunday qilinishiga sabab vodiya yerga urug' qadayotgan dehqonlar eng savob ish qilayotgan kishilar hisoblangan va ularning duosi ijobat bo'ladi deb ishonilgan¹⁵².

Farg'ona vodiysida hosildorlikni yaxshi bo'lishi ob-havoga bog'liq bo'lgan qurg'oqchilik dehqonlar uchun ofat hisoblangan. Bizga ma'lumki sug'orma dehqonchilikka asoslangan O'rta Osiyoning barcha hududlarida suvni va yomg'irni e'zozlash alohida ahamiyat kasb etgan. Suv bilan bog'liq urf-odat va marosimlar o'zining uzoq tarixiga ega. Avestoda yer, suv va hosildorlikning xudosi deb «Anaxita» talqin qilingan.

B. G'ofurovning ta'kidlashicha zardushtiylik davrida Anaxitaga atalgan gimnlar, qasrlar va haykallar ham mavjud bo'lgan.¹⁵³ Ayrim manba'alarda ko'rsatilishicha Anaxitaga atab Zardo'shtiylik davrida hatto odamlar ham qurbon qilingan.¹⁵⁴ Avesto kitobida Anaxita doimo go'zal, baquvvat, xushqomat, kamarini baland bog'lagan, oltin ziynatli ko'p burmali mursak kiygan bir qiz sifatida ta'riflangan.¹⁵⁵ O'rta Osiyoda Anaxita kulti bilan birga suv va namgarchilik piri sifatida «Er xubbi» yoki «Xubbi» kulti ham mavjud bo'lgan. Bu kult haqida ko'plab mualliflar tomonidan afsona va rivoyatlar qayd etilgan¹⁵⁶. Ko'pchilik olimlar ushbu kult islomgacha ma'lum bo'lganligini qayd etadi¹⁵⁷. Bu haqda akademik Y. G'ulomov quyidagilarni yozadi: «tabiiyki islom dini yoyilgandan so'ng ham xalq islomgacha bo'lgan suv

¹⁴⁸ Дала ёзувлари. 2002 й. Чуст тумани Ғова қишлоғи.

¹⁴⁹ Дала ёзувлари. Марҳамат тумани, Ровот қишлоғи. 2001 й.

¹⁵⁰ Дала ёзувлари. Фарғона тумани, Ҳонқиз қишлоғи. 2001 й.

¹⁵¹ Ершов Н.Н. Сельское хозяйство таджиков Ленинабадского района. Тадж. ССР. Перед октябрьской революции. Сталинабад. Изд. АН Тадж ССР. 1960 стр 127-128; Рахимов М.Р. Сельское хозяйство - таджики Каратегина и Дарваза. Вып. 1. Душанбе, 1966. Стр. 183-185

¹⁵² Дала ёзувлари. Марҳамат тумани, Шукурмерган қишлоғи. 2001 й.

¹⁵³ Гафуров Б.Г. История таджикского народа. М. 1955 г. стр 39

¹⁵⁴ Жавлиев Т.. Табиат, инсон ва дин. Т. 1986 й. 45 бет.

¹⁵⁵ Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи Т. 1 китоб 1965 й. 44 бет.

¹⁵⁶ Фуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. 33 бет; Мухаммаджонов А. Хўжауббон кудуғи муқаддаси // Фан ва турмуш 1986 й. № 9 6-7 бет;

¹⁵⁷ Залеман К.Г. Легенда О Ҳаким ота// Известия имп. АН. Серия V. Т. IX. СПб 1889 г. № 2 стр. 114

xudosi Xubbi haqidagi afsonani saqlab qoldi, natijada u musulmon agiografik adabiyotiga kirib keldi.»¹⁵⁸ Er xubbi kultiga sigʻinish vodiyning Soʻx tumanida koʻproq saqlanib qolgan. Soʻx dehqonlari erta bahorda ariqlarda suv ochishdan oldin daryo boʻyida turli jonliqlar soʻyib Er xubbi kultiga atab qurbonliq qilishgan. Bu yerda Er xubbini «yigit xubbi» deb atashgan.¹⁵⁹ Turli yogʻingarchilik kultlariga sigʻinish dunyoning boshqa xalqlarida ham mavjud boʻlganligi manbalarda qayd etilgan.¹⁶⁰ Vodiy dehqonlari qurgʻoqchilik yillari yomgʻir chaqirish bilan bogʻliq turli marosimlar oʻtkazganlar. Vodiyning Quva tumani Tolmazor qishlogʻida yashovchi 94 yoshli Nishonboy otaning hikoya qilishicha qurgʻoqchilik yillari qishloqda Oллоhdan yomgʻir soʻrab xayri xudoyilar oʻtkazilgan. Ushbu xudoyilar odatdagi xudoyilardan shunisi bilan farq qilganki unda qatnashayotgan oqsoqollar soni 7 kishi yoki 17 kishi boʻlishi shart boʻlgan. Vodiyning Fargʻona tumani Qoʻrgʻontepa qishlogʻida yashovchi 98 yoshli Haydar otaning hikoya qilishicha qurgʻoqchilik yillari odamlar xayri-xudoyi qilish bilan birga oʻz ekin maydonlari chetlariga qurbaqa ushlab osib qoʻyishgan va odamlar qurbaqani yomgʻir chaqiradi deb ishonishgan. Hozirda ham vodiya qurbaqani oʻldirgan odamning toʻyida yomgʻir yogʻadi degan tushuncha saqlanib qolgan. Qurbaqa obrazining yogʻingarchilik bilan bogʻliqligi toʻgʻrisida dunyo xalqlarining koʻpchiligida turli talqinlar uchraydi.¹⁶¹ Oʻrta Osiyoda qurbaqaning namgarchilik timsoli sifatida talqin qilinganligini L.I. Rempel tasdiqlab quyidagilarni yozadi; «Oʻrta Osiyo xalqlarining sanʼatida qurbaqa obrazidan namgarchilik va yomgʻir ifodasi baxt va omad timsoli, bamisoli tumor sifatida foydalanilgan».¹⁶² Vodiyning Soʻx tumanida yomgʻir chaqirish bilan bogʻliq boʻlgan «tarishkunak» deb nomlangan marosim mavjud boʻlgan. Unga koʻra qishloq erkaklari yarim yalangʻoch holda koʻchaga chiqishgan va bir-birini ustidan suv quyishgan va biror kishini koʻproq imom yoki mullani ariqqa tashlashgan. Shu kunlari qishloq aholisi erkak va ayollari xohlagan xonadonga kirishgan va u yerda ularni bajonidil mehmon qilishgan.

Bunday kunlarda qishloqning barcha xonadonlarida chalpak pishirilgan. Bu chalpak mahalliy tilda «Kashki chavari» deb atalgan¹⁶³. Fargʻona vodiysining shimoliy tumanlarida yomgʻir chaqirishning «sust xotin» yoki «suv xotin» deb ataluvchi marosimlari ham mavjud boʻlgan¹⁶⁴. Ushbu marosim Oʻzbekistonning Zarafshon, Qashqadaryo vohalarida keng tarqalgan anʼanalardan hisoblanadi¹⁶⁵.

Bizga maʼlumki qadimda turkiy qavmlar orasida «Yada» toshi vositasida duo oʻqib yomgʻir chaqirish udum boʻlgan. Mahalliy xalq esa homiy xarakter timsollarni jonli ravishda, xuddi teatrdagidek ifodalab, bu marosimni koʻpchilik boʻlib

¹⁵⁸ Фуломов Я.Ф. Кўрсатилган асар 32 бет.

¹⁵⁹ Джахонов У. Кўрсатилган асар. Стр.125-126

¹⁶⁰ Басилов В.Н. Культ святых в исламе. Мос. 1970г. стр 26-27.

¹⁶¹ Евсюков В.В. Мифология Китайского неолита Новосибирск 1989.С.94-95; Халилов Х.М. Историческая общность национального своеобразие обрядовой поэзии народов Дагестана и Северного Кавказа// Дагестанский фольклор во в заимосвязи с иноэтнически фольклором. Махачкала 1985г. стр. 19; Календарные обычай и обрядь народов восточной Азии. Годовой цыкль М. 1988 г. стр.276.

¹⁶² Ремпель Л.И. Цепь времен вековие образы и бродячие сюжеты в традиционном исскустве Средней Азии. Т.1987 г. стр37.

¹⁶³ Джаханов У. Кўрсатилган асар. С. 112.

¹⁶⁴ Джаханов У. Кўрсатилган асар. С. 118.

¹⁶⁵ Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. Т., 1974. С. 174-175.

o'tkazgan¹⁶⁶. Ushbu tosh haqidagi ma'lumotlarni A.Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Ibn al Faqih, Rashiuddin, V.Bartold S.YE.Malov va M. Jo'rayev kabi mualliflarning asarlarida uchratamiz¹⁶⁷. Lekin dala etnografik ekspeditsiyalarimizda bunday toshlar bilan yomg'ir chaqirishi mumkin bo'lgan shaxslar haqida tayinli ma'lumot yig'a olmadik. Yomg'ir chaqirish bilan bog'liq rasm-rusumlar O'rta Osiyoning dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Masalan, etnograf V.N.Basilovning yozishicha, turkmanlarda yomg'ir piri deb «Burkut Baba» obraziga sig'inilgan va unga atab turli marosimlar o'tkazilgan¹⁶⁸. Turkman xalqida ushbu yomg'ir piriga atab turli afsona va rivoyatlar to'qilgan.

Bulardan tashqari tojik elshunosi N.Muxiddinovning ma'lumot berishicha Tojikiston respublikasining ayrim tumanlarida esa yomg'ir chaqirishning g'ayri oddiy usullari mavjud bo'lgan. Masalan, «suvga odamning bosh chanog'i qo'yilsa yomg'ir yog'adi» deb ishonilgan¹⁶⁹.

Biz yuqorida yomg'ir chaqirish bilan bog'liq bir nechta urf odat va marosimlar haqida to'xtalib o'tdik. Shuni ham e'tirof etish o'rinliki nafaqat Farg'ona vodiysida balki O'rta Osiyoning boshqa dehqonchilik hududlarida yomg'irni to'xtatish bilan bog'liq marosimlar ham mavjud bo'lgan. Yomg'irni to'xtatish uchun vodiyning ayrim tumanlarida g'ayri oddiy usullar qo'llanilgan masalan Marxamat, Quva tumanlarida odamlar yomg'irni to'xtatish uchun shu qishlog'da yashab o'tgan va yashayotgan kal va ko'sa odamlarning ismlarini toq sonlar bilan sanashgan (ya'ni 1,3,5,7 va xokazo). Ular shu sanog' 4 taga yetkazilsa yomg'ir to'xtaydi deb ishonishgan.¹⁷⁰ Agar sanog' 41 taga yetkazilsa, u holda hisoblanayotgan kallar soni 21 tani tashkil etgan.

Vodiyning Sox tumanida yomg'irni to'xtatish uchun bir necha marosimlar mavjud bo'lib ularning aksariyati olov bilan bog'liq bo'lgan. Bu haqda U.Djaxonov o'z fikrini bildirib ushbu udumlarni O'rta Osiyoning ayrim hududlarida mavjud bo'lgan «alovparak» marosimiga bog'liq deb taxmin qiladi.¹⁷¹ Ulardan biri quyidagicha oilaning to'ng'ich farzandi olloxdan o'zini saqlashini so'rab iltijo qiladi va baland yoqilgan olov ustidan sakrab o'ta boshlaydi bu paytda qolgan kattayukichik tog'ora chelak yoki boshqa temir buyumlarni baland ovoz chiqarish uchun bir-biriga urib shovqin solishadi.

Yuqoridagiga o'xshash marosim vodiyning boshqa tumanlarida ham mavjud bo'lgan, ammo bu qishloqlarda olov yoqilmagan balki qishloq aholisi, asosan bolalar

¹⁶⁶ Жўраев М. «Яда тошига қон етқач» ёки «ёмғир тоши» ҳақида афсона // Ёшлик. 1990. 1-сон. Б. 60-62.

¹⁶⁷ Бу ҳақда батафсил қаранг. Беруни А. Минерология. С. 184 // Сборник сведений для познание драгоценностей. Перевод Беленицкого А.М.. М., 1963; Махмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. Т. 3. Т.: Фан, 1963. Б. 460; Ибн ал Факих. Китоб ахбор ал булдон. (тарж.). материалы по истории туркмен и Туркмении. М-Л., 1939. С. 153; Рашиддун. Сборник летописей истории монголов. Сочинения. Рашид-Эддина. История Чингизхана. Рус перевод Березина И.Н. СПб., 1868. С. 127-293; Бартольд В.В. История и культурные жизни Турккистана. Соч. Т. II. Ч.1. С. 180; Малов С.Е. Шаманский камен яда у тюрков западного Китая. // СЭ. 1947. №1. С. 154.

¹⁶⁸ Басилов В.Н. О туркменском «пире» дождя Буркут Баба. // СЭ. 1963. №3.стр 15-18

¹⁶⁹ Мухитдинов И. Земледелие памирских таджиков Вахана и Ишкамиша в XIX-нач. XX в. М., 1975. С. 100-101.

¹⁷⁰ Дала ёзувлари 2001 й. Мархамат, туман Ровот, қишлоғи. Ушбу одат кўпроқ водийнинг ғорводор чўпонларида кузатилади.

¹⁷¹ Джахонов У. Кўрсатилган асар стр. 112-113.

ko'chalarga tog'ora chelak va shunga o'xshash buyumlarni olib chiqib shovqin solishgan.¹⁷²

Ma'lumki, chorvachilik O'rta Osiyo jumladan Farg'ona vodiysi aholisining qadimiy mashg'ulotlaridan biri hisoblangan. Bu soha Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi Avestoda ham ulug'lanadi. Tabiiyki asrlar davomida ushbu mashg'ulot turi bilan bog'liq marosim va urf odatlar shakllangan. Farg'ona vodiysining tekislik qismidagi o'tloqlarni dehqonchilik uchun tobora ko'proq o'zlashtirilib borishi oqibatida chorvani uzoqroq yaylovlarga haydash kuchaygan. Farg'ona vodiysi atrofida joylashgan tog' va tog'oldi zonalaridagi yaylovlar bu davrda aholi chorvachiligining rivojida muhim rol o'ynashi bilan birga, turli etnik jamoalar o'rtasidagi xo'jalik-madaniy aloqalarni mustahkamlashda ham katta ahamiyat kasb etgan¹⁷³. Ushbu yaylovlarda vodiyning ko'plab etnik jamoalari - qirg'iz, qipchoq, turk, qurama, yuz, qoraqalpoq hamda o'troq O'zbek, tojiklar o'z chorvalarini boqqanlar. Masalan, Oloy vodiysidagi yaylovlardan chorvador qirg'izlar bilan birga Farg'onalik boshqa etnik jamoalar ham yozgi yaylov sifatida foydalanib kelganlar. Yoz oylarida bu yerda 15 mingga yaqin Qirg'iz, O'zbek va boshqa chorvadorlarning oilalari yig'ilishi mumkin edi. Chorva mollarining umumiy miqdori esa yarim million boshni tashkil etgan¹⁷⁴. Bunday ko'lami keng yozgi yaylovlar Qurama va Chotqol tog' tizmalarida ham joylashgan bo'lib, ushbu yaylovlarga qipchoq, turk, qurama, yuz kabi yarimo'troq (yarimko'chmanchi) aholi bilan birga farg'onalik va toshkentlik o'troq aholining ham chorvasi olib chiqilgan. Vodiyning turli etnik jamoalari birgalikda tog'oldi va adir zonalaridagi O'tloqlardan ham qishki-yozgi yaylov sifatida foydalanganlar. O'troq aholidan chiqqan, ko'psonli chorvaga ega bo'lgan boylar o'z chorvalarini yaylovga olib chiqish va boqish uchun bir necha Cho'ponlar yollaganligi ma'lum. Odatda bunday yollanma Cho'ponlar turk, yuz, ming, qipchoq, qurama, qirg'iz va shu kabi etnik jamoalarning vakillaridan iborat bo'lib, ular yaylov sharoitida chorvani boqish va saqlash borasida katta hayotiy tajribaga ega bo'lganlar. «Bu yarimko'chmanchilar ... butun chorvasini ularga boqish uchun topshiradigan o'troq aholining cho'ponlari bo'lib xizmat qiladilar», - deb yozgan edi bu haqda V.N.Kushelevskiy ham¹⁷⁵. Ushbu davrda Farg'ona vodiysining janubiy qismida joylashgan qishloqlarda bo'lgan rus tadqiqotchisi V.N.Parfentev ham bunday holatni tasdiqlab, quyidagi ma'lumotni qoldirgan: «Vodil qishlog'ida yozgi yaylovlar yO'q. Shuning uchun chorva yozgi manzillariga jo'naydigan qirg'izlarga topshiriladi. Qirg'izlar chorvaning but bo'lishini ta'minlaydilar va O'z qishlovlariga qaytganlarida yo'l-yo'lakay ularni egalariga topshiradilar»¹⁷⁶. Albatta, yollanma cho'pon va uni yollagan otar sohibi o'zlariga muayyan majburiyatlar olganlar. Avvalo, cho'pon olti oy yoki bir yil muddatga yollangan. Cho'pon va uning yordamchisi otardagi chorva sonining kamayishiga yO'l qO'ymay, to'liq saqlashlari kerak bo'lgan, egasi esa ularni, ya'ni cho'pon va uning yordamchisini kiyim-bosh va oziq-ovqat mahsulotlari

¹⁷² Дала ёзувлари. 2002 й. Фарғона тумани. Кўрғонтепа қишлоғи.

¹⁷³ Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. Тошкент. 2004 й. 48-52 б.

¹⁷⁴ Каранг: А. Волхонский. От Нового Маргелана до границы Бухары. // Вестник Европы. 1894. №7. С. 429.

¹⁷⁵ Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области / В.З.Т. Новый Маргилан. 1891. С. 364.

¹⁷⁶ Парфентьев В.А. Селение Вуадиль // БФО. Т. III. 1904. С. 68.

bilan yollangan muddat ichida ta'minlagan. Bundan tashqari, mehnat haqqi hisobiga cho'pon va uning yordamchisi ma'lum miqdordagi qo'ylarni olganlar. Ish haqi sifatida beriladigan qo'ylarning soni belgilanayotganda, bir qator sharoitlar, xususan, chorva qancha uzoqlikda va qancha muddat yaylovlarda boqilishi, otardagi yoki podadagi chorvaning soni hamda cho'pon mahorati hisobiga olingan. qipchoq cho'ponlari olti oy muddatga 4 bosh qo'y olganlar. Yordamchi cho'pon esa nisbatan kamroq¹⁷⁷. Aksariyat hollarda O'troq dehqon va chorvador xalqlar o'zaro hamkorlikda chorva molllarini boqqanlar; yozda O'troq O'zbek, tojiklarning hayvonlari ham qirg'iz, qipchoq, qurama, turk va boshqa yarimo'troq aholining yaylovlarida boqilsa, dehqonchilik ekinlari yig'ib olingach, bu joylardan yarimo'troq (yarimko'chmanchi) aholi ham chorvani boqishda foydalanganlar¹⁷⁸. XIX-XX asr boshlarida farg'onalik chorvadorlar tomonidan bir necha zotdagi qO'ylar boqilgan, chunonchi, «jaydari» yoki «turkona qo'y ya'ni turk qo'yi», «hisor qo'yi», «chuvoldi» yoki «qirg'iz qo'yi» va boshqalar. Ushbu faktning o'zi farg'onalik chorvadorlarning nafaqat o'zaro, balki O'rta Osiyoning boshqa hududlaridagi xalqlar bilan ham xo'jalik aloqalarida bo'lganliklarini ko'rsatadi.

Farg'ona vodiysi chorvadorlarida ushbu mashg'ulot bilan bog'liq marosim va urf odatlar shakllanganligini biz yuqorida qayd etib o'tdik. Ta'kidlash joizki bu mashg'ulot bilan bog'liq urf-odat va marosimlarga talaygina misollar keltirish mumkin. Biroq aynan Osmon yoritqichlari bilan bog'liq bir marosim haqida biz dala ekspeditsiyalarimiz davrida yozib olingan bir ma'lumotni keltirib o'tamiz. Bizga ma'lumki dehqonchilikda ekinlarga turli zararli hashoratlar zarar keltirsa, chorvachilikda ham chorva hayvonlariga shu kabi hashoratlar ziyon keltirgan bulardan qutulish uchun xozirda turli kimyoviy usullardan foydalaniladi. Avvallari esa bunday imkoniyatlar bo'lmaganligi sababli Ota bobolarimiz an'anaviy usullar bilan birga ba'zi bir g'ayri oddiy magik usullardan ham foydalanganlar. Ma'lumki, chorva hayvonlariga eng ko'p zarar keltiruvchi yaylov kanallari bo'lib¹⁷⁹, ular chorva hayvonlarini yaxshi rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Bularni yo'q qilish uchun chorvadorlar xalq orasida "Darimchi" deb, ataluvchi insonlar xizmatidan foydalanishgan. "Darimchi"lik juda nodir kasb bo'lib, hozirda bunday kasb egalari deyarli qolmagan. Bunday insonlar o'z xizmati uchun anchagina yaxshi haq olganlar. "Darimchi"lar ishtirokidagi marosim quyidagicha o'tkazilgan. Chorva egasi "darimchi"ni o'z qo'rasiga taklif qilgandan so'ng "darimchi" toza pokiza va tahoratli holatda suruv yaqiniga kelib, ichi tozalangan, qovoqdan tayyorlangan idishga toza suv to'ldirgan va ushbu suvga Qur'ondan suralar o'qib dam solgan. So'ngra ushbu idishni suruv yotadigan qo'ra yonidagi biror ustunga ilib qo'ygan. Ushbu idish shunday joyga ilinganki tunda ushbu idish ichidagi suvga samodagi yulduzlarning aksi tushishi shart bo'lgan. Marosimning ertasi kuni "Darimchi" ushbu qovoqni olgan va Qur'ondan suralar o'qib to'plab qo'yilgan suruv ichiga kirgan va to idishdagi suv tugaguncha undagi suvdan og'iz bo'shlig'iga olib suruvdagi qo'ylar ustiga purkab

¹⁷⁷ Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа... С. 198.

¹⁷⁸ Плоских В.П. Киргизы и Кокандское ханство. Фрунзе. 1977. С. 208.

¹⁷⁹ Чорвачиликда асосан иксодид(яйлов) каналари кўпроқ зарар келтиради. Ixodidae оиласи 6-та авлодни ўз ичига олади: Ixodes, Boophilus, Haemaphysalis, Dermacentor, Rhipicephalus, Hyalomma.

chiqqan¹⁸⁰. Axborotchilarimizni ma'lumot berishlaricha, bu kasb egalari o'z kasbini otadan o'g'ilga qoldirishga xarakat qilishgan, juda kamdan kam hollardagina bu qoidani buzishga majbur bo'lishgan. O'z farzandini "Darimchi"lik kasbini olishi uchun Bobo yoki ota hali farzand tug'ilmasidan tayyorgarlikni boshlagan. Farzand tug'ilishiga ikki oyga yaqin muddat qolganda Ota 41 ta tirik "iksodid(yaylov) kanalari"ni topib ularni Qamish o'simligini (qamishning ichi g'ovak bo'lgani uchun) bir bo'g'imiga solib har ikki tomonini berkitgan. Oradan 40 kun o'tib qamish ochilgan qamish ichidagi kanalar esa bir-birini yeb bitirib faqat bir donasi tirik qolgan. Ushbu kana esa bir kichikroq idishga yoki piyolaga solinib quyoshga qo'yilgan kana o'lib, shu idishda quritilib farzand tug'ilishiga qadar kutilgan. Farzand tug'ilgach esa hali onasini ko'krak sutini iste'mol qilmasdan avval quritilgan kana mayda qilib uqalangan holda, saryog'ga aralashtirib bolaning og'ziga solingan ¹⁸¹. Ushbu rasm-rusumlar qilingandan so'ng esa ushbu chaqaloq balog'at yoshiga yetguniga qadar "Darimchi" bobosi, otasi yoki ustozi bilan birga yuqoridagi marosimlarni o'tkazishga qatnashib yurgan¹⁸². Bizningcha ushbu marosim islomgacha mavjud bo'lgan ajdodlarimizning diniy qarashlari bilan bog'liq bo'lib keyinchalik islom ta'sirida o'zgargan.

Osmon yoritqichlari bilan bog'liq tushunchalarning yana biri bu asosan yilqichlik bilan bog'liqdir. Ma'lumki ot sutidan tayyorlanadigan mahsulot ya'ni "qimiz" chorvachilik bilan shug'ullanuvchi barcha etnoslar oziq-ovqat ratsionidagi eng tansiq mahsulotlardan biri hisoblanib, bu ichimlik ular tomonidan shifobahsh xususiyatga ega mahsulot sifatida ham qadrlanadi. Axborotchilarimizning ma'lumotlariga qaraganda ushbu ichimlik Hulkar (Surayyo) yulduzi ko'ringunga qadar "issiqlik" Hulkar yulduzi ko'ringach "sovuqlik" bo'lar ekan.¹⁸³ "Issiqlik" va "sovuqlik" tushunchalari esa xalq tabobatida qadimdan ma'lum. Surayyo (Hulkar) yulduzi esa yilning 22-26 avgust kunlari ilk bor ko'rina boshlaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida dehqonchilik va chorvachilik mashg'uloti bilan bog'liq bo'lgan bir qator urf-odatlar va rasm-rusumlar mavjud bo'lgan. Ushbu rasm-rusumlar esa xalqimizning asrlar davomida shakllangan tafakkuri va dunyoqarashining mahsulidir.

¹⁸⁰ Дала ёзувлари Андижон вилояти Мархамат тумани 2006 йил.

¹⁸¹ Маълумки авваллари чақалоқлар қишлоқнинг доя аёллари ёрдамида фақат уйда туғилган ва тилинг доимо ёғли бўлсин дея ирим қилиниб, чақалоқ тилига озроқ сарёғ суртилган.

¹⁸² Дала ёзувлари Андижон вилояти Мархамат тумани 2006 йил.

¹⁸³ Дала ёзувлари Фарғона вилояти Фарғона тумани 2006 йил.

II BOB. TABIAT-KOINOTGA OID BILIM VA URF-ODATLARNI IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR NEGIZIGA SINGDIRISH HAMDA MATBUOT ORQALI O'RGANISH MASALASI

2.1. Oliy ta'limning ijtimoiy-gumanitar fanlar dasturiga tabiat-koinotga oid bilim va urf-odatlarni singdirilishi

Bugungi kunda mamlakatimizning oliy ta'lim tizimida muhim islohatlar amalga oshirilmoqda, bundan asosiy maqsad esa albatta mamlakatimiz yoshlarini rivojlangan mamlakatlar oliygohlarida ta'lim olgan tengdoshlari bilan bemaol raqobatlasha oladigan kadrlar sifatida tayyorlashdir. Oliy ta'lim tizimiga xalqimizning nomoddiy madaniy merosini singdirish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Nomoddiy madaniy merosning aynan tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalari xalqimizning asrlar osha shakllanib kelgan ma'naviy merosidir bugungi kunda ularni asrash va kelajak avlodga yetkazish g'oyatda muhimdir. Nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi hisoblangan tabiat-koinotga oid bilim va ko'nikmalarni oliy ta'limning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga singdirilishi bugungi kunda a'lohida ahamiyatga ega, zero aynan ijtimoiy-gumanitar fanlar yoshlarimizni ma'naviyatini yuksaltirishda, ularni siyosiy va tarixiy bilimlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda "O'zbekiston tarixi" fani talabalarga yurtimizning ko'p asrlik boy tarixini o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri belgilashga ko'maklashadi. O'z o'tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O'tmishini bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamonni yaxshi tushunadi, kelajakni to'g'ri tasavvur etadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarni tarixiy jarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bo'lib qolishdan saqlaydi, ularni olg'a intilishga, taraqqiyotga ko'maklashishga undaydi. Yoshlarimiz mamlakatimizning kelajakda dunyo miqyosidagi mavqei va o'rnini belgilab beruvchi asosiy kuch ekanini hisobga oladigan bo'lsak, ularga Vatanimizning boy tarixini chuqurroq o'rgatish – jiddiy masaladir. O'zbekiston tarixi fanining har bir ma'ruzada ma'ruza mavzusiga oid bo'lgan tabiat-koinotga oid bo'lgan rivoyat yoki afsonalarning keltirilishi ma'ruzalarning jonli va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Ma'lumki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunali o'quv dasturida "O'zbekiston tarixi" fani uchun jami 116 soat ajratilgan bo'lib undan 36 soat ma'ruza, 36 soat seminar 44 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Quyida aynan mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar xajmida Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilimlar, urf-odat va marosimlarni o'rganish bo'yicha taklif va tavsiyalar o'rin olgan. Unga ko'ra Antropogenez jarayoni ya'ni insoniyatning paydo bo'lishida tabiat va koinot bilan bog'liq afsona va ilmiy farazlarni tahlil qilish, ya'ni unda talabalar insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq afsonalar, rivoyatlar haqida ma'lumot yig'adilar. Ibtidoiy davr tasviriy san'atida tabiat va koinot bilan bog'liq tushunchalarni aks etishi (Zarautsoy, Sarmishsoy, Yangiariqsoy yodgorliklari) unda qadimiy rassomlarning chizgan sur'atlaridagi ma'no va mohiyatiga to'xtaladilar,

Zardo'shtiylik dinida tabiat va koinot bilan bog'liq e'tiqodlar unda asosan zardo'shtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" da keltirilgan tabiat va koinotga oid bilimlarni tahlil etadilar, O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy diniy etiqodlari bo'lgan otashparastlik, buddaviylik, moniylikda tabiat va koinot bilan bog'liq diniy qarashlarni tahlil qilishda talabalar moniylik va buddaviylikdagi koinotga oid bilimlarni o'rganib boshqa dinlardagi bilimlar bilan solishtiradilar, Buyuk ipak yo'lini paydo bo'lishi unda savdo yo'llarini paydo bo'lishida tabiat va koinotga bog'liq bilimlarning ahamiyatini o'rganadilar, O'zbek xalqi etnogenezi mavzusida talabalar O'rta Osiyo hududlarida yashagan qadimiy turkiy qavmlarning tabiat va koinot bilan bog'liq tushunchalarini o'rganib ularni tahlil etadilar, unda asosan qadimiy turkiylarning "ko'kka sig'inish" kabi e'tiqodlari haqida ma'lumot yig'adilar, "Ma'mun akademiyasi"da tabiat va koinotga oid bilimlarning rivojlanishi mavzusida talabalar O'rta Osiyo allomalarining tabiat va koinotga oid bilimlar rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish bilan birga ular yozib qoldirgan tabiat va koinotga oid afsona va rivoyatlar xususida ma'lumot yig'adilar (masalan Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari bo'yicha).

Yuqoridagilardan tashqari Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fanining" "Milliy davlatchilik g'oyalari va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanish bosqichlari" mavzusida ham dastlabki g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar va ta'limotlarda talabalar Mazdkiylik va boshqa dinlar mafkuralaridagi tabiat va koinotga oid qarashlarni tahlil etib ushbu kichik tadqiqotlarni mustaqil ish sifatida taqdim etishlari mumkin.

Shuningdek, Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan "Xuquqshunoslik" fanining "Ekologiya huquqi asoslari" mavzusida talabalar Tabiat va uning obektlari yuridik tushunchasi, Ekologik xafvsizlikni tushuntirishda tabiat va koinotga oid bilimlar tahlili, hamda xalqimizning tabiatni asrashga oid "odat normalari" haqidagi ma'lumotlarni ilmiy tahlil etadilar.

Oliy ta'limdagi "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidagi "Agrar munosabatlar va agrobiznes" mavzusida ham talabalar yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligini oshirishda xalqimizning tabiat va koinotga oid bilimlari muhim omil ekanligini o'rganadilar va yig'ilgan ma'lumotlar asosida o'z fikr va mulohazalarini bayon qiladilar.

Oliy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida tabiat va koinotga oid bilimlar berish yuzasidan metodik tavsiyalar

1-jadval

t/r	O'quv fanlari	O'quv fanidagi mavzularning nomlanishi	Mavzu uchun ajratilgan umumiy soat	Tabiat va koinotga oid bilimlarni o'qitish bo'yicha tavsiyalar
1	O'zbekiston tarixi fani	Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Antropogonez jarayoni ya'ni insoniyatning paydo bo'lishida tabiat va koinot bilan bog'liq afsona va ilmiy farazlarni tahlil qilish; O'rta Osiyoda mezolit (o'rta

			(keyingi shakldagi tavsiyalar mustaqil ishlari uchun berilayotgan soatlar xajmida bajarilishi ko'zda tutiladi)	tosh davri) davri yutuqlari bo'lgan diniy e'tiqodlarda tabiat va koinot bilan bog'liq tushunchalarni o'rganish; Ibtidoiy davr tasviriy san'atida tabiat va koinot bilan bog'liq tushunchalarni aks etishi (Zarautsoy, Sarmishsoy, Yangiariqsoy yodgorliklari); Zardo'shtiylik dinida tabiat va koinot bilan bog'liq e'tiqodlar; Bronza davridagi O'rta Osiyo shaxarsozlik madaniyatida tabiat va koinotga oid bilimlarning aks etishi;
		O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari	Jami: 12 soat 4 soat ma'ruza 6 soat seminar 10 soat mustaqil ish	O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy diniy e'tiqodlari bo'lgan Otashparastlik, buddaviylik, Moniylikda tabiat va koinot bilan bog'liq diniy qarashlarni tahlil qilish;
			(keyingi shakldagi tavsiyalar mustaqil ishlari uchun berilayotgan soatlar xajmida bajarilishi ko'zda tutiladi)	Buyuk ipak yo'lini paydo bo'lishi. Savdo yo'llarini paydo bo'lishida tabiat va koinotga bog'liq bilimlarning ahamiyati
		O'zbek xalqining etnik shakllanishi	Jami 4 soat 2 soat ma'ruza 2 soat mustaqil ish (keyingi shakldagi tavsiyalar mustaqil ishlari uchun berilayotgan soatlar xajmida bajarilishi ko'zda tutiladi)	O'zbek xalqi etnogenezi. O'rta Osiyo hududlarida yashagan qadimiy turkiy qavmlarning tabiat va koinot bilan bog'liq tushunchalarini o'rganish;
		IX –XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari xayotida yuz bergan	Jami 8 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar	“Ma'mun akademiyasi”da tabiat va koinotga oid bilimlarning rivojlanishi;

		uygʻonish davri. Fan va madaniyatning yuksak ravnaqi.	4 soat mustaqil taʼlim (keyingi shakldagi tavsiyalar mustaqil ishlari uchun berilayotgan soatlar xajmida bajarilishi koʻzda tutiladi)	Oʻrta Osiyo allomalarining tabiat va koinotga oid bilimlar rivojiga qoʻshgan hissasi (Abu Rayhon Beruniy, Axmad al Fargʻoniy, Muso al Xorazmiy misolida);
		Amr Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot.	Jami 10 soat 2 soat maʼruza 4 soat seminar 4 soat mustaqil ish (keyingi shakldagi tavsiyalar mustaqil ishlari uchun berilayotgan soatlar xajmida bajarilishi koʻzda tutiladi)	Mirzo Ulugʻbek davrida tabiat va koinotga oid bilimlarning rivojlanishi
2	Milliy istiqlol gʻoyasi	Milliy davlatchilik gʻoyalari va Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanish bosqichlari	Jami: 6 soat 2 soat maʼruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Dastlabki gʻoyaviy-mafkuraviy qarashlar va taʼlimotlar: Zardushtiylik, Moniylik va Mazdkiylik mafkuralarida tabiat va koinotga oid qarashlarni tahlil etish.
3	Xuquqshunoslik	Ekologiya huquqi asoslari	Jami: 4 soat 2 soat maʼruza 2 soat mustaqil ish	Tabiat va uning obektlari yuridik tushunchasi; Ekologik xafsizlikni tushuntirishda tabiat va koinotga oid bilimlar tahlili. Ekologiya huquqi manbalari. Umumiy, maxsus va alohida manbalar. Xalqimizning tabiatni asrashga oid “odat normalari”
4	Iqtisodiyot nazariyasi	Agrar munosabatlar va agrobiznes	Jami: 6 soat 2 soat maʼruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligini oshirishda xalqimizning tabiat va koinotga oid bilimlari muhim omil sifatida
5	Madaniyatshunoslik	“Madaniyatshunoslik” fanining predmeti	Jami: 6 soat 2 soat maʼruza	Madaniyatshunoslik fanida nomoddiy madaniy merosni

	va vazifalari	2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	o'rganish bilan bog'liq nazariy masalalarini o'qitish shakllarini
	Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlari	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Madaniy taraqqiyotning asosiy qonuniyatlarini o'rganishda koinot va tabiatga oid masalalariga alohida e'tibor qaratish
	Madaniy taraqqiyot va ma'naviy meros	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Tabiat va koinotga oid nomoddiy madaniy merosni o'rganish
	Ibtidoiy madaniyat	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Tabiat va koinotga oid ibtidoiy bilimlarni o'rganish va tahlil qilish
	Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Tabiat bilan bog'liq nomoddiy madaniyat va mavzumiylar marosimlarni o'rganish va amaliyotda kuzatish
	Duniyoviy va diniy madaniyat	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Tabiat va koinot bilan bog'liq diniy marosimlarni tahlil qilish
	Amir Temur va temuriylar davri madaniyati	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Amir Temur va temuriylar davrida tabiat va koinotga oid bilimlarni, nomoddiy madaniy meros masalalarini qo'lyozmalar asosida o'rganish
	Modernizm va postmodernizm madaniyati: (XVI – XXI asrlar).	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Zamonaviy transformasion jarayonlarda koinot va tabiat bilan bog'liq nomoddiy madaniy obektlarni muhofaza qilish masalalarini tadqiq qilish
	Mustaqillik va madaniyat. Madaniyat rivojlanishining zamonaviy muammolari	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Mustaqil O'zbekistonda tabiat va koinotga oid bilimlarni, nomoddiy madaniy merosni o'rganishga qaratilgan adabiyotlarni tahlil qilish.
	Kurs bo'yicha	Jami:6 soat	Tabiat va koinotga oid test

		takrorlash. Test topshiriqlari bilan ishlash	2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	topshiriqlaridan foydalanish
6	Dinshunoslik	Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Fan predmeti va tabiat bilan bog'liq masalalarini o'rganishni tahlild qilish
		Din-ijtimoiy tarixiy etnik hodisa	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Din va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish
		Din turlari, Zardushtiylik va milliy dinlar	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da tabiatni muhofaza qilish haqidagi parchalarini o'qish va tahlil qilish
		Buddizm va xristianlik	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Buddizm va xristianlik dini akronlarida tabiat va koinot bilan bog'liq marosimlarni o'rganish
		Johiliya davri: diniy e'tiqod va ma'naviyat	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Jaholiyat davrida tabiatdagi o'zgarishlar
		Islom dining paydo bo'lishi va ma'naviy hayotning yangilanishi	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Islom dinini vujudga kelishi va tabiat va koinot masalalari bilan bog'liqligini o'rganish
		Islom: qadriyatlar, ma'naviyat va ma'rifat	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Islomiy qadriyatlari tizimida tabiat va koinot bilan bog'liq marosimlarni o'rganish
		Qur'on suralarining jamlanishi va shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishi	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Qur'oni karimda tabiat va koinotga oid bilimlarni o'rganish
		Islomning e'tiqodga aylanish davri va o'zni Osiyo xalqlari madaniyati	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Islom dinida tabiat bilan bog'liq o'zgarishlarga munosabatlar
		Hadislar diniy axloqiy	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza	Tabiat va koinotga oid hadislarini to'plash va ularni

		dasturlar manbai	2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	tahlil qilish
		Shariat: ma'naviyat va axloqiy kamolot	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Burxoniddin Marg'iloniyning "Hidoya" asarida tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlarni tahlil qilish
		Markaziy Osiyoda islom ma'naviyatining rivojlanishi	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Islomda ekologik madaniyat, tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlarni o'rganish. Nomoddiy madaniy meros obe'ktlarni shakllanishida Islom dinining o'rnini tahlil qilish.
		Tasavvuf tariqati va ma'naviyat	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Tasavvuf tariqatlari (Yassaviya, Kubraviya va Naqshbandiya)da tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlar
		Milliy g'oya va axloqiy madaniyatning shakllantirish omillari	Jami:6 soat 2 soat ma'ruza 2 soat seminar 2 soat mustaqil ish	Milliy g'oya va axloqiy madaniyatning shakllanishida tabiat va koinot bilan bog'liq masalalarni uyg'un xolda o'rganish va talabalar dunyoqarashini kengaytirish

2.2. Tabiat - koinotga oid bilim va urf-odatlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar negziga singdirishda matbuot materialaridan foydalanish

Bugun kishilik jamiyati g'oyat katta bosimdagi axborot almashinuv jarayonida yashamoqda. Endilikda kichkinagina xabar xalqlar, millatlar, hukumatlar, mamlakatlar manfaatlariga taalluqli umuminsoniy ahamiyat kasb etayapti. Dunyoning kaysidir nuqtasida sodir bo'lgan voqea, dunyoning boshqa bir burchagida yashaydigan insonga bir necha daqiqalarda yetib boradi va uni befarq qoldirmaydi. Bu esa axborotning inson hayotining ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu jarayonga shunday izoh beradi: "Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin".¹

Axborotning ta'sir doirasi shu darajada kuchliki, ba'zan ular mamlakatlar, millatlar, qadriyatlarni bitta maqsad atrofida birlashtirsa, ba'zan ana shu maqsadga zid ravishda ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, globallashuv deb atalayotgan XXI asrni aslida ulkan axborotlashuv jarayoni boshqarmoqda. Bu davr yangi axborot texnologiyalarning mislsiz darajada rivojlanishi tufayli kirib kelayotgan nanotexnologiyalar davri, ayniqsa, butunjahon o'rgimchak to'ri bo'lmish internet virtual muloqot olamini vujudga keltirish davri, ommaviy kommunikatsiyalar asosini muloqot, axborot boshqarayotgan davrdir. Ana shunday katta bosimdagi axborot almashinuvi sharoitida har bir davlat o'zining milliy manfaatlarini himoya qilish, xalqining milliy o'zligi, moddiy va nomoddiy madaniy merosi, qadriyatlari, udum va an'analari saqlab qolishi, rivojlantirishi va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun mas'uldir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida to'g'ri ta'kidlaganidek, "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi".²

Mislsiz katta ko'lamdagi axborot almashinuvi jarayonlarida yoshlar ongida nomoddiy madaniy meros tushunchasini singdirish hamda qadriyatlar, urf-odatlar va an'analari ruhida tarbiyalash, nomoddiy madaniy merosni asrash va uni kelajak avlodga yetkazish hissinini shakllantirish xamda aynan matbuotda ushbu mavzuning yoritilishi, rivojlanish bosqichlari, til, uslub, mahorat masalalarini tahlil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Bunda ayniqsa, ijtimoiy hayotning ko'zgusi bo'lgan matbuotning o'rni katta. Chunki globallashuvning muhosasizligi, degradatsiyalanishning jiddiy tahdid sifatida tobora kuchayishi, nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha turli muammolarning yuzaga kelishi uning kelajakda yo'qolib ketish xavfini

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 115.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 30.

jadallashtirmoqda. Shu o'rinda matbuot nomoddiy madaniy merosning ahamiyati borasida aholi va ijtimoiy institutlarning xabardorligini oshirish, ijtimoiy birdamlik, barqaror taraqqiyot va ehtimoliy ziddiyatlarni oldini olish vositasi sifatida, shuningdek, uning estetik va ma'naviy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratgan holda, mazkur jabhada samarali faoliyat yuritadi. Matbuot nomoddiy madaniy merosning o'z-o'zini ifoda etish va paydo bo'lish shakllarining turfa xilligi masalalarida, asosan, turli maqsadli guruhlar uchun mo'ljallangan Davlat va xalqaro tashkilotlarning maxsus dasturlarini targ'ib etish va ular doirasidagi jamoatchilik o'rtasida turli tadbir va aksiyalar o'tkazish, bu borada rang-barang mazmundagi materiallar chop etish orqali keng ommani xabardorligini oshirishga ko'maklashadi. Shuningdek, nomoddiy madaniy merosning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini ko'rsatishga mo'ljallangan tahliliy maqolalar, badiiy-publitsistik asarlarni chop etilishi til va madaniyat, nomoddiy madaniy merosning boshqa ko'rinishlari borasidagi bilimlarni chuqurlashtirishda, samarali muhofazaning amaliyoti xususidagi axborotni tarqatishda muhim o'rin tutadi. Matbuot o'zining mavjud tarmoqlaridan foydalangan holda, ularning muhofaza qilish harakatlarida qo'llab-quvvatlash maqsadida hamjamiyatlar bilan axborot almashish orqali mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda bahs-munozaralarni tashkil etish orqali ko'maklashadi. Shu sababli nomoddiy madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda matbuot faoliyatidagi tendensiyalar, qonuniyatlar, shakl va usullarining transformatsiyasini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2003 yil 17 oktabrda YUNESKOning Parijda bo'lib o'tgan 32-sessiyasida qabul qilingan Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Konvensiyaning 14-moddasida ta'lim, jamoatchilikning xabardorligini oshirib borish va salohiyatni mustahkamlash asos bo'lib xizmat qilishi borasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, har bir ishtirokchi-davlat o'z ixtiyorida bo'lgan vositalarni quyidagilarga yo'naltiradi:

a) nomoddiy madaniy merosning jamiyatda keng tan olinishi, hurmat qilinishi va e'tirof etilishi jarayoniga, xususan, quyidagi vositalar orqali ko'maklashish:

1) ta'lim dasturlari orqali jamoatchilikning, xususan, yoshlarning nomoddiy madaniy meros to'g'risidagi bilimlarini oshirish;

2) ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida tegishli hamjamiyatlarga va guruhlariga mo'ljallangan aniq dasturlar ishlab chiqish;

3) nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish sohasida, xususan, boshqaruv va ilmiy tadqiqot masalalari bilan bog'liq imkoniyatlarni oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

4) bilimlarni tarqatishning norasmiy usullaridan foydalanish;

b) nomoddiy madaniy merosga xavf solayotgan tahdidlar, shuningdek, mazkur Konvensiyaning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar haqida jamoatchilikni xabardor qilib turish;

c) nomoddiy madaniy merosni namoyon etish uchun kerak bo'lgan tabiiy makonlar va tarixiy joylarning hududlarini muhofaza qilish sohasidagi ta'limga ko'maklashish.

Shuningdek, 2010 yil 7 oktabrda qabul qilingan “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi”ning “Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo‘yicha olib boriladigan targ‘ibot-tashviqot ishlari” bo‘limining 40 bandida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va ulardan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ilg‘or tajribalarni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib etish vazifasi yuklatilgan. Xususan, aholi, ayniqsa yoshlarning, shuningdek, chet el jamoatchiligining nomoddiy madaniy meros bo‘yicha xabardorlik darajasini oshirishga qaratilgan, jahon nomoddiy madaniy merosining Reperezentativ ro‘yxatiga kiritilgan va mazkur ro‘yxatga kiritish uchun tavsiya etilgan obektlar, nomoddiy madaniy meros targ‘iboti bilan bog‘liq xalqaro va respublika miqyosidagi simpoziumlar, seminarlar, jamoatchilik forumlari, festivallar, tanlovlar va ko‘rgazmalar, respublika miqyosida o‘tkazilayotgan tadbirlar, shu sohaga bag‘ishlangan ilmiy ekspeditsiyalar va dala tadqiqotlari haqida matbuotda maqolalar bilan chiqish, ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlash ham dasturning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bu jarayonlarni jamoatchilikka yetkazishda ijtimoiy hayot ko‘zgusi bo‘lgan matbuotning o‘rni alohida ekanligini ta’kidlashni istar edik. Shuningdek, respublikamizda chop etiladigan gazeta va jurnallarda nomoddiy madaniy merosning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini ko‘rsatishga mo‘ljallangan tahliliy maqolalar, badiiy-publitsistik asarlarni chop etilishi millatning tili, madaniyati, urf odatlari, an‘analari borasidagi bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashda samarali yordam beradi.

Monografiyada O‘zbekiston Respublikasining markaziy nashrlari - “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, “Tafakkur”, “Guliston”, “Sharq yulduzi”, kabi nashrlarning nomoddiy madaniy merosga, xususan tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarga doir chiqishlaridan foydalanildi, uning muammoli mavzu yo‘nalishlari, ko‘lami, mavzuning yoritilishidagi tamoyillari, tendensiyalari, shakli, usullari, muallif yondashuvlari tahlilga tortildi.

Ana shunday nashrlarning ichida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashri hisoblangan “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining 1991-2015 yillarda chop etilgan tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlarga bag‘ishlangan maqolalarni tahlilga tortamiz.

Mazkur nashr haftalik gazeta bo‘lib, haftaning payshanba kuni nashr qilinadi. Biz gazetaning 25 yillik - 1250 dan ortiq sonini tahlilga tortdik. Gazeta tahlamlarida nomoddiy madaniy merosga doir 200 dan ortiq maqola chop etilgan bo‘lib, shundan 20 ga yaqini tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarga oid maqolalarni tashkil etadi. Xususan, o‘zbek xalqining eng aziz va qadimiy ayyomi bo‘lmish “Navro‘z” bayrami hamda u bilan bog‘liq urf-odatlar, marosimlar, pazandachilik san‘ati, shuningdek, an‘anaviy xalq taqvimlari, kunning botishiga qarab kelgusi kunning qanday kelishini aytib berish, oyning turishiga qarab keyingi oyning taxminiy ob-havosini aniqlash, hayvonlar harakati orqali sodir bo‘ladigan voqealarni bashorat qilish, an‘anaviy tabobat kabilarga doir maqolalar shular jumlasidandir.

Gazetada sharq xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining umummilliy, eng aziz azaliy bayrami bo'lmish Navro'z ayyomi hamda bayram shoh taomi Sumalak haqida batafsil to'xtab o'tilgan. Ma'lumki, Navro'z Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston, O'zbekiston va Turkiya tavsiyanomasiga ko'ra 2009 yilda (28 sentabr-2 oktabr 4-sessiya Abu-Dabi, Birlashgan Arab Amirligi) YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, 2010 yilda 21 mart BMT tomonidan Xalqaro Navro'z kuni deb e'lon qilingan.

M. Jo'rayevning (2003 yil 21 mart 12-son) "Yil boshiga tengdosh o'yin", J.Jabborovning (2006 yil 24 mart 12-son) "Navro'z safosi", I.G'aniyev, N. Afoqovanning (2009 yil 17 aprel 16 – son) "Suma - ivitilgan bo'g'doy", SH. Salomning (2010 yil 5 mart 10-son) "Qo'zigul bahorning ko'zlari", "Hulkarni kutgan kiyik", B.Normurodovning (2013 yil 15 mart 11-son) "Barhayot qadriyatlar", B. Aminov (2013 yil 21 mart 12-son) "Quvvatijon sumalak", A. Jumanazarning (2014 yil 28 mart 13-son) "Sumalak" kabi maqolalari shular jumlasidandir.

Shuningdek, biz "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining taxlamlarida tabiat va koinotga oid A. Nabiyevning (1991 yil 19 aprel 16 – son) "Savobga yo'g'rilgan an'ana", A. Jo'rayevning (1992 yil 18 dekabr 51- son) "Qirdagi suluv", A. Ashirov, A. Qayumovnnig (2002 yil 3 may 18-19-sonlar) "Boysun ochiq muzey", A. Otaboyevning (2003 yil 31 oktabr 44-son) "Tibet tabobati sirlari", Q. Sodiqovning (2007 yil 14 dekabr 50-son) "Kun burji sobit turur", N.Norqobilovning (2010 yil 19 noyabr 47-son) "Tog'dagi ko'pkari", S. Davronnovning (2014 yil 21 noyabr 47-son) "Milliy taomlar dovru'gi" kabi maqolalarini ham tahlilga tortdik.

Mamatqul Jo'rayevning 2003 yil 21 mart 12-sondagi "Yil boshiga tengdosh o'yin" maqolasida Navro'z bayrami bilan bo'yidosh an'analardan biri – sumalak pishirish bilan aloqador "Ashshadarozi" o'yini haqida gap boradi. Muallif ushbu udumning kelib chiqish tarixi, etnografik tavsifi, tabiat bilan bog'liq elementlarini, sumalak pishirish bilan bevosita aloqador jihatlari yaqqol yoritib tahlil qilib bergan. Maqola ilmiy ommabop janr turiga oid bo'lib, muallif fakt va dalillardan unumli foydalangan.

"Ma'lum bo'lishicha, bu o'yin sumalak pishirilayotganda tashkil etilgan. Buning uchun ikki yarim uch gazlar chamasi uzunlikdagi tayoqning uchidan yarim gazlar chamasi uzunlikdagi tayoqning pastrog'idan kichikroq tayoqcha ko'ndalang qilib bog'langan. Uzun bo'yli yog'och qo'g'irchoqning boshiga xorazm do'ppi kiygizib, ustidan oq ro'mol tashlaganlar. Va bu qo'g'irchoq Ashshadarozi deb atalgan. Ayollardan biri qo'g'irchoqqa kiygizilgan uzun ko'ylakning ichiga kirib, uni sumalak pishirilayotgan joyga olib borilgan"¹ deb yozadi muallif. Mamatqul Jo'rayevning fikricha, bu o'yinning tirixiy ildizlari "Avesto"da olov hamda ezgulik timsoli sifatida talqin qilingan iloha Ashani sharaflashga bag'ishlangan qadimiy bahoriy tabiat udumlar bilan aloqador. Shuningdek, yorug'lik va yaxshilik ramzi Oxura Mazda yaratgan iloha Asha hamda olov sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan

¹ Жўраев М. Йил бошига тенгдош ўйин // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси 2003 йил, 21 март, 12- сон, 3-бет.

qadimiy bahor bayramining ajdodlarimiz tomonidan an'anaviy nishonlanishi asosida umumxalq bayrami – Navro'zi olam kelib chiqqan. Zero, o'zbek halq afsonalarida ham Navro'zning paydo bo'lishi quyoshning chiqishi, olovning kashf etilishi hamda ko'klamning boshlanishi bilan tasvirlanishi bejiz emas, degan nuqtai nazarni ham ilgari suradi.

Gazetaning 2006 yil 24 mart 12-sonida O'zbekiston xalq shoiri Jumaniyoz Jabborovning "Navro'z safosi" sarlavhali maqolasi chop etilgan bo'lib, unda O'zbekiston mustaqilligining 15 yilligi arafasida umumxalq tantanasi sifatida Navro'zning alohida ahamiyati haqida so'z boradi. Muallif "...yaxshi bilamizki, Navro'z bayrami o'z tarixiy, olis yo'llarida ancha muncha qiyin, mashaqqatli sinovlarni ham o'z boshidan kechirdi. Uning yo'lida bema'ni to'siqlar, tazyiqlar ham uchradi. Chinakam xalq sayli sifatida dunyoga kelgan Navro'zimizga o'tmish sarqiti, diniy marosim, ortiqcha dahmaza degan tamg'a bosilib, uni hayotimizdan surib tashlashga urinishlar ham bo'ldi. Lekin halq hech qachon jonajon bayramidan voz kechgan emas. Navro'z zamirida mujassam bo'lgan xalq sayillari degan oliy tushuncha istiqlolimiz sharofati bilan o'z jozibasini, o'z ma'nolar dunyosini topdi..."² deya bir kuyunib, bir faxrlanadi. Maqolani esse janriga mansub desak, xato bo'lmaydi. Chunki muallif o'z ko'ngil kechinmalari, his hayajonlari bilan o'rtoqlashgisi keladi. "...asosiy maqsad, Navro'zni chinnakam xalq sayliday o'tkazish. Xo'ja ko'rsinga o'tadigan majlislar, nutqlar yo'q. Navro'z – xalq sayli. Odamlar yayrasin, eng yaxshi liboslarini kiyib chiqib, chiroyli davralar tuzib, tabiat bag'rida go'zal insoniy bazm tuzsinlar" deb istiqlolni sharaflaydi.

Gazetaning 2009 yil 17 aprel 16 – sonida filologiya fanlari doktorlari Ilhom G'aniyev hamda Nodira Afoqovanning "Suma - ivitilgan bo'g'doy" sarlavhali maqolasi chop etilgan. Ushbu maqola Navro'z bayramiga bag'ishlangan yangi tadqiqot, folklorshunos olim Mamatqul Jo'rayevning "Navro'z bayrami" kitobining taqdimotiga bag'ishlangan. Unda kitob muallifining Navro'z ma'naviy qadriyatlarning yaxlit tizimida muhim

xalqa ekanligini chuqur his qilgan holda, Navro'zning kelib chiqishi, u bilan bog'liq taqvimiy muddatlar, udumlar, Navro'z taomlari, Navro'z o'yinlari, qadim ajdodlarimizning vaqtni aniqlash usullarini keng tadqiq etganligi bayon qilingan. Ayniqsa, qadim ajdodlarimiz o'ziga xos – juda aniqlikka asoslangan "dehqon taqvim"larini yaratganligi, ko'pkari va kurash o'yinlarining yangi yil hosilini chamalash orqali hamda qish bilan yoz, zulmat bilan yorug'lik, yovuzlik bilan ezgulik o'rtasida kurash orqali Navro'zga bog'lanishi diqqatni tortadi. "...kitobda uyg'onish ayyomi bilan bog'liq udum, marosim, urf-odat, uyin, taqvimiy muddatlarning juda ko'p nomlari keltirilganki, uni Navro'z haqida o'ziga xos mo'jaz qomus, deyish mumkin..."¹

² Жабборов Ж. Наврўз сафоси // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси 2006 йил, 24март, 12- сон, 2-бет.

¹ Ганиев И., Афоқова Н. Сума - ивителинган бўғдой // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси 2009 йил, 17 апрель, 16- сон, 4-бет.

Gazetaning 2010 yil 5 mart 10–sonida Shodmonqul Salomning “Qo‘zigul bahorning ko‘zlari”, “Hulkarni kutgan kiyik” sarlavhali maqolasida tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarini yaqqol namunasini ko‘rish mumkin. Xususan, “... bir cho‘pon aytdi: “Kun qo‘tonladi, endi kunda yomg‘ir yog‘adi”. Ikkinchisi: “Kecha oy qo‘tonladi, oyda yog‘adi”, dedi. Uchinchi kekxa cho‘pon bir muddat jim turgach, osmonga qarab: “Kun qo‘tonlasa kuragingni olib qo‘raga bor. Oy qo‘tonlasa, ayg‘ir otingni minib ovga bor. Lekin bulut emas, bo‘yruq yog‘adi”, dedi. Cho‘ponlarning bu gurungining ma‘nosi shunday: quyosh atrofida aylana, g‘uborli halqa paydo bo‘lsa, kun qo‘tonlagan hisoblanib, har kuni yog‘ingarchilik bo‘lishidan darak beradi. Shu sabab, chorvadorlar qo‘tonlarini bu mavsumga hozirlashi kerak. Oy atrofida g‘uborli halqa esa, kamida bir oyda yomg‘ir yog‘ishini anglatib, bemaolol uzoq safarga, jumladan, ovga borish ham xavf tug‘dirmasligini bildiradi. Ammo kekxa cho‘pon aytganidek, osmonda bulut qancha ko‘p va quyuq bo‘lsa-da, ilohiy buyruq bo‘lmasa, yomg‘ir yog‘maydi...”.² Muallif bu bilan chorvadorlarning tabiat hodisalari, jumladan, yomg‘ir yog‘ishi yoki yog‘masligini osmon jismlarining harakati, joylashuviga qarab bashorat qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shuningdek, el orasida bir joyda qaqqayib, nimanidir kutib turgan kishiga qarata: “Ha, Falonchi, nega Hulkarni kutgan kiyikday bo‘lib turibsiz” deb aytilishining mazmuniga izoh beradi. “...Cheksiz samovatda g‘uj bo‘lib, porlab turuvchi – Hulkar degan yulduzlar dastasi bor. Qish va kuzning o‘rin almashinuvidan so‘ng osmondagi shu yulduzning botishi kuzatiladi. Hulkar botadi. Tog‘larda yovvoyi holda yashovchi go‘zal jonivor – kiyiklar esa shu yulduzni “taniydi”. Nafaqat taniydi, balki bu yulduzlarning harakati kiyiklar taqdirida muhim rol o‘ynaydi. Kiyikning erkagi-takasi ayozli qish tunlari balandlikka chiqib olib, Hulkarni kuzatadi, botishini kutadi. Hulkar botmaguncha kiyiklar juflashmaydilar. Bu yulduz samo sahnidan g‘oyib bo‘lgachgina kiyiklarda juftlashish boshlanadi. Ona kiyik homilasini 5 oy ko‘taradi. Ana shu instinkt qoidaga amal qilinmasa, tug‘ilajak kiyik bolalari hali yerdan qor ketmasdan tug‘ilib, nobud bo‘ladi...”.¹

Sharqshunoslik instituti talabasi Botir Normurodovning gazetaning 2013 yil 15 mart 11–sonida chop etilgan “Barhayot qadriyatlar” nomli maqolasi ham bevosita tabiat uyg‘onishi bilan bog‘liq bo‘lgan marosim qo‘shiqlari, milliy o‘yin va tomoshalarga bag‘ishlangan. Unda tabiat qo‘ynida uyushtiriladigan Navro‘z saylida ijro etiladigan maxsus chorlov qo‘shig‘i “Bor ho, kel ho...”, qadimiy marosim qo‘shig‘i “Sust xotin”, milliy o‘yinlar “Halinchak”, “Har xilcha”, “Beshtosh”, “Bosma nom”, “Mir - mir”, tomosha o‘yinlaridan “Kim oladi-ya”, “Laylak ilonni ovladi” kabilar tahlilga tortilgan. Ushbu udum va an‘analarni aynan tabiat o‘yg‘onishi bilan aloqador bo‘lib, insonlarni yaxshilik va ezgulikka, birdamlik va mehru muhabbatga chorlovchi bardavom qadriyatlar sarasiga kiradi.

² Саломов Ш. Қўзигул баҳорнинг кўзлари // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси 2010 йил, 5 март, 10- сон, 3-бет.

¹Саломов Ш. Хулкарни кутган кийик // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси 2010 йил, 5 март, 10- сон, 3-бет.

Gazetaning 2013 yil 21 mart 12–sonida Bilol Aminovning “Quvvatijon sumalak” sarlavhali maqolasida tabiat va koinotga oid bilim hamda qadriyatlardan hisoblangan pazandachilik san’ati, xususan sumalak pishirish udumi, uning shifobaxsh xususiyatlari haqida gap boradi. “Navro‘z paydo bo‘libdiki, uning tengdoshi sifatida sumalak taomi ham tayyorlana boshlangan. Sumalakni dardlarda darmon, quvvatijon taom deyilishi bejiz emas. Boisi, bo‘g‘doy tarkibida “tokoferol” deb ataluvchi modda bo‘lib, darmondorilik xususiyati bilan jenshen, ya’ni “YE” darmondaorisining o‘zi ekanligini aniqlashgan. Shuning uchun ayni ilik uzildi payti tabiblarimiz sumalakni ko‘proq iste’mol qilishni tavsiya etadlar” deb yozadi muallif. Shuningdek, sumalakni yog‘siz pishirish texnologiyasi hamda unga shakar solinmasligi sabablari haqida batavsil to‘xtaladi.

O‘zRFA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi Abdusattor Jumanazarning 2014 yil 28 mart 13–sondagi “Sumalak” maqolasi ham bevosita Navro‘z shoh taomiga bag‘ishlanadi. Maqola ilmiy ommabop uslubda yozilgan bo‘lib, “Sumalak” atamasining kelib chiqish tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan. Ko‘plab faktlar, atama va terminlardan unumli foydalanilgan. “...endi qozondan yopinchiq olinadi va sumalak yuziga qaraladi. Bu ishni hamisha ko‘pni ko‘rgan qariyalar bajaradi. Uning yuzidagi shakliga qarab, kirayotgan yilning qanday kelishi, ob-havo, dehqonchilik, chorvachilik ahvoli, yurt tinchligi, obodligi to‘g‘risida bilishga urinadilar...”¹

Gazetaning 1991 yil 19 aprel 16 – sonida A. Nabiyeving “Savobga yo‘g‘rilgan an’ana” nomli maqolasida tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘zbek xalqining eng yaxshi udumlaridan biri hashar haqida so‘z boradi. Jumladan, “...ushbu kunda dasturxonimiz but bo‘lishi uchun yerga urug‘ qadab, ko‘chatlar o‘tqazishga, ariq va buloqlarni, ko‘cha-ko‘ylarni tozalab, shahar qishloqlarimizni, mahallalarimizni obodonlashtirishga, bitmay yotgan imoratlarni tiklab, nochor kulba uylarni ta’mirlashga ahd qildilar” deb yozadi muallif. Darhaqiqat, tabiatning uyg‘onishi, ko‘klamning kelishi bilan bog‘liq ushbu an’ana insonlarning qalbiga yaxshilik va ezgulik urug‘ini qadaydi.

Ashurali Jo‘rayevning 1992 yil 18 dekabr 51 – sonidagi “Qirdagi suluv”, Normurod Norqobilovning 2010 yil 19 noyabr 47–sonda chop etilgan “Tog‘dagi ko‘pkari” maqolasida tabiat bilan bog‘liq urf-odatlardan biri “Ko‘pkari-uloq” haqida so‘z boradi. Unda ko‘pkariga oid udumlar, uni o‘tkazish tartibi haqida gap boradi. Shuningdek, “... yo‘limizda uchragan Qo‘turbuloq suvi aytishlaricha ayrim, kasalliklarga, jumladan, qo‘tir kasalligiga yaxshi davo ekan. Birgina shu buloqning o‘ziyoq bu yerda o‘ziga xos tabiat olami yuzaga kelmog‘iga sabab bo‘lgan. Chotqolliklar bu buloqni ilohiy deb bilishadi...”²

O‘zRFA Tarix instituti ilmiy xodimlari A. Ashirov va A. Qayumovning gazetaning 2002 yil 3 may 18-19 qo‘shma sonlarida e’lon qilgan “Boysun ochiq –

¹Жуманазар А. Сумалак // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси 2014 йил, 28 март, 13- сон, 2-бет.

² Норқобилов Н. Тоғдаги кўпкари //“Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси 2010 йил, 19 ноябрь, 47- сон, 3-бет.

muzei” nomli maqolasida ham tabiat bilan bogʻliq anʼanalarni uchratish mumkin. Maʼlumki, “Boysun madaniy muhiti” 2001 yilda Oʻzbekiston Respublikasi hukumati, Oʻzbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari boʻyicha Milliy komissiyasi va YUNESKOning Oʻzbekistondagi vakolatxonasi birgalikdagi say-harakatlari bilan jahon hamjamiyati madaniy obektlarining 19 nomzodlari orasida YUNESKOning Insoniyat ogʻzaki va nomoddiy madaniy meros durdonasi sifatida tan olingan hamda 2008 yilda (4-8 noyabr 3-sessiya Istanbul, Turkiya) esa Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ roʻyxatiga kiritilgan. “...etnografik kuzatishlardan maʼlum boʻladiki, xalq hamisha oʻzining turmush tarzi, ruhiyati, milliyligidan kelib chiqib ogʻzaki ijod namunalarini yaratadi. Xalq ogʻzaki ijodida “Doʻrsi-doʻrsi” qoʻshigʻi shinni tayyorlovchi xalqning ish uslubi haqida maʼlumot beradi. Masalan, Boysunda xoʻjalar “toifi” navli uzumdan shinni tayyorlash boʻyicha ustasi farang boʻlganlar va ish jarayonida ushbu qoʻshiqni hirgoyi qilganlar...”¹

deb yozadi muallif. Shuningdek, bahor kelishi bilan bogʻliq boʻlgan “Turna keldi” va “Shohmoʻylar” qoʻshiqlari haqida maʼlumot beradi. Muallif ushbu qoʻshiqlarda faqat shoʻh-shodon kayfiyat emas, balki xalq donishmandligi, xalqona qarashlar ham ifoda topganligini tʻkidlaydi. Darhaqiqat, Boysun qadimdan oʻzining boy ogʻzaki ijod namunalari va nomoddiy madaniyati bilan mashhur boʻlgan.

Qosimjon Sodiqovning 2007 yil 14 dekabr 50–sonda chop etilgan “Kun burji sobit turur” maqolasida koinot oid bilimlarni Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” dostonining “Yetti kavokib va oʻn ikki burj” boʻlimidagi maʼlumotlar bilan tahlilga torilgan. “...har bir istiloh koinot jismlarining koʻrinishi, holati va harakatidan kelib chiqqan holda yasalgan. Bu hodisani oʻsha kezlardagi ayni sohaning taraqqiyoti, qadimgi turkiy tilda istiloh yasash prinsiplarining puxta ishlab chiqilgani hamda til anʼanasining uzoq asrli takomiliga bogʻlaganimiz maʼqul”², deb yozadi muallif.

Gazetaning 2014 yil 21 noyabr 47–son Sanjar Davronovning “Milliy taomlar dovrugʻi” sarlavhali maqolasida oʻzbek milliy taomlari va ularning tasnifini kuzatish mumkin. Jumladan, muallif taomlarni: hududiy kaloritga (Jizzax somsasi, Qashqadaryo jizi, Gʻijdivon kabobi, Qoʻqon palovi va hokazo), tayyorlash jarayonini oʻz nomida mujassam etgan taomlar (qiyma kabob, choʻzma lagʻmon, dimlama, qaynatma shoʻrva), maʼlum bir narsaga chogʻishtirish orqali nomlangan taomlar(gulxonim, besh panja kabob, qush tili), nomlanishida tarkibidagi mahsuloti ifodalangan taomlar(koʻk somsa, jigar kabob, tuxum doʻlma, moshkichiri) kabi guruhlariga ajratib koʻrsatadi. Shuningdek, muallif oʻzbek dunyoqarashida asrlar davomida saqlanib kelayotgan “tuz yegan joyga qirq kun salom bermoq”, “luqmai halol”, “minnatsiz osh”, “birovning non-tuziga hiyonat qilmaslik”, “mehmonga osh-

¹ Аширов А., Қаюмов А.. Бойсун очик – музей // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси 2002 йил, 3 май, 18-19 қўшма сонлар, 2-бет.

² Содиқов Қ. Кун буржи собит турур//“Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси 2007 йил, 14 декабрь, 50-сон, 4-бет.

suv” tutish kabi o‘zbek millatigi xos bo‘lgan ramziy ibora va tushunchalarga alohida to‘xtaladi.

“**Sharq yulduzi**” jurnali –adabiy-badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy jurnal. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi muassisligida nashr etiladigan “Sharq yulduzi” jurnali 1931 yildan beri xalqimiz bilan hamnafasdir. Mana shu davr mobaynida jurnal badiiy adabiyotni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shish bilan bir qatorda, ijodiy jarayonning o‘ta murakkab, mas’uliyatli va sharaflı yo‘lini bosib o‘tdi. “Sharq yulduzi” sahifalarini kuzatar ekanmiz, yigirmanchi asr o‘zbek milliy adabiyoti beshigini tebratgan keksa, o‘rta va yosh avlodlar namoyandalari qalamiga mansub nasriy, nazmiy, dramatik, ilmiy-nazariy va publitsistik asarlar muntazam ravishda chop etilib kelinayotganiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Adabiyotga e‘tibor – ma’naviyatga, kelajakka e‘tibor” nomli risolasida “Sharq yulduzi” jurnali faoliyatini har tomonlama kuchaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shaklu shamoyili, mavzu-mundarijasini yaxshilash, mualliflar, ijodiy jamoatchilik bilan keng hamkorlikda ish olib borishni ta’minlash juda katta ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.

“Sharq yulduzi” jurnali ijodiy guruhi bugungi adabiy jarayon manzaralarini keng yoritib, o‘zbek va jahon adabiyoti muammolarining barcha jabhalariga bag‘ishlangan eng sara adabiy-ilmiy, publitsistik asarlarni chop etib borishga katta e‘tibor bermoqda. Jurnal o‘z oldiga umumsan‘at masalalariga daxldor adabiy-falsafiy asarlarni, adabiy bahslar va suhbatlarni, Sharq G‘arb estetik tafakkuriga jiddiy ta’sir o‘tkazib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan qator mumtoz asarlar tarjimasini yillik loyihalar asosida chop etish maqsadini ham qo‘ygan.

Shuningdek, jurnal O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida o‘tkazib kelinayotgan adabiyotimizning umumiy manzaralarini ochib berishga qaratilgan yil muhokamalari ma’ruzalarini ham e’lon qilib kelmoqda. Jurnalning www.sharqyulduzi.uz veb-sayti internet tarmog‘ida elektron foydalanuvchilar uchun xizmat ko‘rsatib turibdi.

Biz jurnalning 25 yillik – 156 dan ortiq sonini tahlilga tortdik. Jurnal tahlamlarida nomoddiy madaniy merosga doir 20 ga yaqin maqola chop etilgan. Xususan, Muhammad Rajabning “Jodir baxshi qo‘shiqlari” (1991 yil, 2 – son, 78 bet), Muzaffar Ahmadning “Qirq mingi baxshidir, qo‘linda sozi” (1992 yil, 2 – son, 185 bet), Naim Karimovning “Alpomishning qatli om etilishi” (1992 yil, 12 – son, 157 bet), Abdulla Oripov va Murod Mansurning “Navro‘ziy tozaruv...” (1994 yil, 3-4 qo‘shma sonlar, 3 bet), Usmon Azimning “Xalqning mangu g‘ururi. “Alpomish” kinodoston” (1999 yil, 1-2-3-4 sonlar), Jumaboy Yusupovning “Ertakdagi qo‘shiq” (2000-2001 yillar, 1 – son, 157 bet), Bahodir Rahmonovning “Ertak va zamon” (2006 yil, 3- son, 137 bet), Xo‘jakul Muhammadiyevning “Orzugul” dostonida mifologik obrazlar (2006 yil, 5-6 qo‘shma sonlar, 182 bet), Bahodir Rahmonovning “An’anaviy folklor muammolari” (2007 yil, 2- son, 140 bet), Abdusamad Mamayusupovning “Samarqand baxshichilik maktablari: kecha va bugun” (2007 yil, 3- son, 162 bet), U. Hoshimov, N. Alimova, D. Yoqubovlarning “Hunarlariga zeb bergan makon” (2007 yil, 4- son, 19 bet), Oltinoy Tojiboyevaning “Dovrug‘i doston “Alpomish” (2008 yil,

5-6 qo'shma sonlar, 144 bet), Oxunjon Safarov "To tonggacha so'ylagum ertak" (2009 yil, 4- son, 87 bet), Sultonmurod Olimning "Xalq, meros va ma'naviyat" (2010 yil, 3- son, 3 bet), Yo'ldosh Norbo'tayevning "O'zbek milliy cholg'ulari tarixidan" (2010 yil, 5- son, 170 bet), Omonulla Madayevning "Xalq dostonlari genezisiga doir" (2013 yil, 4- son, 130 bet), Dilmurod Islomovning "Moziydan sado" (2014 yil, 5- son, 183 bet), Rahimjono Do'sanovning "O'zbek askiyachiligi sardori" (2015 yil, 2- son, 206 bet), Norqizil Kengboyevning "Shomurod shoir kuylaganda" (2015 yil, 5- son, 183 bet), Shahodat Imomnazarovanning "Xalq o'lanlarida poetik takror" (2015 yil, 3- son, 173 bet) kabi maqolalari shular jumlasidandir.

Yuqoridagi maqolalar ichida Murod Mansurning O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bilan "Navro'ziy tozaruv..." sarlavhasi ostidagi suhbat (1994 yil, 3-4 qo'shma sonlar, 3 bet) nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar yo'nalishi mavzusiga bag'ishlangan. Maqola suhbat janrida yozilgan bo'lib, unda o'zbek halqining chin yangi yili, tabiat yasharishi bo'lmish – Navro'z haqida so'z boradi. Bolalikning shirin xotiralarini Abdulla Oripov shunday eslaydi: "...Navro'z deganda mening xotiramga kitoblarda o'qiganim emas, o'zim bolalik yillarida aynan guvoh bo'lgan ma'rakayu marosimlar kelaveradi. Bu gaplar 40 yillarning oxiri, 50 yillarning boshiga taalluqli. U mahallarda Navro'z haqida hech kim hech qanday rasmiy ma'lumotga ega emas edi. Lekin xalqning yurak tubiga bitilgan Navro'z kanda qilmay o'tkazilardi. Yangi yil, ya'ni Navro'z arafasida kechqurun qishloq maydonchasining uch joyida uchta katta gulxan yoqilardi. Xonadonlardan mundimi, darz ketgan ko'zami, kemptik tuvakmi, obdastami, xullas, eski-tuski idishlarni olib chiqib, biz bolalarning qo'llariga tutqizishardi. Biz esa, haligi hisobdan chiqqan eski-tuski "inventarlar" ni gulxanga zarb bilan urib, olov ustidan ketma-ket sakrab o'tar edik. Bu, albatta, chuqur ramziy ma'noga ega. YA'ni, eski-tuski, qalang'i-qasang'i narsalarimiz eski yilda qola qolsin, degan niyatda shunday qilinar edi..."¹

Shoir Navro'z bilan bog'liq urf-odat va marosimlarni yodga olib: "...Navro'zning birinchi kuni qishloqdagi har bir xonadon o'zining himmatiyu qudratiga yarasha biror taom tayyorlab qishlog'imiz yonidagi ulkan tepalikka olib chiqishardi. Ko'm-ko'k chimzor ustida kattayu kichik, xotin-xalaj jam bo'lishib, haligi taomlarni bab-barobar talashib-tortishib tanovul etishardi. O'sha joyning o'zida, qishloq podachisi saylanardi. Avvalgi podachidan xalq rozi bo'lsa, xo'p-xo'p, yo'qsa unga rahmat aytib, podachilikni yangi odamga topshirishardi..."² – deydi.

Abdulla Oripov Navro'zni beozor, chin tabiat bayrami deb ataydi. Navro'z va uning urf-odat, an'analari, marosim va udumlari tabiat bilan bog'liq bo'lib, juda ham qadim zamonlarga, otashparast ota-bobolarimizga borib tutashishi haqida alohida to'xtaladi.

¹ Абдулла Орипов ва Мурод Мансур. Наврўзий тозарув. "Шарқ юлдузи" журналы, 1994 йил, 3- 4 қўшма сонлар, 3-бет.

² Абдулла Орипов ва Мурод Мансур. Наврўзий тозарув. "Шарқ юлдузи" журналы, 1994 йил, 3-4 қўшма сонлао, 3-бет.

Shuningdek, "...Men payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom fazilatlarini o'rgana turib, quyidagi lavhaga duch keldim..." – deb yozadi shoir, "...Kunlardan birida payg'ambarimizning zavjalari antiqa bir taomni hazratga taklif qiladilar. Rasuli akram haligi taomdan tatib ko'rib, bu nima o'zi, degan savolni beradilar. Bu qo'shni ellarning bayram kuni pishiriladigan taomi deb javob qilishadi. Albatta, bu taom sumalak edi. Shunda hazratimiz lutf qilib, ushbu taomni qay munosabat bilan pishirurlar, deb so'raydilar. Navro'zda, yilning yangi kuni boshlanishida pishirurlar, deb javob qilishadi. Sumalakning mazasini totgan payg'ambar: – Unday bo'lsa har kunlaring Navro'z bo'laqolsin, – degan ekanlar.

Xuddi ana shu lutfni Navoiy bobomiz ham baytga solganlar:

Har tuning qadr o'libon,

Har kuning o'lsin Navro'z.”¹

Abdulla Oripov xalqimizning bebaho urf-odat, marosim, udum va an'ana hamda bayramlarini istiqloq sharofati bilan tiklanib, rivoj topayotganidan behad quvonchga to'lib shunda yozadi:

"...Navro'z atrofida qancha g'ovg'oli gaplar bo'lganini hozir eslash shartmasdir. Hanuzgacha Navro'z kunida, jumladan, turkiy zaminda o'z-o'zidan tabiat qo'ynida boshlanib ketadigan xalq sayllarini kuzatar ekanman, xalqning xotirasi metindan mustahkam, undagi birikmalar oltindan qimmat ekanligiga imon keltiraman. Axir o'ylang, boshqa bayramlar har holda tashviq qilinadi. Navro'z esa yo'lini qanchalik to'sishmasin, bahor selidek, to'lib-toshib yo'lida davom etaveradi.”²

“**Tafakkur**” — ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli-bezakli jurnal. 1994 yildan buyon respublika “Ma'naviyat va ma'rifat kengashi” maussisligida nashr etiladi. Jurnalning asosiy vazifasi xalqimizning boy ma'naviy, madaniy merosi, sharqona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chiqarish, shuningdek, milliy qadriyatlarimiz va ulug' mutafakkirlarimiz merosidan xalqimizni baxramand qilish, islom dinidagi insonparvarlik g'oyalarining yosh avlod qalbidan joy olishiga ko'maklashishdan iborat.

Biz jurnalning 25 yillik – 100 ta sonini tahlilga tortdik. Jurnal tahlamlarida nomoddiy madaniy merosga doir 35 ga yaqin maqola chop etilgan. Xususan, Xurshid Davronning “Alpomishning uyg'onishi” (1994 yil 1-son 14 bet), Bahodir Sarimsoqovning “Ertak oldin yaralganmi yo doston?” vaqt” (1998 yil 1-son, 112 bet), Homidjon Homidiyning “Zardo'sht” (2001 yil 1-son 102 bet), Usmon Qoraboyevning “Madaniyat ildizlari” (2002 yil 1-son 99 bet), Madrahim Safarboyevning “Avesto”da olam va odam talqini” (2002 yil 2-son 93 bet), Shavkat Tog'ayevning “O'zbekchilik” (2002 yil 3-son 166 bet), Feruza Asqarovaning “Folklorning hayotiy jozibasi” (2002 yil 3-son 110 bet), Hidoyat Azimovanning

¹ Абдулла Орипов ва Мурод Мансур. Наврӯзий тозарув. “Шарқ юлдузи” журнали, 1994 йил, 3- 4 қўшма сонлар, 4-бет.

² Абдулла Орипов ва Мурод Мансур. Наврӯзий тозарув. “Шарқ юлдузи” журнали, 1994 йил, 3-4 қўшма сонлао, 5-бет.

“Afsona haqiqati” (2002 yil 3–son 121 bet), Salima Mirzayevaning “Go‘ro‘g‘li qachon o‘ladi?” (2003 yil 1–son 65 bet), Oxunjon Safarov “Buxorocha raqslar jozibasi” (2004 yil 3–son 117 bet), Muzaffar Naimovning “Sust xotin” mi, “Suz xotin” (2004 yil 1–son 126 bet), Quddus A‘zamning “Milliy qadriyatlar tiklanish zamon” (2005 yil 1–son 4 bet), Gulruh Tosheva, Adhamjon Ashirovning “Urf-odatlar zamiridagi hikmat” (2006 yil 2–son 117 bet), Umida O‘tanovanning “Etnomadaniyatning yashovchanlik siri” (2006 yil 3–son 122 bet), Shahnoza Qahhorovanning “Dunyoqarashning buyuk “sintezi” (2006 yil 4–son 94 bet), Gulruh Tosheva “Qadimiy e‘tiqod izlari” (2007 yil 2–son 105 bet), Zafar Hayitovning “Ma‘naviy meros va milliy o‘zlikni anglash” (2007 yil 3–son 111 bet), Go‘zal Razzoqovanning “Xorazm xalfachiligi” (2008 yil 1–son 125 bet), Shahlo Ahrorovanning “Uyg‘un qadriyatlar” (2008 yil 3–son 110 bet), Parda Norbo‘tayevning “Alpomish”dagi etnografik qatlam” (2008 yil 3–son 124 bet), Qurbonniyoz Panjiyevning “Etnomusiqa. Surxondaryo xalq qo‘shiqlari” (2009 yil 1–son), Muazzam Rayimovanning “Folklorda ekologik tarbiya” (2009 yil 2–son 90 bet), Ozoda Nishonovanning “Etnomadaniyat va uning vazifalari” (2009 yil 2–son 69 bet), Ulug‘bek Qilichevning “Milliy hunarmandchilikning yangi bosqichi” (2009 yil 3–son 120 bet), Abdiolim Ergashevning “Baxshichilik zavol topadimi?” (2010 yil 1–son 124 bet), Ziyoda Ahmedovanning “Madaniy meros va yoshlar ma‘naviyati” (2010 yil 3–son 118 bet), Mahbuba Temirova “Hajman ixcham, mazmunan boy” (2010 yil 3–son 121 bet), Temur Qoraboyevning “Milliy qadriyatlarimizning jahoniy e‘tirofi” (2011 yil 3–son 114 bet), Dildoraxon Abdullayevaning “Masal: ham qissa, ham hissa” (2012 yil 2–son 90 bet), Madina Karimovanning “Oilada an‘analar vorisiyligi” (2013 yil 1–son 120 bet), Alisher Polvonniyozovning “ Oila–Olloh himoyasida” (2013 yil 1–son 122 bet), Gulnora Valixonovanning “Uyg‘urlarning choy marosimi” (2013 yil 1–son 123 bet), Qulmon Ochilning folklorshunos olim Shomirza Turdimov bilan suhbat “O‘chmas sira donish chirog‘i” (2015 yil 1–son 4 son), O‘lmas Rasulovning “Sohir ohang, sohir kuy” (2015 yil 4–son 86 bet), Oqilxon Ibrohimovning “So‘z va soz” (2015 yil 4–son 87 bet) maqolalari shular jumlasidandir.

Xususan, Usmon Qoraboyevning “Madaniyat ildizlari” (2002 yil 1–son 99 bet), Madrahim Safarboyevning “Avesto”da olam va odam talqini” (2002 yil 2–son 93 bet), Muzaffar Naimovning “Sust xotin” mi, “Suz xotin” (2004 yil 1–son 126 bet), Abubakr O‘rozovning “Milliy qadriyatlarning badiiy jozibasi” (2010 yil 3–son 119 bet) kabi chiqishlari nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar yo‘nalishi mavzusiga bag‘ishlangan.

Usmon Qoraboyevning “Madaniyat ildizlari” nomli maqolasida xalqimizning eng qadimiy yozma yodgorliklaridan biri bo‘lgan “Avesto” kitobida aks etgan urf-odatlar, marosim va udumlar borasida ma‘lumotlar berilgan. Ma‘lumki, zardo‘shiylik e‘tiqodida tabiat, borliq, olam hodisalari bilan bog‘liq marosimlar, quyosh (olov), suv, yer va havo kabi tabiatning to‘rt unsuri eng muqaddas hisoblangan. Ular olovga quyoshning zarrasi deb sajda qilishgan. Muallifning yozishicha: “... Zardushtiyalar quyoshni “Quyosh bobo”, oyni “Oy momo”, yerni “Ona yer”, havoni “Momo havo”, suvni “Obi hayot” deb ataganlar va ularga atab

marosimlar o'tkazilgan. Shuningdek, yomg'ir tilash uchun "Sust xotin", shamol chaqirish uchun "Choy momo", quyosh chorlash uchun "Quyoshjon", tabiiy ofat bo'lganda esa qurbonlik qilib is chiqarish odatlari bo'lgan. Zardo'shtiylarning suv va yerni muqaddaslashtirishi zahirida yana qum, tuz, loy kabi tabiiy "shifoxona"larga tushib, dardlariga davo izlash odati ham yotadi".¹

Ma'lumotlardan zardushtiylikning aksariyat urf-odat, marosim va udumlari tabiat va koinot bilan bog'liq ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Shuningdek, maqoladagi nabotot va hayvonot olamiga oid udumlar ham diqqatga sazovordir. Zardo'shtiylar e'tiqodining tabiat bilan uyg'unligi ularning ot, it, bo'ri, qo'chqor, xo'roz, tog' echkisi kabi hayvonlarni, qaldirg'och, laylak, oqqush, turna kabi qushlarni ilohiylashtirganida ham ko'rinadi: "...Otashparastlikning asosiy mashg'ulotlari chorvachilik va dehqonchilik bo'lgani tufayli ular uy hayvonlarini alohida e'zozlashgan. Ayniqsa, sigir, ot, it yuksak e'tiborda bo'lgan...".²

Maqolada keltirishicha, zardo'shtiylar ancha mukammal taqvim tizimiga ega bo'lgan. Ming yillar osha bizning davrimizgacha yetib kelgan va bugun xalqimizning umummilliy bayramiga aylangan Navro'z aynan bahorgi tengkunlik ayyomida nishonlanishi buning yorqin namunasidir. Ular Navro'zdan tashqari kuzgi tengkunlik kuni – Mehrjonni, yozning eng qisqa tuniga to'g'ri keladigan Angom kunini hamda qishning eng uzun tuni bo'lgan Sada kunini ham bayram qilganlar. Muallif zardushtiylik odatlarini tahlil qilib, ularni quyidagi guruhlariga ajratgan: Osmon, quyosh, yer va tabiiy hodisalarga bog'liq an'analar, motam marosimlari hamda bayramlar. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari koinot, tabiat, fasllar, va mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan: "...Ajdodlarimiz dunyodagi to'rt muhim narsa (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, ular bilan bog'liq bo'lgan to'rt ulug' kunni belgilab nishonlaganlar. Masalan, tabiat uyg'onishi, kunduz-tunning tengligi, dala ishlarining boshlanish pallasida – "Navro'z"; yozda – quyosh tik bo'lib, eng uzoq kun va qisqa tun sodir bo'lib, harorat yuqori darajaga ko'tarilib, suvga ehtiyoj kuchayganda, unga bag'ishlangan tadbir – Angomlar; dehqonlar hosil yig'ib olgan vaqtda Mehrjon (Chiri-ruji, Nimsarda); qishda – eng uzun tun va qisqa pallasida, qish avjiga chiqib(qishki chilla) boshlanganida, odamlarda isinishga ehtiyoj kuchayganda – Olov bayrami (gulxanlarda isinish) kabilar uyushtirilgan. Bu miloddan oldin shakllangan bayramlarning barchasi tabiiy va insoniy ehtiyojlar asosida qaror topgan...".¹

Ajdodlarimiz e'tiqodi asosida vujudga kelgan zardushtiylik dini tarixda qoldi. Biroq ularning ko'pgina odatlari xalqimiz hayotida hanuzgacha saqlanib kelmoqda. So'zsiz ularning ichida eng kattasi – Navro'zdir. Shu bilan birga, kasallikning oldini

¹ Усмон Қорабоев. Маданият илдиэлари. "Тафаккур" журнаи, 2002 йил, 1–сон, 9 – бет.

² Усмон Қорабоев. Маданият илдиэлари. "Тафаккур" журнаи, 2002 йил, 1–сон, 9 –бет.

¹ Усмон Қорабоев. Маданият илдиэлари. "Тафаккур" журнаи, 2002 йил, 1–сон, 10 –бет.

olish yoki undan saqlanish uchun isiriq tutatish, turli marosimlarda sham yoqish, to‘ylarda gulxan atrofida aylanish, olov atrofida kechki bazmlar uyushtirish, chavandozlarning katta gulxan alangasi ustidan sakrash o‘yinlari, muqaddas daraxtlar shoxiga turli lattalardan “amal” bog‘lash kabi an‘analarni uchratish mumkin. Quyoshni ozodalik bilan kutib olish, tongda hovlini tozalash, uyni supirish, olov yordamida oziq-ovqatlarni zararlantirish, kul, turli gilyohlar tutatishdan foydalanish ham zardushtiyatlardan kelayotgan odatlardir. “...Zardushtiylik odatlari – ajdodlarimizning bizga qoldirgan bebaho tarixiy merosidir. Balki hozirgi kunda bu odatlarga uncha ehtiyoj yo‘qdir. Biroq, ularning barchasini o‘rganib, bilib qo‘ymog‘imiz zarur. Ularning ichidagi eng zaruridan, zamonamizga mos bo‘lganlaridan foydalanish lozim. Jumladan, bahorgi Navro‘z bilan bir qatorda yozda nishonlanadigan Angom hayit, kuzdagi – Mehrjon, qishdagi – Sada kabi qadriyatlarni tabiat, yil fasllariga bag‘ishlangan bayramlar sifatida nishonlash maqsadga muvofiqdir...”¹

Muzaffar Naimovning “Sust xotin” mi, “Suz xotin” sarlavhasi ostidagi maqolasi ham bevosita tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlardan biri bo‘lmish “Sust xotin” qadimiy marosim qo‘shig‘iga bag‘ishlangan. Ma’lumki, mustaqillik yillarida to‘y-marosimlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy bayramlarimiz tiklandi. Bunday qadriyatlar orasida ayniqsa, xalq qo‘shiq-lari muhim o‘rin tutadi. Ularda muayyan urug‘, qabila, elatning o‘ziga xos an‘anasi, yashash tarzi, hatto qishloqlarning qanda joyda –tog‘da yoki tekislikda joylashgani aks etgan. “Sust xotin” marosimi Markaziy Osiyo xalqlarining otashparastlik dinidagi hosildorlik ma’budasi Noxitga (Anaxita) sig‘inish hisoblanib, ibtidoiy odatlardan hisoblangan. Qo‘shiqning asosiy mazmuni esa – yomg‘ir ma’budasi “Sust xotinga” iltijo, murojaat qilish orqali dehqonchilikning barakali bo‘lishini tilashdan iborat. Bunda xalqimizning yerga, tabiatga cheksiz mehr-muhabbati ifodalangan.

Muallif yomg‘ir chaqirish qo‘shig‘i – “Sust xotin” marosim qo‘shig‘iga haqida shunday yozadi: “... “Sust xotin” aslida qadimiy marosim qo‘shig‘i bo‘lib, har joyda turlicha nomlangan: “Sus xotin”, “Talabi bo‘ron”, “Yomg‘ir talab”, “Suz xotin”, “Suv xotin”, “Chala xotin” va hokazo. Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida “Sust xotin” marosimi ishtirokchilari faqat ayollardan iborat bo‘lsa, boshqa joyda faqat erkaklardan tashkil topgan. Gohida bunday tadbirda yosh bolalardan tortib cholu kampirgacha ishtirok etadi. Dastlab katta qo‘g‘irchoq yasab, uni kiyintirib, boshiga ro‘mol o‘rashgan. Yomg‘ir ma’budasi, ya’ni “Sust xotin” timsoli bo‘lgan qo‘g‘irchoqni bir kishi baland ko‘tarib oldinda borgan. Qolganlar unga ergashgan. Odamlar qishloq aylanib “Sust xotin” qo‘shig‘ini baland ovozda aytishgan...”¹

Muallif qo‘shiqning nomlanishi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “... Surxondaryoning Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qorliq qishlog‘ida “Sust xotin” marosimi “Suz xotin ” deb atalib, unda faqat erkaklar qatnashgan. Qo‘shiqning nomlari boshqa joydagilardan farqlangan. Xullas, “Sust xotin” (“Suz xotin”) marosimi matriarxat

¹ Музаффар Наимов. “Суст хотин” ми, “Суз хотин”. “Тафаккур” журна-ли, 2004 йил, 1–сон, 126-бет

¹ Музаффар Наимов. “Суст хотин” ми, “Суз хотин”. “Тафаккур” журна-ли, 2004 йил, 1–сон, 126-бет

davrida vujudga kelgan bo'lib, u davrlar mobaynida turlicha tasavvurlar ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchragan holda bizgacha yetib kelgan.”²

Abubakr O'rozovning “Milliy qadriyatlarning badiiy jozibasi” maqolasida milliy qadriyatlar, an'ana va marosimlarni kelajak avlodga yetkazishda badiiy adabiyotning beqiyos o'rni, xususan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murod asarlarida milliy ruhiyat, ko'hna urf-odat va rasm-rusmlar, unutilish arafasida turgan qadriyatlarimiz o'ziga xos joziba va nafosat bilan tasvirlanganligi haqida gap boradi. Ma'lumki, Tog'ay Murod ijodining o'zak tomiri bo'lgan milliy ruhiyat azaliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi uni doim hayot voqea-hodisalaridan uzoqlashmay, haqiqatdan chekinmay ijod qilishga undab kelgan. Bu haqda Tog'ay Murodning o'zi shunday yozadi: “Xalq nimasi bilan xalq? O'zining urf-odatlari bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an'analar bilan xalq! Ko'p urf-odatlarimizni birovlar...birovlar o'ziniki qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib qolaverdik. Shunday ketabersak, hademay o'zimizda boy berib qo'yamiz! Bu yog'i qanday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo'q qildik. Xiyol bo'lmasa, xalqning o'zini-da eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin dedik!”¹

Abubakr O'rozov Tog'ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asarida haqida shunday yozadi: “... asarda badiiy qahramon sa'jyasi atrof-muhit, oila, tabiat ot obrazlariga munosabatida ochib boriladi. Tog'ay Murod ijodida ot obrazi muhim muhim o'rin egallaydi. Adib otning odamga bo'lgan mehri, sadoqati, uning rangiyu tuzilishi, fe'lu atvori to'g'risida, qolaversa, ot bilan bog'liq irim-sirimlar, rasm-rusmlar haqida jo'shib so'zlaydi: “Birodarlar, ot bilmagan nima yo'q?! Ot qor-yomg'irni, dovulni oldindan biladi. Ayniqsa, to'y-ma'rakani darrov biladi. Boisi, to'yda ko'pkari bo'ladi-da!” Shu jumlada ham otning zehniga, qolaversa, i azaliy qadriyatlar, to'y-ma'rakalarga urg'u berilgan.”²

Bundan ko'rinib turibdiki, hayvonlar harakati, xususan, ot orqali sodir bo'ladigan voqealarni bashorat qilish kabi bilim va ko'nikmalar Tog'ay Murod asarlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Tog'ay Murod o'z ijodida o'z xalqining o'zligini oliy deb bilgan, asarlarida millatni o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylovchi sifatida namoyon etishga harakat qilgan.

² Музаффар Наимов. “Суст хотин”ми, “Суз хотин”. “Тафаккур” журнали, 2004 йил, 1–сон, 127-бет

¹ Тоғай Мурод. Юлдузлар мангу ёнади. Танланган асарлар.1-жилд, Т., “Шарқ” 2008, 46-бет.

² Абубакр Ўрозов. Миллий қадриятларнинг бадийий жозибаси. “Тафаккур” журнали, 2010 йил, 3–сон, 119 –бет.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Vatanimiz mustaqilligi yildan-yilga an'ana va qadriyatlarimizni e'zozlash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashdek ezgu maqsadimizning amalga oshishida ulkan imkoniyatlarni yaratib kelmoqda. Shu barobarida nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish hamda ajodolar merosini kelajak avlod vakillariga yetkazish oldimizda turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bugungi kunda ta'lim sohasida izchil islohatlar amalga oshirilayotgan bir paytda, yoshlarimizni xalqimiz tarixining ajralmas qismi hisoblangan nomoddiy madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyodagi har bir etnos o'z tili, urf-odat va an'analari, marosimlari, xullas o'ziga xos moddiy va ma'naviy merosiga egadir. O'zbeklar ham qadimiy madaniy xalqlar qatori mana shunday bebaho ma'naviy xazina sohibi bo'lib, o'z milliy qadriyatlari, udum va marosimlari bilan jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos o'rin egallagan.

Sharq manbalari, ya'ni qadimgi "Avesto" kitobi, so'g'd, xitoy, arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozma asarlardagi tabiat va koinot bilan bog'liq bilimlarni o'rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Havo, yer, suv, olov, odam pokizaligi, atrof-muhit ozodaligi, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash xususidagi g'oyalar hamon dolzarb ahamiyatga ega. Demak, "Avesto"da ilgari surilgan atrof-muhit bilan bog'liq qarashlarni har tomonlama o'rganish, uning ijobiy jihatlarini turmush tarzimizga qaytadan kiritish ekologik madaniyatning tarixiy asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

Musulmon Uyg'onish davri namoyondalari, sharq mutafakkirlari hisoblangan Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarida ham tabiat va koinotga oid bilimlar tadqiq qilindi va amaliyotga joriy etib borish bilan birga yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirib boradi. Ayniqsa ushbu asarlarda nomoddiy madaniy meros obektlaridan Navro'z va Mehrjon bayrami, Muchal yili bilan bog'liq ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Monografiyada turkiy xalqlarning an'anaviy dehqonchiligi va chorvachiligida osmon yoritqichlari bog'liq bo'lgan urf odatlar va marosimlar o'rganilgan. Jumladan, dehqonchilik piri Bobodehqon kulti bilan bog'liq marosimlar, dehqonchilik va chorvachilikning rivojiga ta'sir qiladigan tabiat va koinotdagi hodisalarni o'zbek xalqi marosimlari va urf odatlarida aks etishi to'liq o'rganildi va ilmiy xulosalar berildi. Chorvachilik bilan bog'liq marosimlarni Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda aks etishiga aniqlandi.

O'zbek folklorshunosligining yutuqlarini aks ettirgan olimlarning tadqiqotlaridagi tabiat va koinot bilan bog'liq ma'lumotlar ham tadqiq qilinib, yangi ilmiy natijalari joriy qilindi. Jumladan, o'zbek dostonlarida hayvonlar bilan bog'liq kultlarni o'rgangan Hodi Zarif asarlari, o'zbek xalqining taqvimiy marosimlarini tadqiq qilgan M. Jo'rayevning tadqiqotlari, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni

ruhiy va badiiy tarzda o'rgangan K. Imomov, o'zbek etnologiya faniga o'z hissasini qo'shib kelayotgan A. Ashirovlarning tadqiqotlari asosida ilmiy xulosalar berildi. Ushbu taqiqotlar asosida o'zbek xalqining yil fasllari bilan bog'liq marosimlari ro'yhati ishlab chiqildi va jadval tarzida monografiyada berildi.

Shu o'rinda matbuot nomoddiy madaniy merosning ahamiyati borasida aholi va ijtimoiy institutlarning xabardorligini oshirish, ijtimoiy birdamlik, barqaror taraqqiyot va ehtimoliy ziddiyatlarni oldini olish vositasi sifatida, shuningdek, uning estetik va ma'naviy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratgan holda, mazkur jabhada samarali faoliyat yuritadi. Matbuot nomoddiy madaniy merosning o'z-o'zini ifoda etish va paydo bo'lish shakllarining turfa xilligi masalalarida, asosan, turli maqsadli guruhlar uchun mo'ljallangan Davlat va xalqaro tashkilotlarning maxsus dasturlarini targ'ib etish va ular doirasidagi jamoatchilik o'rtasida turli tadbir va aksiyalar o'tkazish, bu borada rang-barang mazmundagi materiallar chop etish orqali orqali keng ommani xabardorligini oshirishga ko'maklashadi. Shuningdek, nomoddiy madaniy merosning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini ko'rsatishga mo'ljallangan tahliliy maqolalar, badiiy-publitsistik asarlarni chop etilishi til va madaniyat, nomoddiy madaniy merosning boshqa ko'rinishlari borasidagi bilimlarni chuqurlashtirishda, samarali muhofazaning amaliyoti xususidagi axborotni tarqatishda muhim o'rin tutadi.

Binobarin, mamlakatimizda avloddan avlodga o'tib kelayotgan barhayot boylik - nomoddiy madaniy meros doimo elimizningning atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu tabiiy ravishda o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi.

Bu esa muhim samara bo'lib, "turli hamjamiyatlar, guruhlar va shaxslar o'rtasida o'zaro hurmatni yo'lga qoyish talablariga, shuningdek, barqaror taraqqiyot talablariga mos tushuvchi nomoddiy madaniy meros" boyib, rivojlanib borishi uchun zaruriy omilga aylanadi.

Ushbu loyiha doirasida bajarilgan muhim natijalarni o'rta-maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarni dunyoqarashini kengaytirish va ma'naviyatini shakllantirish uchun tavsiya qilindi. Ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan nomoddiy madaniy obektlarini asrab-avaylash, ularni o'rganish masalalari asosan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish tizimi bilan bog'liqdir. Shu bois, O'zbekiston tarixi, Madaniyatshunoslik, Dinshunoslik, Milliy g'oya kabi fanlar tizimidagi mavzular va o'qitish tizimidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga o'zgarishlar va metodik tavsiyalar berildi.

Bahoriy marosimlarning asosini Navro'z, darveshona, qo'sh chiqarish, gul sayillari, chorvani yaylovlarga haydash kabilar tashkil qiladi. Qadimiy tasavvurlarga ko'ra yilning ushbu qismi o'liklar va tiriklar dunyosining uchrashadigan davri hisoblangani bois barcha bahoriy marosimlar asosida o'tganlar ruhi hamda yangidan hayotning boshlanishi kabi qarashlar yetakchilik qiladi.

Odamlarning yangi yil hamda birinchi ish kunini poklangan holda va ko'tarinki kayfiyat bilan o'tkazishga harakat qilishlari keyingi ishlarda muvaffaqiyat, qut-baraka olib keladi degan ishonchlari natijasida "birinchi kun" magiysi bilan bog'liq

tasavvurlar vujudga kelgan. Tabiat kultlari bilan bog‘liq bo‘lgan gul sayillari esa o‘lish va jonlanish, fasllar almashinuvi, hayot davomiyligi kabi tushunchalar natijasidir.

– O‘zbek xalqining tabiat va koinot bilan bog‘liq tasavvurlari, urf-odat va marosimlari, an’anaviy xo‘jaligiga doir arxeologik, yozma manbalar, etnografik, lingvistik, folklorshunoslik va qator boshqa turdagi manbalarni umumlashtirgan holda kompleks ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarur.

– maktabgacha tarbiya, umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlarida yil taqvimini bilan bog‘liq urf-odatlar mazmun-mohiyatini ochishga qaratilgan maxsus suhbatlar, fakultativ mashg‘ulotlar o‘tkazishni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek xalqining yil taqvimini bilan bog‘liq marosimlarini o‘rganishga, xalq orasida saqlanib qolgan urf-odat va marosimlarning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

– Ona tabiat va koinot bilan bog‘liq taqvimiy marosimlar hozirgi ekologik muammolar g‘oyat katta hayotiy ahamiyat kasb etayotgan davrda o‘ziga xos yechim hisoblanishi mumkin. YA’ni o‘zbek xalqining ajdodlari qadimdan yer, suv, havo, olov va boshqa tabiat in’omlarini qadrlab, e’zozlab kelganlar. Biroq, keyingi davrda milliy an’analarga juda katta zarar yetkazildi. Shu sababga ko‘ra mazkur marosimlarni yanada chuqurroq o‘rganish, uning mazmun mohiyatini keng ommaga targ‘ib-tashviq etish o‘ta dolzarb ma’naviy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xullas, yil taqvimini bilan bog‘liq marosimlarni o‘rganish, tadqiq etish o‘zbek xalqi etnogenezi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniyatini o‘rganishda muhim manba ekan oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Etnologiya” fani doirasida maxsus kurslar tashkil qilish ham foydadan holi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012.-40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–T.: Sharq, 1997. - 64 b.
4. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. –T.: Sharq, 1998. -429 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.– T.: Ma'naviyat, 2008.–176 b.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorilari

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2010 – 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 2010 yil 7 oktabr qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 23 fevral qarori.

IV. Alohida nashrlar, monografiyalar, darsliklar

8. Avesto. Tarixiy- adabiy yodgorlik: Asqar Mahkam tarjimasini. T.: Sharq, 2001.-384 b.
9. Abdullayev U.S. Farg'ona vodiysidagi etnoslararo jarayonlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 216 b.
10. Abdulg'ofi Bahodirxon. Shajarayi turk. – Toshkent, 1990.
11. Abdullayev R. Obryad i muzika v kontekste kulturi Uzbekistana i Sentralnoy Azii. – T., 2006. – 335 s.
12. Abdulahatov N., Azimov V. Oltiariq ziyoratgohlari. – T.: Sharq, 2005. – 110 b.
13. Abduraxmonov I. Boysunda Navro'z // Boysun ilmiy ekspeditsiyasi to'plami. – T., 2005. Nashr 2. – B. 124–126.
14. Asqarov A. Beshkapa ossuariylari. // O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar, 2001-yil. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, 2002.
15. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
16. Ashirov A. "Avesto"dan meros marosimlar. – T.: Sharq, 2001.
17. Ashirov A.A. O'zbek xalqining tabiat bilan bog'liq sayllari // "Zamonaviy badiiy madaniyatda folklor va xalq ijodiyoti" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Boysun, 2002. 23–28 may. – B. 8–10.
18. Ashirov A.A. Zamonaviy o'zbek etnologiyasi: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari // Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. II qism. – T., 2005. – B.36–44.

19. Isoqov Z. Farg‘ona vodiysi an‘anaviy dehqonchilik madaniyati. T.: Yangi nashr, 2011. – 144 b.
20. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. O‘quv qo‘llanma. T.: Fan, - 2008. – 292 b.
21. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq taqvimini va mifologik afsonalar. 1994.
22. Jo‘rayev M. Navro‘z bayrami. - T.: Fan, - 2009. – 230 b.
23. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalari. Toshkent.; Fan, 1995.- 108 b.
24. Jo‘rayev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. – T.: Sharq, 1998. – 176 b.
25. Jo‘rayev M. Bobolardan qolgan naqlar: afsona, rivoyat, irim-sirim va xalq taqvimini. Yozib oluvchi: Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar, so‘zboshi va izohlar muallifi: M.Jo‘rayev, U.Sattorov. – Toshkent.: Fan, 1998, 77-80, 118-123-betlar.
26. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. – T.: Fan, 1.j. 1960. – 499 b.
27. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. – T.: Fan, 1963. 3.j. – 460 b.
28. Nosiruddin Burxoniddun Rabg‘uziy. Qissai Rabg‘uziy. 1 k-b. T., 1990.
29. Nomoddiy madaniy merosni ta‘lim tizimiga tatbiq etish. Respublika ilmiy seminari materiallari. – T.: -2015. – 264 b.
30. Narziqulov A. Dehqon taqvimini. – Toshkent, 1991.
31. Qur‘oni karim: ma‘nolarining tarjima va tafsiri/ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muallipi: Abdulaziz Mansur. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2012.– 624 b.
32. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxojayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2000. – B. 72.
33. Samariya / Abu Tohirxoja. Buxoro tarixi / Narshaxiy. Shajarai Xorazmshohiy / Bayoniy. Farg‘ona tarixi / Ibrat. / Tarixiy esse / Tahrir hay‘ati: B.Ahmedov va boshq. / . – T.:Kamalak, 1991.
34. Sarimsoqov A.A. Shimoliy Farg‘ona qipchoqlarining chorvachilik bilan bog‘liq marosim va urf-odatlarini // Markaziy Osiyoda an‘anaviy va zamonaviy etnografik jarayonlar. 2-kitob. – T.: 2005.
35. Turdimov SH. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari (mas‘ul muharrir T. Mirzayev) –T.: Fan, - 2011.- 240 b.

VI. Avtoreferatlar va dissertatsiyalar

36. Zolotova T.N. Kalendarniye prazdniki russkix Tobolo – Irtishskogo regiona v konse XIX – XX vv. Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. – Omsk., 1997.
37. Kvilinkova YE.N. Kalendarnaya obryadnost gagauzov v konse XIX – nachale XX vv. Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. – M., 2002.
38. Maksudov F.A. Stanovleniye i etapi razvitiya zemledelcheskoy kulturi Yujnoy Fergani.: Avtoref. diss. ... kand. istor. nauk. – Samarkand, 2002. – 24 s.
39. Rahmonov F. Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odat va marosimlari (XIX asrning oxiri – XX asr boshlari).: Tar. fan. nom. ... diss. – T., 2002. – 189 s.
40. Xo‘jaxonov I.M. Farg‘ona vodiysi qishloq aholisi an‘anaviy turar joylarining etnohududiy xususiyatlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).: Tar. fan. nom ... diss. – T., 2007. – 171 s.

41. Xakliyev V.B. Selskaya obshina Severnoy Fergani v konse XIX – nachale XX vv.: Avtoref. diss. ... kand. istor. nauk. – T., 1998. – 26 s.
42. Haqliyev V.B. XIX asr oxiri XX asr boshida Shimoliy Farg'onada qishloq jamoasi (Tarixiy etnografik tadqiqot). Tar. fan. nomz... diss. – T., 1998. – 146 s.

VII. Xorjiy adabiyotlar

43. Abdulhalik M.Çay. Navruz – turk ergenekon bayrami. – Ankara: Tamga, 1999. – 579 s.
44. Genep A. van. The rites of passage. – London, 2004. – 208 p.
45. Genep A. van. Manuel de folklore français contemporain. – Paris, 1992. – 211 p.
- Huizinga J. Homo ludens. A study on the play element in culture. – London, 2003. – 220 p.
46. Jiang Boqin. The Zoroastrian Art of the Sogdians in China // China Archaeology and Art Digest. Vol. 4. N 1, 2000.
47. An Iconological Suroey of the Decorative Elements on the Zoroastrian Temple in Jeixiu, Shanxi // China Archeology and Art Digest. Vol. 4, N 1, 2000.

VIII. Gazeta va jurnal maqolalari

48. Azizov S. Qambar turkumida bir yulduz. // Maktabgacha ta'lim, 2002. 10-son.
49. Ashirov A.A. O'zbeklarning samoviy qarashlari // Sirli olam. – Toshkent, 2002. – №4. – B. 16–17.
50. Ashirov A. “Avesta” va qadimiy dehqonchilik an'analari xususida ayrim mulohazalar // O'IF. – Toshkent, 2005. – № 1–2. – B. 114–115.
51. Balezin A. S. “Koroleva dojdya” i xristianskiy bog // EO. – M., 1997, – № 3. – S. 82–85.
52. Balushok V.G. Godovoy sikl obryadnosti ukrainskix gorodskix remeslennikov epoxi feodalizma // SE. – Moskva, – 1990. – №4. – S. 54–63.
53. Drevyanskaya G. Navro'z // San'at. – Toshkent, 2003. – № 1. – B. 3–5.
54. Shodiyev B. Navro'z Amir Temur va temuriylar davrida // Moziydan sado. – Toshkent, 2005. – №1. – B. 2–6.
55. G'ulom Karim. Ajdodlarimizning zirotchilik ilmi // Moziydan sado. – Toshkent, 2000. – № 1–2. – B.18–21.
56. Otaxo'jayev A. Sug'ddagi turklarda zardushtiylik / Avesto kitobi – tariximiz va madaniyatimizning ilk yozma manbai mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent, 2000. – B. 80-83.
57. Rtveladze E. V. Navro'z baxt va farog'at bayrami // Moziydan sado. 2003. № 1(17). – B. 15.
58. Jo'rayev M. Ramazon qo'shiqlari // Maktabgacha ta'lim. 1993. 3-4-son.
59. Jo'rayev M. Yetti qaroqchi. // Maktabgacha tarbiya, 1995, 7-8-son.
60. Jo'rayev M. Somon yo'li haqidagi o'zbek xalq afsonalarining mifologik asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. 1996. №1. B. 35-41.

IX. Qo'lyozmalar

61. رسالة در قضیلت آب بهار ان نيسان. – O'z FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. Inv. – № 3313–XX

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. QADIMIY SHARQ QO‘LYOZMALARI HAMDA TURKIY XALQLARNING TURMUSH TARZIDA TABIAT - KOINOTGA OID BILIM VA URF-ODATLARNING AKS ETISHI	5
1.1. Qadimiy sharq qo‘lyozmalarida tabiat va koinotga oid bilimlarni yoritilishi.....	5
1.2. Turkiy xalqlarning an‘anaviy dehqonchiligi va chorvachiligida osmon yoritqichlari bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar.....	26
II BOB. TABIAT-KOINOTGA OID BILIM VA URF-ODATLARNI IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR NEGIZIGA SINGDIRILISHI.....	41
2.1. Oliy ta‘limning ijtimoiy-gumanitar fanlar dasturiga tabiat-koinotga oid bilim va urf-odatlarni singdirilishi	41
2.2. Tabiat - koinotga oid bilim va urf-odatlarni ijtimoiy-gumanitar fanlar negziga singdirishda matubot materialaridan foydalanish	48
XULOSA.....	63
FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YXATI.....	66